

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**TILSHUNOSLIK NAZARIYASINING TIL  
AMALIYOTIGA INTEGRATSIVASI**

**2022**

**Rasulov Z.I.** filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“TILSHUNOSLIK NAZARIYASINING TIL  
AMALIYOTIGA INTEGRATSIYASI”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** **Z.I.Rasulov** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Taqrizchi:** **A.A.Haydarov** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2021 yil “30” dekabrdagi 5-sonli bayonnomma)**

**MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>10</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>15</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>45</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>94</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>102</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

**“Tilshunoslik nazariyasining til amaliyotiga integratsiyasi” moduli amaliy tilshunoslik va til ta’limi; til o‘rganish strategiyalari, tillarni o‘qitish usullarini o‘rganish, til tovushlari, grammatikani o‘qitish, leksiko-grammatika va korpus tilshunosligi, suhbat tahlili, pragmatika, matn, kontekst va sxema; tillarni o‘rganish va o‘zaro so‘zlashish; tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi; lingvistik maktablar va ular tomonidan yaratilgan ta’limotlar mohiyati; grammatik kategoriylar, grammatikaga oid zamonaviy ta’limotlar; semantika, semantik kategoriylar, lingvistik tahlil metodlaridan foydalanish; lingvogenetik, areal, tipologik, distributiv, transformatsion tadqiqot metodlar masalalarini qamraydi.**

### Modulning maqsadi va vazifalari

**“Tilshunoslik nazariyasining til amaliyotiga integratsiyasi” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

### **“Tilshunoslik nazariyasining til amaliyotiga integratsiyasi” modulining vazifalari:**

- “Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tadbiq etilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovation texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

- “Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integrasiyasini ta’minlash.

**Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

- “Tilshunoslik nazariyasining til amaliyatiga integratsiyasi” modulini** o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:
- chet tilini o‘qitishning nazariy va kommunikativ yondashuv asoslarini;
  - tilshunoslikda tizimli tahlil etish mexanizmlarini;
  - til o‘qitish tamoyillari va metodlarini qo‘llash prinsiplari va usullarini **bilishi** kerak;
  - til o‘qitishga oid ilg‘or tajribalardan foydalanish;
  - axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalaniib ilmiytadqiqotlarni o‘tkazish;
  - o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o‘qitish tizimini qo‘llash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi**;
  - til va nutq materiallarini tanlash tamoyillari, autentik manbalar bilan ishslash;
  - til o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘rgangan ma’lumotlarni amalda qo‘llay olish **malakalarini egallashi**;
  - me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
  - filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
  - interaktiv multimedia vositalaridan foydalanish **kompetensiyalariga ega bo‘lishi** zarur.

**Modulning o‘quv rejadagi boshqa modular bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o‘quv rejadagi **“Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari”** o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning

tilshunoslik va til o‘qitish malakasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliv ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalarini tarix nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularni qiyoslab o‘rganish yo‘nalishlari profiliga mos zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.

#### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>			
		<b>Hammasi</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>		
			<b>Jami</b>	<b>jumladan</b>	
				<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>
1.	Tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi	2	2	2	
2.	Lingvistik maktablar va ular tomonidan yaratilgan ta’limotlar mohiyati. Grammatik kategoriylar, grammatikaga oid zamonaviy ta’limotlar.	2	2		2
3.	Semantika, semantik kategoriylar, lingvistik tahlil metodlaridan foydalanish.	2	2		
4.	Lingvogenetik, areal, tipologik, distributiv, transformatsion tадqiqot metodlar.	2	2		2
5.	Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalarini tarix nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularni qiyoslab o‘rganish	2	2		2
	Kommunikativ tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, gender tilshunoslik, neyrolingvistika, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologiya.	2	2		

6.	Amaliy tilshunoslik va til ta’limi. Til o‘rganish strategiyalari. Tillarni o‘qitish usullarini o‘rganish.	2	2		2
	<b>Jami:</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>2</b>	<b>10</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu. Tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi**

#### **Reja:**

1. Antik dunyo tilshunosligidan uyg‘onish davrigacha bo‘lgan tilshunoslik: hind, yunon, rim, arab va Markaziy Osiyo tilshunosligi.
2. Yevropada uyg‘onish davridagi tilshunoslik. Germanistikaning shakllanishi.
3. Lingvistika va uning turlari. Til va nutq dialektikasi.
4. Substansiya va forma.
5. Sistema va struktura munosabatlari.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu: Lingvistik maktablar va ular tomonidan yaratilgan ta’limotlar mohiyati. Grammatik kategoriylar, grammatikaga oid zamonaviy ta’limotlar**

1. Yosh grammaticachilar ta’limoti.
2. Istorizm va psixologizm oqimlari
3. Qozon, Moskva maktablarida til ta’limoti hamda fonetik va grammatik birliklar haqidagi ta’limot.
4. F.de Sossyur ta’limotida tilshunoslik predmeti, nutq faoliyati antinomiyasi
5. Praga lingvistik to‘garagi ta’limoti.
6. Amerika deskreptiv lingvistikasi

### **2-mavzu: Semantika, semantik kategoriylar, lingvistik tahlil metodlaridan**

**foydalish. Lingvogenetik, areal, tipologik, distributiv, transformatsion tadqiqot metodlar.**

1. Semantika, semantik kategoriylar
2. Lingvistik tasnif metodlari.
3. Qiyosiy-tarixiy, struktural, distributiv, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish va transformatsion analiz metodlari.

**3-mavzu: Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalarini tarix nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularni qiyoslab o‘rganish**

1. Tilning ijtimoiy tabiatini tahlili.
2. Tilda me’yor tushunchasi.
3. Til va nutq dixotomiyasi.
4. Til, me’yor va nutqning uzviy aloqadorligi

**4- Mavzu: Kommunikativ tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, gender tilshunoslik, neyrolingvistika, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologiya.**

1. Kommunikativ tilshunoslik va lingvopragmatika zamonaviy tilshunoslik yunalishlari sifatida.
2. Psixolingvistika, gender tilshunoslik va neyrolingvistikaning til tadqiqotida tutgan o‘rni.
3. Madaniyatlararo muloqot va lingvokulturologiya masalalarining til amaliyotiga integratsiyasi.

**5-mavzu: Amaliy tilshunoslik va til ta’limi. Til o‘rganish strategiyalari. Tillarni o‘qitish usullarini o‘rganish.**

1. Til tovushlari.
2. Grammatikani o‘qitish. Leksiko-grammatika va korpus tilshunosligi.
3. Suhbat tahlili, Pragmatika. Matn, kontekst va sxema.
4. Tillarni o‘rganish va o‘zaro so‘zlashish.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

### **ASSESSMENT**

The measurement of the ability of a person, the quality or success of a teaching course. Assessment may be by test, interview, questionnaire, observation and so on.

### **BAHOLASH metodi**

Shaxsnинг qobiliyatini, o‘qitish kursining sifati yoki muvaffaqiyatini o‘lchash va baholash demakdir. Shuningdek, baholash test, suhbat o‘tkazish, savol-javob, kuzatish va hokazolar orqali amalga oshirilishi mumkin.

### **AUTHENTIC TASK**

An authentic task is a task that native speakers of a language would do in everyday life. When learners do an authentic task they are doing something that puts real communicative demands on them. A task which replicates or resembles a real-life task, e.g. scanning an article for particular information; this may be contrasted with a task which is specifically designed for, and only relevant in, the classroom.

### **AUTENTIK VAZIFA**

Mahalliy tilda so‘zlashuvchi kishi kundalik hayotida bajaradigan doimiy vazifalar bo‘lib, til o‘rganuvchi ana shunday vaziyatlardan haqiqiy so‘zlashuvda foydalansa, samaraliroq bo‘ladi. Dars jarayonida tilni o‘rganishda real hayotda uchraydigan voqeа-xodisalar ifoda etilgan matnlarni qo‘llash foydalidir. Autentik materiallar darsliklarda berilmaydi.

### **BRAINSTORMING**

(in language teaching) a group activity in which learners have a free and relatively unstructured discussion on an assigned topic as a way of generating ideas. Brainstorming often serves as preparation for another activity.

### **AQLIY HUJUM uslubi**

Bevosita jamoa bo‘lib, “fikrlar xujumi”ni olib borish demakdir. Bu uslubdan maqsad, mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlashdan xoli qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan

fikrlarni yengishdir.

## CASE STUDY

It is about a person, group, or situation that has been studied over time. The case study method often involves simply observing what happens to, or reconstructing ‘the case history’ of a single participant or group of individuals (such as a school class or a specific social group)

### “KEYS-STADI”uslubi

Bu uslub aniq vaziyat, hodisaga asoslangan o‘qitish uslubi hisoblanadi. Shuningdek, vaziyat bilan tanishish, axborotlarni umumlashtirish, axborot tahlili va har bir yechimning afzal va zaif jihatlarini belgilash demakdir.

## CLUSTER

Is the task of grouping a set of objects in such a way that objects in the same group (called a **cluster**) are more similar (in some sense or another) to each other than to those in other groups (clusters).

### TARMOQLAR uslubi

Fikrlarning tarmoqlanishi – pedagogik strategiya bo‘lib, u talabalarning biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishiga yordam berib, ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi.

## DISCUSSION METHOD

It demands that students come to class well prepared. Compelling them to think out their arguments in advance and to answer their peers’ questions and counter arguments, it sharpens their powers of reason, analysis and articulation. It thus provides them with fundamental skills necessary for success in any discipline or profession.

### BAHS-MUNOZARA

Bu usulda guruh a’zolari biror muammoni yechish maqsadida o‘z g‘oyalarini og‘zaki taklif etadilar. Usuldan samarali foydalanish uchun ishtiroychilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lishlari lozim. Bu usul kattalar ta’limida ko‘proq samara beradi.

**ICE-BREAKER**

An activity to make learners feel less nervous or inhibited when they first meet.

**“MUZYORAR”metodi**

Qizdiruvchi, faoliyatga jalb qiluvchi mashq. Talabalarning o‘zaro tanishishi va ishchi muhit yaratish maqsadida qo‘llaniladi. Bu metod xonadagi ruhiy taranglikni yengish, guruhning shakllanish jarayonini tezlatish, muloqot va axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, samimiylilik va hamkorlik muhitini yaratishga yordam beradi.

**INFORMATION GAP ACTIVITY**

An activity in which a pair or two groups of students hold different information, or where one partner knows something that the other doesn’t. This gives a real purpose to a communication activity. An information gap activity is an activity where learners are missing the information they need to complete a task and need to talk to each other to find it.

**AXBOROT ALMASHISH METODI**

Bu uslub shundayki, talabalar juft yoki ikki guruh bo‘lib turli xil axborotga ega bo‘lishadi, yoxud biri bilgan axborotni ikkinchi talaba bilmaydi. Bu esa suhbatlashish uchun xaqiqiy maqsad paydo qiladi. Bu uslub asosan chet tilida gapirish, muloqotga kirish uchun yordam beradi. Shuningdek, rasmlardan ham foydalanish mumkin.

**INTERACTION PATTERN**

Mode of work (individual work, pair work, group work) used in learning or teaching.

**INTERFAOLLIK**

O‘zaro harakat qilmoq ma’nosini beradi. O‘zaro harakat turlari: O‘qituvchi-talaba; talaba-talaba; o‘qituvchi-talabalar; talabalar-talabalar; talabalar-o‘qituvchi.

**JIG-SAW ACTIVITY**

A type of co-operative activity in which each member of a group has a piece of information needed to complete a group task. Often used in reading work when each learner or group of learners reads and understands a part of a text, then takes

part in pooling information to establish the meaning or message of the whole text.

### **“ARRA” METODI**

Bu usulda asosan guruh bo‘lib ishlanadi. Har bir guruh a’zosining qo‘liga matnning bir bo‘lagi beriladi, so‘ngra mazmunini o‘qib bilib olgandan so‘ng, barcha qatnashchilar tomonidan butun matn tuziladi. Bunday metod o‘qitishni o‘rganishda qo‘llaniladi.

### **MULTIPLE-CHOICE**

In testing or teaching: a device in which the learner is presented with a question along with four or five possible answers from which one must be selected. Usually the first part of a multiple-choice item will be a question or incomplete sentence. This is known as the stem. The different possible answers are known as alternatives. The alternatives typically include one correct answer and several wrong answers or distracters.

### **KO‘P TARMOQLI TANLOV TESTLARI**

Bu metod asosan, testda qo‘llaniladi. O‘rganuvchi uchun tuziladigan testlardagi savolda 4 yoki 5 ta javoblar beriladi. Bitta berilgan savoldagi 4 yoki 5 ta javobining bittasi to‘g‘ri bo‘ladi, qolganlari esa o‘xhash javoblar tariqasida beriladi.

### **PRESENTATION**

The way which something is offered, shown or explained to others. A formal monologue presents ideas, opinions or a business proposal.

### **TAQDIMOT**

Axborot, nazariya yoki tamoyillarni talabalarga yetkazish maqsadida ekspert tomonidan o‘tkaziladigan tadbir. U turli (ma’ruza, savol berish, munozara yuritish) shakllarda o‘tkazilishi mumkin. Taqdimotning mazmuni uslub sifatida o‘qituvchiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi.

### **WARM-UP ACTIVITY**

An activity used to orient learners to a new topic or area of focus in a lesson.

### **“CHIGILNI YOZISH”**

Darsga berilgan yangi mavzuni yoritish va talabalarni mavzuga jalb qilish

maqsadida qo‘llanadigan uslublardan biridir.

### **TRUE-FALSE ACTIVITY**

It is a strategy of teaching students, where a teacher allows students to compare two different historical perspectives to the same question. It allows students to see differing opinions to the same problem and go about doing history. It is designed to add inquiry into the teaching of history.

### **“TO‘G‘RI-NOTO‘G‘RI”**

Talabalarni o‘qitishda qo‘llaniladigan shunday yondashuvki, unda talabaga berilgan bitta savolni ikkita turli xil tomonini taqqoslashiga imkon yaratadi. Shuningdek, bu metod talabalarga bir xil muammoga turli xil berilgan fikrlarni ko‘rib chiqish va tanlashga huquq beradi. O‘qitish usulini yana takomillashtirish va mavzuni yoritishga yordam beradi.

### **GAP FILL ACTIVITY**

A gap-fill is a practice exercise in which learners have to replace words missing from a text. These words are chosen and removed in order to practise a specific language point. Gap-fill exercises contrast with cloze texts, where words are removed at regular intervals, e.g. every five words.

### **NUQTALAR O‘RNIGA QO‘YISH**

Bu usul asosan, talabalarni matn bilan ishslash jarayonida gaplarda berilgan nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yish uchun ishlataladi. Bu esa til o‘rganuvchi uchun tushirib qoldirilgan so‘zlarni mukammal o‘rganishlari uchun foydali. Bunday mashqlar ko‘pincha yopiq matnlarda beriladi.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### **1-mavzu. Tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi**

##### **Reja:**

1. Antik dunyo tilshunosligidan uyg'onish davrigacha bo'lgan tilshunoslik: hind, yunon, rim, arab va Markaziy Osiyo tilshunosligi.
2. Yevropada uyg'onish davridagi tilshunoslik. Germanistikaning shakllanishi.
3. Lingvistika va uning turlari. Til va nutq dialektikasi.
4. Substansiya va forma.
5. Sistema va struktura munosabatlari.

<b>1-Ma'ruza:</b>	<b>Tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi</b>
<b>1.2. Ma'ruza mashg'ulotini olib borish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt – 2 soat</b>	Tinglovchilar soni: 25-30
<b>Mashg'ulot shakli</b>	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
<b>O'quv mashg'ulotining rejasি</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Antik dune tilshunosligidan uygonish davrigacha bulgan tilshunoslik: xind, yunon, rim, arab va Markaziy Osie tilshunosligi</li> <li>2. Yevropada uyg'onish davridagi tilshunoslik. Germanistikaning shakllanishi</li> <li>3. Lingvistika va uning turlari. Til va nutq dialektikasi</li> <li>4. Substansiya va forma</li> <li>5. Sistema va struktura munosabatlari</li> </ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi :</b> Tinglovchilarga antik dunyo tilshunosligidan uyg'onish davrigacha bo'lgan tilshunoslik haqida ma'lumot berish	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>Darsdan kutilayotgan natijalar:</b>
- Tinglovchilarga qadimgi hind tilshunosligining o'ziga xos jihatlarini	Tinglovchilar quyidagi bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladilar:

<p>va Panini grammatikasini tushuntirib berish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qadimgi Xitoy, yunon, rim va arab tilshunosli to‘g‘risida ma’lumot berish;</li> <li>- antik dunyo tilshunosligidan uyg‘onish davrigacha bo‘lgan tilshunoslik bosqichlari bilan tanishadilar;</li> <li>- qadimgi Xitoy, yunon, rim va arab tilshunosli tugrisida o‘rganib oladilar;</li> <li>- Qadimgi hind va O‘rta Osiyolik tilshunoslarning xizmati to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar;</li> </ul>	
<b>O‘qitish usullari</b>	Muommoli maruza, namoyish, klaster, aqliy hujum
<b>O‘qitish vositalari</b>	Maruza matni, grafik organayzer, rangli flomasterlar
<b>O‘qitish shakllari</b>	Frontal, kollektiv ish
<b>O‘qitish sharoitlari</b>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xonasi

<b>Ish jarayoni boskichlari (vaqt)</b>	<b>Faoliyatning mazmuni</b>	
	<b>O‘qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
Bosqich I Motivatsiya (15 daq.)	<p>1.1. Salomlashish</p> <p>1.2. Tinglovchilarga yangi mavzu va uning umumiy yo‘nalishlari, maqsadi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.</p> <p>Tinglovchilarning davomati tekshiriladi.</p> <p>1.3. Akliy xujum savollari:</p> <p>a) Umumiyl Tilshunoslik fanining maqsad va vazifalari nimadan iborat?</p> <p>b) Jahon tilshunosliginng tarixiy bosqichlari deganda nimani tushunasiz?</p>	<p>Tinglovchilar aqliy hujum savol-javoblariga faol qatnashadi.</p>

	<p>v) Tilshunoslik fanining rivojiga hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz? O'rta Osiyolik olimlardan-chi?</p> <p>g) Sizning-cha, til va mantiq, til va jamiyat, til va falsafa o'rtasida qanday munosabatlar bo'lishi mumkin?</p>	
Bosqich II. Prezentatsiya (50 daq.)	<p>2.1. Ma'ruzada o'rganiladigan savollar, kalit so'zlar, adabiyotlar ro'yxati e'lon kilinadi.</p> <p>2.2. O'qituvchi rejalashtirilgan mavzu savollari bo'yicha ma'ruza o'qiydi. Vaqt-vaqt bilan tinglovchilarning faolligini oshirish, muhokama qilinayotgan mavzu savollariga diqqatini jalb qilish maqsadida aqliy hujum savollari beriladi. Ko'rgazmali qurollar ishlatiladi.</p>	Tinglovchilar ma'ruzani tinglashadi, o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga o'z munosabatini bildiradi, ma'ruza buyicha kaydlar olib boradi.
Bosqich III. Produktiv- natija ( 15 daq.)	<p>3.1. O'qituvchi muhokama uchun tanlangan savollar buyicha Tinglovchilarning o'z xulosalarini chiqara olishi uchun ko'rsatmalar beradi.</p> <p>3. 2. Ma'ruza bo'yicha savollar beriladi.</p> <p>3.3. O'qituvchi Tinglovchilardan tushgan savollarga javob qaytaradi.</p> <p>3.4. Mustakil vazifa. Ma'ruzada kutarilgan</p>	Tinglovchilar mavzu bo'yicha o'z xulosalarini chiqaradilar. O'qituvchining savollariga o'z munosabatlarini bildiradilar Ma'ruza bo'yicha savollar beradilar. Mustaqil

	savollarni mustakil taxlil kilish. Internet saxifalaridan ma'lumotlar kidirish, solishtirish, takkoslash, xulosa chikarish, berilgan adabiyotlar bilan ishlash.	vazifani yozib oladilar.
--	---	--------------------------

Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e'tirof etiladi. Bu – mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga bo'lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug'ullanish ilk bor Hindistonda - hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Aniqrog'i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida - sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari – Vedalar (Vedalar – o'n kitobdan iborat bo'lgan diniy madhiyalar-gimnlar, diniy qo'shiqlar va afsonalar to'plami. Bularning ichida eng qadimiysi va eng muhimi Rigveda (madhiyalar to'plami) hisoblanadi.) tili davrlar o'tishi bilan mamlakat aholisining so'zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Ya'ni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so'zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo'qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan Vedalardagi ma'nosи tushunarli bo'limgan so'zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug'atlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi so'z va jumlalar ma'nosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga bo'lgan qat'iy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ldi.


*Hindlar qadimiy davrda eng buyuk fonetikachi va grammatikachi sifatida tanilganlar.* Ular fonetika sohasida Yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sirg'aluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalarini, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, cho'-ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shular yuzasidan

mukammal ma'lumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunoslida fonema haqida ham muayyan tushunchalar bo'lgan.


Qadimgi hindlar so'zlarning faqat ma'no tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham o'zgarishlar bo'lishini bilganlar. Shunga ko'ra ular so'zlarning tovush jihatiga alohida e'tibor bergenlar. Tovush haqida, tovushlarning o'zgarishi haqida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik-artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta'siri bilan o'zgarishi (kombinator o'zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e'tibor bergenlar. Ular tovushlarning artikulyatsion – fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a'zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga ta'siridan, ya'ni tegishidan undoshlar hosil bo'lishini qayd etganlar.

Agar yunon filologlari tovush almashinuvi masalasiga umuman ahamiyat bermagan bo'lsalar, hind tilshunoslari bu jarayonga alohida e'tibor bergenlar, tadqiqot olib borganlar, ayni jarayonning o'ziga xosliklarini aniqlab bergenlar. Qiyoqlang: sanskrit tiliga oid so'zlarda, masalan, *vidma* so'zi «biz bilamiz» ma'nosini bersa, *veda* «men bilaman» tushunchasini, *vaidyas* so'zi esa «olim», «ilmli» ma'nosini berishini ko'rsatib bergenlar. Qayd etilgan ma'no (tushuncha) o'zgarishlari esa **i** – **e** – **ai** unli tovushlarning almashinuvi natijasi ekanligi haqida ishonarli, asosli fikrlarni bayon qilganlar.

*Qadimgi hind tilshunoslari grammatika - morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar.* Ular bu yo'naliishda ham grek tilshunoslaridan ancha o'tib ketdilar. Aniqrog'i, hind tilshunosi Guru morfologiyaning uch bo'limdan tashkil topishini aniq ko'rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So'zlar tasnifi (so'z turkumlari). 2. So'z yasalishi. 3. So'z o'zgarishi.



Hindlar to’rtta so’z turkumini farqlaganlar: ot, fe’l, old ko’makchi va yuklama.



**Panini grammatisasi.** Qadimgi hindlarning eng mashhur tilshunosi Paninidir. U bizning eramizgacha bo’lgan IV asrda yashab ijod etdi. Panini o’zigacha bo’lgan davr tilshunoslarning qo’lga kiritgan yutuqlarini umumlashtirib, ulardan foydalangan holda klassik sanskritning (qadimgi hind adabiy tilining) eng mashhur grammatisasini yaratdi. Uning ushbu asari «Ashtadxyan» nomi bilan ataladi. Panini grammatisasi to’rt mingga yaqin (3996 ta) qisqa va lo’nda she’riy usulda yozilgan, osonlik bilan esda qoladigan qoidalarni (sutr) o’z ichiga oladi.

Panini grammatisasi sof empirik va tasviriy xarakterga ega bo’lib, unda sanskrit (qisman Veda) tilining fonetikasiga, morfologiyasiga, so’z yasalishi va sintaksisiga oid fikrlar jamlangan.

Ushbu tadqiqot tili - undagi qoidalalar nihoyatda ixcham va qisqa bo’lganligi, asar tili o’ziga xos terminologiyaga egaligi sababli Panini tadqiqoti uzoq vaqtgacha ovrupolik olimlarga tushunarli bo’lmadi. Birinchi bo’lib, asar mazmunini, undagi g‘oyani rus tilshunos olimi O.Byotling izohlab berdi.

Panini o’z davridayoq tilni sistema sifatida tushundi, so’z turkumlarini

farqladi, so'z tarkibini o'rgandi, o'zak, qo'shimcha, urg'u, intonatsiya va boshqa hodisalar haqida ma'lumot berdi.

Paninining sakkiz bo'limdan iborat klassik sanskrit masalalariga oid grammatikasi Hindistonda deyarli ikki ming yil davomida eng asosiy va eng muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Eramizning XIII asrlaridagina sanskritning hind olimi Vopadeva tuzgan yangi grammatikasi maydonga keldi.

### **Qadimgi Xitoy tilshunosligi**

Qadimgi Xitoy tilshunosligida yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo'lган. Bizning kunlarimizgacha yetib kelgan Xitoy yozuvining eng qadimi yozma yodgorliklari eramizgacha bo'lган **XIII-XI asrlarga** borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklar hayvon (qo'y) suyaklari va toshbaqa qalqonlari bo'lib, ularda fol ochish jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Bu qadimgi «manbalar» Xitoy tilshunosligi tarixida va taraqqiyotida muhim o'rın egallaydi.

Fikr yuritilgan davrlardayoq Xitoy ieroglifi muayyan so'z sifatida, so'zni anglatuvchi, ifodalovchi sifatida xizmat qilgan. Ya'ni Xitoy ieroglifi logogramma hisoblangan.

Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta'siri natijasida (ya'ni Xitoya Hindistondan buddizmning kirib kelishi sababli) hind tilshunosligrining ta'siri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik-prosodemik hodisasi – intonatsiyaning to'rtta turini, ko'rinishini ishlab chiqdilar.

Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, xan davrida (eramizgacha bo'lган 206 y. – eramizning 220 y.) leksikologiya, leksikografiya, ieroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta e'tibor berilgan.

Ushbu davrning eng buyuk tilshunosi *Suy Shen* «*Elementlar va murakkab belgilar haqida*» asari bilan yozuv nazariyasining asoslarini yaratdi. Bu manba Xitoy tilshunoslida shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII – XIX asrlarda keng quloch yoydi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga (sintagmaga) oid faktlar ustida ish olib borildi. Shuningdek, tanqidiy matnshunoslik taraqqiy qildi.

Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ota bola *Van Nyan - Sun* (1744-1832) va *Van In-Chji* (1766-1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi.

Xitoy tilshunoslari so'z masalasida mustaqil so'zlarni va yordamchi so'zlarni farqlaganlar. Mustaqil so'zlarni ot, sifat va fe'l turkumiga ajratganlar.

Yangi davr tilshunosligining yirik vakili tadqiqotchi Chjan Bin-Lin (1869-1936) bo'lib, u Xitoy tilining moyoriy va tarixiy fonetikasi, dialektologiyasi masalalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u fonetik yozuv loyihasini ham tuzdi.

Umuman olganda, *Xitoy tilshunosligining asosiy yo'nalishi, ayniqsa, o'rta asrlarda fonetika (yoki fonologiya) hisoblangan*. Xitoy yozuvi-ideografik yozuv bo'lib, har bir belgi so'zga yoki o'zakka muvofiq keladi. Fonetik jihatdan esa har bir belgi bo'g'inga to'g'ri keladi. Aslida amaliy jihatdan barcha o'zaklar bir bo'g'inlidir.

XVII-XVIII asrlarda Xitoyda fan – tarixiy fonetika katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Agar Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bog'langan bo'lsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shug'ullandi.

### *Qadimgi yunon tilshunosligi. Qadimgi Rim tilshunosligi*

Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi. Faylasuflar va shoirlar vatani bo'lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomonidan o'rganilgan.

Yunon faylasuflari til masalalarini o'rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo'nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo'nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy-falsafiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining yetakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o'rganish, so'zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar

fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug‘ullanishga, shu yo’nalishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo’ldi.

Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo’linadi:

1. Falsafiy davr.
2. Grammatik davr.



**1. Tilshunoslikning falsafiy davri.** Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g‘oyalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo’lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo’nalishlar til masalalari bilan faol shug‘ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o’ta dolzARB va eng muhim muammolaridan biri **so’z muammosi, so’zning tabiiy hodisami? yoki shartli hodisami? ekanligi** haqidagi bahs, munozara bo’lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalani hal qilishda tarafma - taraf bo’lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog‘i, bu

davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi.

Boshqacha aytganda, predmet bilan uning nomi o'rtasida qanday munosabat mavjud? So'zdagi tovush bilan ma'noning bog'lanishi qanday yuz beradi? Bu bog'lanish tabiat tomonidan beriladimi yoki so'zlashuvchilar tomonidan kelishilgan holda yuz beradimi yoki ma'lum qonun - ko'rsatma bilan tayinlanadimi?, «muayyan urf - odat bilan bog'lanadimi yoki odamlar tomonidan belgilanadimi, ya'ni bu jarayon ongli, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladimi?» va boshqalar.

Tilshunoslikning falsafiy davrida so'z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda **Geraklit** va uning tarfdorlari quyidagi g'oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o'zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog'lanishda bo'lib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon bo'ladi, «ochiladi». Aniqrog'i, suvda daraxtlar, ko'zguda o'zimiz aks etganidek har bir nom o'zi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anig'i predmet bilan ularni anglatuvchi so'zlar orasidagi bog'lanish tabiat tomonidan berilgan bo'lib, bu bog'lanish tabiiy, zaruriy bog'lanish hisoblanadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida eng dolzarb muammo bo'lgan predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi **Platonning «Kratil»** nomli asarida ham mukammal bayon qilinadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida til masalalari bilan jiddiy va barakali shug'ullangan oqimlardan biri stoitsizm hisoblanadi. Stoitsizm ta'limotining vakillari bo'lgan stoiklar: **Xrisipp, Krates** va boshqalar o'z ta'limotlarida jahondagi nomuvofiqlikka hamma narsalarning maqsadga muvofiq bo'lishini qarama-qarshi qo'yadilar. Shunga kura ular tilni kishilarning ruhida tabiat talabiga ko'ra paydo bo'lgan deyish bilan birga so'z predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi, deb aytganlar. Stoiklar so'zlovchi gapirganida so'z orqali u predmetning tabiat haqida qanday taassurotda bo'lsa, eshituvchida ham xuddi shu xususiyatlar haqidagi taassurot tug'iladi, deb o'ylaganlar.

**2. Tilshunoslikning grammatik davri.** Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb yuritiladi. Misr davlatining markazi bo’lgan Iskandariya makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog‘liq edi. U bosib olgan Sharq mamlakatlarida yunon tili, madaniyati, falsafasining ta’siri natijasida yunon madaniyati, Sharq madaniyati bilan qo’shilib ketib, aralash madaniyat - ellinizm yuzaga keladi.

Iskandariya ellinizm madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Umuman, bizning eramizgacha bo’lgan III asrdan boshlab, birorta ham shahar: na Afina, na Rim yuksak madaniyat namunasi va ilmiy markaz bo’lgan Iskandariya shahri bilan tenglasholmas, raqobat qilolmas edi.

Xullas, yunon tilshunosligi, ayniqsa, ellinizm davrida – yunon-sharq davrida (bizning eramizgacha bo’lgan 334-31y) taraqqiy qildi, rivojlandi.

Aleksandriya grammatika matabining eng yirik vakillari **Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol** va boshqalar.

**Dionisiy** (bizning eramizgacha bo’lgan 170-90 y). Aristarxning shogirdi frakiyalik Dionisiy o’zigacha bo’lgan tadqiqotchilarining ishlari va tajribalarini o’rganib, ulardan foydalanib, rimliklar uchun «**Grammatika san’ati**» nomli sistemalashtirilgan dastlabki yunon grammatikasini yaratdi.

Dionisiy ta’limotiga ko’ra so’z so’zlashuv nutqining (bog‘langan nutqning) eng kichik bo’lagi (qismi)dir. Gap (yoki nutq) esa so’zlarning o’zaro munosabatidan, bog‘lanishidan hosil bo’lib, tugal fikr ifodalaydi.

Dionisiy grammatikasida ot turkumi haqida quyidagi fikr beriladi: ot kelishik va songa ko’ra o’zgaruvchi turkumdir. U sifatlarni ham otga kiritadi.

Dionisiy fe’l haqida fikr yuritib, fe’lning kelishiksiz so’z turkumi bo’lib, zamon, shaxs, son, mayl, nisbat, tuslanish va boshqalarga ega ekanligini aytadi. Fe’lning beshta: aniqlik, buyruq, istak, tobelik va noaniqlik mayllarini; fe’lning uchta: harakat, o’zlik va o’rta nisbatlarini; fe’lning uchta: birlik, juftlik va ko’plik sonlarini; fe’lning uchta: birinchi - nutjni so’zlagan, ikkinchi - nutq yo’naltirilgan va uchinchi - so’z yuritilgan (o’zga) shaxslarni qayd etadi. Grammatik zamon esa hozirgi, o’tgan va kelasi zamon kabi turlarga bo’linadi. Sifatdoshlar esa fe’l va

otlarga xos bo'lgan belgilarni birlashtiradigan kategoriya sifatida talqin qilinadi.

**Apolloniy Diskol** (bizning eramizning II asrining birinchi yarmi). Apolloniy Diskol bizgacha yetib kelgan yunon tili sintaksisini yaratdi. U «**Sintaksis haqida**» asarida yunon tili sintaksisiga oid ma'lumotlarni berdi.

Iskandariya maktabi vakillari tilning tovush tomoniga ham katta e'tibor berishdi. Ular tovushlarni akustik prinsip asosida tasvirladilar, tovush va harflarni aynan bir narsa hisoblab, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar. Shunga ko'ra harflarni unli tovushlar va undosh tovushlar nomi bilan tasvirladilar. Unli harflarni (tovushlarni) o'z holicha talaffuz qilinadigan va o'zini alohida eshitish mumkin bo'lgan tovushlar sifatida, undosh harflarni (tovushlarni) esa unlilar bilangina talaffuz qilinadigan tovushlar sifatida qaradilar. Shuningdek, ular bo'g'in, urg'u haqida ham ma'lumot berishdi.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va qator asarlar yaratdilar. Yunon tilshunosligida, ayniqsa, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlangan bo'lib, unga nisbatan fonetika va sintaksis masalalari bo'sh tadqiq qilingan. Shuningdek, Iskandariya maktabi vakillari grammatikani falsafadan ajratdilar.

Xullas, qadimda tilshunoslikning Iskandariya davri grammatikani mustaqil fan sifatida yaratdi.

Qadimgi yunon tilshunosligi (grammatikasi) hind tilshunosligi (grammatikasi) bilan bir qatorda o'z davrida arab tilshunosligiga (grammatikasiga) ta'sir qildi.

### **Qadimgi Rim tilshunosligi**

Qadimgi Rim filologlarining tilshunoslik faniga qo'shgan hissasi katta emas. Rim grammatikasi yunon grammatikasining shahobchasi sifatida maydonga keldi. Iskandariya maktabida yaratilgan yunon tili grammatikasi qadimgi rimliklar tomonidan lotin tiliga tatbiq qilindi. Yunon tilidagi deyarli barcha grammatik terminlar lotin tiliga o'girildi.

Yunon tilshunosligidagi analogiya va anomaliya maktablaridagi munozaralar ham Rim tilshunosligida davom ettirildi.

Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari: **Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Mark Fabiy, Kvintilian, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian** va boshqalardir.

**Yuliy Sezar** (eramizdan ilgarigi 100-44 y). Qadimgi Rimning taniqli davlat arbobi, lashkarboshisi va notig‘i Yuliy Sezar «**Analogiya haqida**» nomli grammatik asarini yozdi. U so’z va predmet munosabati masalasida analogiya tarafdori sifatida tanildi.

*Mark Terensiy Varron (eramizdan ilgarigi 116-27 y).*

Mark Varron 25 kitobdan iborat «**Lotin tili haqida**» asarini yaratdi. Shu kungacha bu asarning 6 tasi yetib keldi. Kitobda analogistlar va anarchistlar orasidagi nazariy tortishuv, munozara mukammal bayon qilinadi. U ham Yuliy Sezar kabi analogiya tarafdori edi. Varron so’z o’zgarishini analogiyaga, so’z yasalishini esa anomaliyaga kiritadi.

**Eliya Donata** (bizning eramizgacha IV asrning o’rtalari).

Eliya Donata grammatikaga oid keng qamrovli mashhur asarini yozadi va uni «**Grammatika san’ati**» deb nomlaydi. Ushbu asar to’liq va qisqartirilgan variantlarda bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

**Verriy Flakk** (eramizning boshlari). Rim tilshunosi Verriy Flakk leksikologiya sohasida o’zigacha bo’lgan tadqiqotlarni, tajribalarni va fikrlarni umumlashtirib, katta hajmdagi «**Fe’Ining ma’nosi**» asarini yozdi.

**Prissian** (VI asr boshlari). Rim grammatikachisi Prissian lotin tili bo’yicha o’z davrining eng katta tadqiqoti hisoblangan «**Grammatika san’ati haqida ta’limot**» kitobini yaratdi.

Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Prissianning grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammal bayoni sifatida juda ko’p asrlar davomida - o’rta asrlar davri uchun namuna bo’lib xizmat qildi.

Shunday qilib, rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili haqida keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Rimliklarning ona tili bo’yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan, yunon tilidan tarjima qilingan bo’lsa-da,

ularning grammatikalarida ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar uchrab turadi. Jumladan, Rim tilshunoslari yunon tilshunoslaridan farqli holda Rim grammatikasiga alohida stilistikani (uslubshunoslikni) kiritdilar. Rim grammatikachilari so’z turkumiga undovlarni ham kiritdi. Ammo yunon tiliga xos bo’lgan artiklni chiqarib tashladilar. Chunki lotin tilida artikl yo’q edi. Demak, lotin tili uchun ham 8 ta so’z turkumi xos bo’lib qoldi. Rim tilshunoslari son turkumini ikkiga: tub son va tartib songa bo’lib o’rganishdi. Yuliy Sezar lotin tiliga yunon tilida mavjud bo’lmagan ablativ (ajratish) kelishigini kiritdi va kelishiklar sonini oltitaga yetkazdi.

Rim filologlari grammatikaga oid terminlarni ham yunon tilidagi terminlar asosida yaratdilar. Jumladan, yunon va rim grammatikasiga oid ayrim terminlar ruscha va o’zbekcha tarjimalari bilan quyidagilar: onoma, nomen - imya, ot; rema, verbum - glagol, fe'l (qadimgi rus tilida nutq); antonomia, pronomen – mestoiimenie, olmosh; nomen adjektivum – imya priglagatelnoe, sifat; epiirryoma, adverbium – narechie, ravish; artron, artikulum – artikl; prodesis, praepositio – predlog, old ko’makchi, old qo’shimcha; syndesmos, conjunction – soyuz, bog’lovchi; interjection – mejdometie, undov; soneenta, vokales – glasnye, unlilar; symfona, consonantes – soglasnye, undoshlar va boshqalar.

Xullas, antik davr tilshunoslik maktablarining ahamiyati jahon tilshunosligi nuqtai nazaridan yuksakdir. Ushbu davr Ovrupo madaniyatining beshigi bo’lib maydonga chikdi. Qadimgi yunon va Rim tilshunosliklari keyingi davr tilshunosligining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo’ldi.

Iskandariya tilshunoslik maktablari vakillari grammatikani mustaqil fanga aylantirdilar. Ular juda katta grammatik «xom-ashyo» (material) to’plab, ot va fe'l turkumlarining asosiy kategoriyalarini aniqlab berishdi. Yunon tilshunoslari fonetika, morfologiya, sintaksis va etimologiya fanlarining asoslarini yaratdilar. Ular so’z va gap kabi muhim va murakkab lisoniy birliklarni aniqlab, izohladilar, so’z turkumlarini ajratib berdilar.

### *Arab tilshunosligi*


Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo’lishi va rivojlanishi Hindistondagi kabi, amaliy ehtiyojlar bilan bog’lanadi. Ya’ni bu davrda eski yodgorliklar va Qur’on tili bilan jonli arab tili (shevalari) orasida katta farqlanish yuzaga keladi.

Bir tomondan musulmon dunyosining muqaddas diniy kitobi bo’lgan «Qur’on»ni tushunarli qilish, undagi so’zlarni to’g’ri va aniq talaffuz qilish, ikkinchi tomondan, klassik arab tilini shevalar ta’siridan saqlash maqsadida arab olimlari til masalalari bilan jiddiy shug‘ullanishga kirishdilar.

Arab tilshunosligi o’z taraqqiyoti davrida hind va yunon tilshunosligi yutuqlariga, uz ananalariga tanqidiy va ijobiy yondashgan. Arablar o’z tillarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan foydalanganlar.

**VII-VIII asr** arab tilshunosligining dastlabki markazlari Iroqning Basra va Kufa shaharlari hisoblangan. Basra va Kufa shahlarida ikkita lisoniy maktab tashkil topgan bo’lib, ular o’rtasida tilshunoslikning ko’pgina masalalari yuzasidan «fikrlar jangi», qizg‘in bahslar, munozaralar olib borilgan.

Ushbu lisoniy munozaralar tilshunoslik fanining markazi Arab xalifaligining poytaxti bo’lgan Bog‘dod shahriga ko’chirilgandan so’ng to’xtagan.



Arab tilshunosligining asoschilaridan biri, Basra grammatika maktabining vakili **Xalil al - Farohidi** (taxminan 718-791y) birinchi arab tili lug‘atini yaratdi. U lug‘atini «**Kitobul ayn**» («Ayn harfi kitobi») deb nomlab, unda grammatikaga oid muhim fikrlarni bayon etdi. Shuningdek, olim «**Kitobul avomil**»

(«Boshqaruvchilar kitobi») nomli asarni ham yozdi. Ammo bu asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Xalil al-Farohidining shogirdi, mashhur arab tilshunosi, kelib chiqishiga ko’ra fors **basralik Amir bin Usmon Sibavayxiy** (733 yilda vafot etgan) o’zining salmoqli «Al - kitob» asarini yaratdi. Muallif ushbu asarda o’zigacha bo’lgan barcha tadqiqotchilarining ta’limotlarini, fikrlarini, qarashlarini umumlashtiradi. U arab tili grammatikasining tugal va mukammal ko’rinishini taqdim etadi. Ushbu asar har ikkala: Basra va Kufa maktabi vakillari tomonidan bir xilda yuqori baholangan va qadrlangan.

**Arab leksikografiyasida** lug‘atlar mazmuniga ko’ra **olti** guruhga bo’linadi: **1.** To’liq izohli lug‘atlar. **2.** Predmet lug‘atlari (masalan, hayvonlar bilan bog‘liq lug‘atlar va b). **3.** Sinonimlar lug‘ati. **4.** Noyob so’zlar lug‘ati. **5.** O’zlashgan so’zlar lug‘ati. **6.** Tarjima lug‘atlari.

Kelib chiqishiga ko’ra yunon **Abu-Abayda** (770-837) noyob so’z va ibora, ifodalarning keng qamrovli lug‘atini tuzadi.

Bog‘dodlik hind **Sag‘ani** (1181-1252) 20 tomlik lug‘at yaratadi va uni «**To’lqinlar toshqini**» deb nomlaydi.

Misrlik **ibn Mansur** (1232-1311) katta hajmdagi salmoqli lug‘at tuzib, uni «**Arab tili**» deb ataydi.

Sherozlik fors **Feruzobodi** (1329-1414) 60 tomlik lug‘at tuzgan va uni «**Qomus**» (Okean) deb nomlagan. Bundan keyin yaratilgan ko’plab lug‘atlar ham «**Qomus**» nomi bilan ataladigan bo’lgan.

Arab leksikografiysi Sharq - Eron, Turkiya, qisman hind xalqlariga ham, Yevropa xalqlariga ham katta ta’sir ko’rsatdi.

Arab tilshunoslari, yunon tilshunoslaridan farqli, fonetika masalalariga g‘oyat sezgirlik bilan munosabatda bo’lganlar. Ular tovush va harfni, yunonlardan farqli, qat’iyan farqlaganlar. Shuningdek, “harf” termini bilan faqat yordamchi so’z va affikslarnigina emas, balki nutq tovushini, “aloma” termini bilan esa tovushning yozuvdagi ko’rinishini, ya’ni harfni ifodalaganlar.

Arablar unli va undosh tovushlarni farqlab, **undoshni mohiyat, unlini esa o'tkinchi** deb ta'riflaganlar va arab so'zlarida (o'zaklarida) undosh tovushlarning asosiy rol o'yashini ta'kidlaganlar. Qiyoslang: kitob, kotib, kutub. Shunga ko'ra ular uch undoshli o'zaklarni alohida ajratganlar.

Arab tilida o'zak 3 ba'zan 4 undoshdan iborat bo'lib, so'z va so'z formalarini yasash paytida bu undoshlar orasidagi unli tovushlar o'zgartiriladi (kitob, kotib, kutub). So'zning bunday tuzilishi **fleksiya** (egilish) haqidagi ta'limotni yaratishga olib keldi. Shunga ko'ra arab - yahudiy filologiyasida o'zak, so'z yasovchi elementlar tushunchasi bilan birga fleksiya haqidagi tushuncha ham paydo bo'lди.

Arablar, hindlar kabi, tovushlarni akustik va fiziologik belgilariga ko'ra farqlaganlar. Nutq a'zolari sifatida og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i va bo'g'iz hisoblangan. Nutq tovushlarini hosil qilishda bo'g'iz, til, tanglay, milk, tish, lab xizmat qilishi ta'kidlangan.


Arab tilshunosligida sintaksis masalalari, hind va yunonlardagidek, grammatikaning eng bo'sh bo'limi hisoblangan. Shunga qaramasdan arablarda sintaksisning tekshirish ob'ekti sifatida gap, gapning struktur-semantik tahlili kuzatiladi. Ular gapning kamida ikki so'zdan – ikki otdan yoki ot va fe'lidan iborat bo'lishini, bu so'zlar o'rtasidagi sub'ekt – predikat munosabatining o'rganilishini to'g'ri ta'kidlaydilar. Gaplarning tuzilishiga ko'ra otli, fe'lli va holli turlarga bo'linishini qayd etdilar. Otli gaplarning ot so'zdan boshlanishini (masalan, Zayd turibdi), fe'lli gaplarning esa fe'l so'zdan (masalan, turgan Zayd) boshlanishini aytadilar.

Oqli gapning egasi “mubtado” (mubtado), kesim esa “xabar” (xabar) deb nomланади.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari sifatida 1) to'ldiruvchi, 2) hol va 3) izohlovchilar ko'rsatiladi.

So'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatga xizmat qiluvchilar sifatida moslashuv, boshqaruv va bitishuv olinadi. Oqli gaplarda ega kesim bilan moslashadi.

Arab tilshunoslari morfologiyada, **Aristotel kabi, uchta so'z turkumini**-ismun (ot), fe'lun (fe'l) va harfun (yuklama, yordamchi so'zlar va affikslarni) ajratadilar. Otni keng ma'noda olib, uning tarkibiga ot, sifat, olmoshlarni ham kiritadilar.



Otlarni atoqli va turdosh otlarga, turdosh otlarni esa aniq va mavhum otlarga ajratadilar. Otlarning son, egalik, kelishik kategoriyalari ancha mukammal tasvirlanadi. Otlarning kelishik kategoriyalari sifatida tushum kelishigi (-ni), jo'nalish kelishigi (-ga, -ka, -g'a), o'r'in va payt kelishigi (-da), chiqish kelishigi (-dan) va birgalik kelishigi (bila) qayd etiladi. Qaratqich kelishigi alohida izofa hodisasi sifatida tushuntiriladi. Bosh kelishik haqida so'z yuritilmaydi.

Arab grammatikasining morfologiya qismi **Sibavayxiy** asarida puxta ishlab chiqilgan. Aniqrog'i, u morfologiyaqa oid quyidagi masalalarni tadqiq qiladi: 1. So'z turkumi. 2. O'zakning tuzilishi. 3. Ot va ularning tasnifi. 4. Fe'l va uning shakllari va boshqalar.

**Turkiy til masalalari** bo'yicha tilshunos **Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiy** (1256-1344) qator asarlar yaratdi. Ma'lumotlarga qaraganda bu asarlarning o'ndan ortig'i bizgacha yetib kelgan. Masalan, 1. «Kitobul af'ol fillisoniy turkiya» («Turk tilidan ish kitobi»). 2. «Kitob zahvul mulk finnahvit turkiya» («Turk sintaksi sohasidan yorqin kitob»). 3. «Adduratul mudita fil lug'atit turkiya» («Turk tili tarixi») 4. «Kitob al idroki lisonul atrok» («Turklar tilini tushunish kitobi»).

«Turklar tilini tushunish» kitobi 1312 yilda arab tilida yozilgan bo'lib, kirish, lug'at va grammatika bo'limlaridan tashkil topgan. Muallif asarning kirish qismida til sistemasining tuzilish elementlari – tashkil qiluvchilari sifatida lug'at tarkibini,

morfologiya va sintaksisni ko'rsatadi. Ya'ni u alohida olingan so'zlarning ma'nolarini, so'zlarning turlanishi va tuslanishining qoidalarini hamda so'z birikmalarini qayd etadi.

Asarning lug'at qismida turkiy so'zlar arab alfaviti tartibida joylashtirilgan bo'lib, unda 3000 ga yaqin so'z mavjud.

Asarning morfologiya qismida so'z turkumlari haqida fikr yuritiladi. Bunda ot, fe'l va harf (yordamchi so'zlar va affikslar) alohida qayd etiladi. Turkiy tillarning so'z yasash, so'z o'zgartirish va forma yasash kategoriyalari haqida ma'lumot beriladi.

Asarda sintaksisning so'z birikmasi ta'limotiga to'xtab o'tiladi.

Turkiy tilga bag'ishlangan muallifi noma'lum «**At-tuhfatuz zakiyatul fillug'atit turkiya**» («Turkiy til haqida noyob tuhfa») asari ham bo'lib, u XIV asrga oid deb taxmin qilinadi. Arab tilida yozilgan bu manba prof. S.Mutallibov tarjimasida o'zbek tilida 1968 yilda Toshkentda nashr qilingan. 1978 yilda esa asar akad. E.Fozilov va M.T.Ziyaevlar tomonidan rus tiliga ugirilib, «Izbyiskanniy dar tyurkskomu yazыku» nomi ostida (akad. A.N.Kononov muharrirligida) Toshkentda chop etildi.

Asarda qipchoq shevasining lug'at tarkibi va grammatic qurilishi tasvirlanadi. Tadqiqot uch bo'limdan: 1. Qisqacha kirish. 2. Lug'at va 3. Grammatikadan tashkil topgan.

Manbaning kirish qismida til va jamiyat masalasiga e'tibor qaratilib, tilning jamiyatdagi vazifasi, o'rni uning tafakkur bilan bog'liqligi haqida fikrlar beriladi.

Muallif: «Inson hayvondan faqat tushunish va til (so'zlash, bizningcha-nutq R.R) bilangina farq qiladi», - deydi. Demak, fikrlash va til (nutq) qobiliyati faqat insongagina xos ekanligi ta'kidlanadi. Binobarin, inson ana shu qobiliyatiga ko'ra o'zgalar bilan, jamiyat a'zolari bilan aloqaga kirishadi, o'zaro aqliy, lisoniy munosabatda bo'ladi.

Ishning kirish qismida, shuningdek, grafika – yozuv bilan bog'liq ayrim masalalar hamda ba'zi tovushlar haqida, tovushlarning fiziologik - talaffuz xususiyatlari hamda talaffuz vaqtida tushib qolish xususiyatlari haqida ma'lumot

beriladi. Masalan, d: *ichir* (asli *ichdir*); b: *agar* (asli arabcha *abgar*); r: *bila* (asli *birla*, *birlan*); q: *sichan* (*sichqan*), *tashari* (*tashqari*), *bashar* (*bashqar*); k: *ichari* (*ichkari*); ng: *aliz* (*alingiz*).

Asarning lug‘at bo’limida uch mingta turkiy so’z qayd etiladi. Ular arab tiliga tarjima qilinadi, ma’nolariga alohida e’tibor beriladi.

Manbaning grammatikaga oid bo’limida muallif, asosan, morfologiyaga katta e’tibor beradi. Ishda turkiy til grammatikasi arab tili grammatikasiga qiyoslanadi. Aniqrog‘i, arab tili grammatikasi asosida turkiy til grammatikasi tahlil qilinadi.

### ***Arab tilshunosligining rivojida O’rta Osiyolik tilshunoslarning xizmati***

O’rta Osiyolik mashhur allomalarining jahon madaniyati, ma’rifati, ilm-faniga qo’shgan hissasi ulkandir. Jahon tan olgan buyuk allomalar: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud az-Zamahshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning tilshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmatlari kattadir.

**Abu Nasr Forobiy.** Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873-930) yaratgan asarlar ichida «*Fanlar tasnifi*» (yoki «Fanlar tasnifi haqidagi so’z») kitobi tilshunoslik masalalariga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Buyuk alloma tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va stilistika kabi bo’limlari haqida dastlabki tushunchalarni bergen.

Forobiy fonetika haqida fikr yuritar ekan, nutq tovushlari, tovushlarning undosh va unli turlari, undosh tovushlarning paydo bo’lishi, o’rni, unli tovushlar va ularning xususiyatlari, so’zga qo’shimchalar qo’shganda yuz beradigan tovush o’zgarishlari, so’zning fonetik meyori haqida fikr yuritadi.

U leksika yuzasidan ma’lumot berar ekan, leksik birlik bo’lgan so’z masalasiga, so’z ma’nolarining tasnifi masalasiga to’xtaladi. Ya’ni so’z ma’nosining ikki turini: sodda va murakkab bo’lishini ko’rsatadi. Sodda ma’noli so’zlarga: *odam*, *hayvon*, *gul*, *ovqat*, *osmon* kabi atash vazifasini bajaruvchi alohida so’zlarni kirlitsa, murakkab ma’noli so’zlarga: *narsa* va uning belgisini bildiruvchi: *Bu odam – bilimli*, *bu gul - o’simlik* kabi ifodalarni kiritadi.

Forobiy morfologiya masalasida so'zlarni arab tilshunosligiga asoslangan holda ot, fe'l va harflarga ajratadi. Otlarni ikkiga: atoqli va turdosh otlarga bo'ladi. Aniqrog'i, sodda ma'noli so'zlarni ikkiga ajratadi: 1) atoqli otlar: Zayd, Amr; 2) turdosh otlar: odam, hayvon, ot va boshqalar. Otlarga son kategoriyasi (birlik, ikkilik, ko'plik), fe'llarga zamon (o'tgan, hozirgi, kelasi) kategoriyasi xosligini ta'kidlaydi.

U sintaksis masalasida so'z birikmasi haqida, nutqning qismlarga bo'linishi, so'zlarning qanday birikish qoidalari va hukm bildirishi, so'zlarning qo'shilish turlari haqida fikr yuritadi.

Forobiy orfografiya masalasida so'zlarning yozilish qoidalari yuzasidan ham dastlabki ma'lumotlarni beradi.

Forobiy she'riyat - she'r haqida fikr yuritar ekan, she'rning yozilish o'lchovlari, ya'ni she'rning yozilishidagi to'liq va noto'liq o'lchovlar, qaysi o'lchov yoqimli va chiroyli ekanligi, umuman, she'r tovush va bo'g'indan tashkil topishi haqida fikr bayon qiladi.

Forobiy ulug' faylasuf olim sifatida umumiylig va xususiylik dialektikasi nuqtai nazaridan tilga, lisoniy hodisalarga ham murojaat qiladi.

### **Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al - Beruniy**

O'rta asr Yevropasida Aliborona nomi bilan mashhur bo'lgan qomusiy alloma xorazmlik Abu Rayhon al - Beruniy (937-1048), ma'lumotlarga qaraganda, 150 dan ortiq asar yaratgan. Ushbu asarlar matematika, fonetika, kimyo, astronomiya, jo'g'rofiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, riyoziyot va tilshunoslik kabi qator sohalarga oid bo'lib, jahon ilm-fanining durdonalari sifatida qadrlanadi.

Abu Rayhon Beruniyning lisoniy qarashlari «**Saydana**» nomli asarida beriladi. Anig'i, ushbu asar dorivor o'simliklar, hayvonlar va madanlar tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltiriladi. Buyuk alloma ushbu asarda dorivor moddalarning bir necha tillarda qanday nomlanishinigina bayon qilib qolmasdan, balki ushbu moddalarning har bir tildagi mahalliy, ya'ni har bir shevadagi nomlanishini ham alohida ko'rsatib beradi. Demak, muallif predmet va uning nomi munosabati masalasiga alohida

ahamiyat beradiki, ayni masala qadimgi tilshunoslik davridan to shu kungacha ham til haqidagi fanning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda.

Beruniy she'riyat masalalari bilan ham shug'ullanadi, asarlar yaratadi, o'zi ham she'r ijod qiladi. U «Saydana» asarida qator shoirlarning she'riyatidan namunalar keltiradi.

Beruniy asardagi 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomiga izoh beradi. Har bir bob bir harfga bag'ishlanadi. U asarda 4500 dan ortiq arabcha, yunoncha, suriyacha, forscha, xorazmiycha, so'g'dcha, turkcha va boshqa tillardan o'simlik, hayvon, dorivorlar nomlarini to'playdi va izohlaydi. Demak, «Saydana» asari ayni vaqtida dorivor moddalar nomlarining izohli lug'ati sifatida ham qadrlanadi. Muallif asarda dorivor moddalar nomini arab alifbosi tartibida joylashtiradi. Bir harf bilan boshlanuvchi bir necha so'z bo'lsa, ular shu harf bobida ichki alfavit asosida beriladi. Mazkur lug'at ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lug'at sifatida alohida ahamiyatga egadir.

**Abu Ali ibn Sino.** Ovrupoda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lган va Sharqda ulug'lab, «Shayhurrais» nomi bilan atalgan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino (980-1037) turli sohalarda, shu jumladan, tilshunoslik bobida ham bir qancha asarlar yaratdi.

Qomusiy alloma Ibn Sino: 1) «**Kitobi al milh finnahv**» («Utkirlik sintaksisda ekanligi kitobi») 2) «**Kitob lisonul arab**» («Arab tili kitobi») 3) «**Asbobi xudut al xuruf**» («Tovushlarning chegaralanish sabablari») kabi tilshunoslikka oid qator asarlar qoldirdi.



Shu kungacha «Asbobi hudut al huruf» asarining to’rtta nashri: Qohira (2), Tiflis nashri va Toshkent nashrlari ma’lum. Asarning Toshkent nashrini tayyorlashda prof. A.Mahmudov va prof. Q.Mahmudovlarning xizmatlari katta bo’ldi. Ushbu asar kirish va olti bobdan tashkil topgan. Manbada tovushning hamda nutq tovushlarining paydo bo’lish sabablari, bo’g’iz va tilning anatomiyasi, ayrim arab tovushlarining paydo bo’lishidagi o’ziga xosliklari, ushbu tovushlarga o’xshash nutq tovushlari hamda tovushlarning nutqiy bo’lmagan harakatlarda eshitilishi kabilar haqida fikr yuritiladi.

Ibn Sino tovushning hosil bo'lishida havoning to'lqinsimon harakati sabab ekanligini to'g'ri ko'rsatadi. Aniqrog'i, artikulyatsiya o'rnidan havoning siqilib chiqishi natijasida nutq tovushlari yuzaga keladi.

U fizikaviy tovushlar bilan nutq tovushlarini bir-biridan farqlaydi. Fizikaviy tovushlarni «**savt**», nutq tovushlarini esa «**harf**» so'zlari-terminlari bilan nomlaydi. Fizikaviy tovushning ham, nutq tovushining ham havoning to'lqinsimon harakati sababli hosil bo'lishi ta'kidlanadi.

Demak, bu tovushlarning yuzaga kelishida havoning to'lqinsimon harakatlanishi umumiylilik hisoblanadi. Ayni vaqtda bu umumiylikning xususiyligi shundaki, savtlardan - fizikaviy tovushlardan farqli holda harflarning – nutq tovushlarining hosil bo'lishida muayyan nutq a'zolari ishtirok qiladi. Demak, nutq tovushlari nutq a'zolari orqali, bevosita ularning ishtirokida yuzaga keladi.

Ibn Sino harflarni – nutq tovushlarini unli va undosh tovushlarga ajratadi. Unlilar miqdorini uchta, undoshlar miqdorini esa yigirma sakkizta deb belgilaydi. Undoshlar haqida mukammal ma'lumot beradi. Umuman, Ibn Sinoning fonetika sohasida yaratgan ishlarini, bayon qilgan fikrlarini, ayniqsa, uning tovushlarni unli va undosh tovushlarga ajratilishini jahon tilshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hissasi sifatida baholash lozim.

**Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad-il Koshg'ariy.** Mahmud Koshg'ariy Urta Osiyoning XI asrida yashab ijod etgan buyuk allomasidir. U turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi va leksikologiyasiga asos soldi, fonetikasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar qoldirdi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tilshunoslikning ensiklopediyasi hisoblangan mashhur «**Devonu lug'atit turk**» («Turkiy so'zlar devoni») asarini yaratdi. Shuningdek, shu kungacha topilmagan «**Javohirun nahv fi lug'atit turk**» («Turkiy tillar sintaksisining javohirlari») nomli asarini ham yozgan.

Arab tilidan K.Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, 1928 yilda Leypsigda, Bosim Atalay tomonidan turk tiliga tarjima qilingan, 1939 yilda Anqarada nashr qilingan «Devonu lug'atit turk» asari prof. S. Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, 1960-1963 yillarda Toshkentda nashrdan chiqdi.

Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni» akad. A.N.Kononov, prof. H.Ne’matov, prof. F. Abdullaev, prof S.Usmonov, prof. A.Kondrashov, prof. A.Nurmonov va boshqalarning taxminicha 1072-1078; 1078-1083; 1071-1073; 1073-1074; 1076-1077 yillarda yozilgan. Xulosa bitta, asar X1 asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik maydoniga kirib kelgan.

Tilni kishilar o’rtasidagi aloqa vositasi sifatida, jamiyat hayotini aks ettiruvchi ko’zgu sifatida tushungan Mahmud Koshg‘ariy o’zining mashhur «Devon»ida aynan bir davrga oid bo’lgan turlicha turkiy tillar hodisalarini, faktlarini sinxron-qiyosiy metod asosida solishtiradi, taqqoslaydi. Chunki o’sha davrda aynan mana shu metod arab tilshunosligida juda keng tarqalgan bo’lib, bu arab tilining ko’p shevali til ekanligi xususiyatidan kelib chiqadi.

«Devonu lug‘atit turk» asarida turkiy tilshunoslik tarixida birinchi marotaba **turkiy til va dialektlarning tasnifi** ham beriladi.

Xullas, Mahmud Koshg‘ariy o’zining «Devon»i bilan sinxron-qiyosiy tilshunoslikka asos soldi, ayni tilshunoslikning buyuk vakili sifatida tanildi.

Mahmud Koshg‘ariy sinxron-qiyosiy metod bilan qurollangan holda turkiy qabilalarni kezib, asosiy diqqat-e’tiborini ularning tillaridagi umumiy va farqli xususiyatlarga qaratadi. Shuningdek, u turkiy qabilalarning joylashish o’rni haqida ham qimmatli, asosli jo’g‘rofiy ma’lumotlar beradiki, bu «Devon»dagi faktlarning, fikrlarning, qarashlarning ob’ektivligini ta’minlaydi. Aytilganlar «Devon»ning juda katta mehnat evaziga yaratilganligidan xabar beradi.

Tilshunoslikning barcha sathlari bo'yicha qiyosiy tadqiqot ishlarini olib borgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devon»i muqaddima va lug‘at qismlaridan tashkil topadi.

«Devon»ning kirish qismida asarning tuzilishi haqida, shuningdek, Shimoliy Xitoydan tortib, butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxorogacha tarqalgan katta hududdagi urug‘lar, qabilalar va ularning tillari haqida, bu tillarning fonetik va grammatick xususiyatlari haqida ma’lumotlar beriladi.

«Devon»ning asosiy lug‘at qismida esa 9 mingga yaqin turkiy so’z arab tiliga tarjima qilinib, izohlanadi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida muhim fikrlar bayon qilinadi.

**Abul Qosim Mahmud ibn Umar az - Zamaxshariy.** Musulmon sharqida «Ustod ul-arab va-l ajam» (Arablar va g‘ayri arablar ustozi), «Faxru Xvarazm» (Xorazm faxri) kabi sharaflı nomlar bilan mashhur bo’lgan O‘rta Osiyolik allomalardan yana biri Mahmud az - Zamaxshariydir (1075-1143).

Mahmud az - Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari ilmu fan va madaniyat taraqqiy qilgan davrga to’g‘ri keldi. Zamaxshariylar oilasi dindor, hurmatga sazovor ziyoli oilalardan edi. Shunga ko’ra u dastlabki bilimini Zamaxsharda – o’z ota-onasidan oladi, xatsavodli bo’ladi. Mahmud o’z bilimini oshirish, ilm-fan bobida mukammal bo’lish maqsadida Xorazmga (Urganchga, so’ngra esa Buxoroga) yo’l oladi. Ushbu shaharlardagi madrasalarda o’zining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshiradi. Bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Isfaxon, Bog‘dod, Makka, Marv, Nishopur, Shom, Hijoz va Iroq kabi ilm-fan, madaniyat taraqqiy qilgan shaharlarda bo’ladi, yetuk allomalardan, olimu fozillardan ilm-fan sirlarini o’rganadi, tinimsiz mehnat qiladi, doimiy izlanishda bo’ladi. Shunga ko’ra Mahmud az - Zamaxshariy o’z zamonasining buyuk allomasiga, ilm-fan homiysiga, dong‘i ketgan mashhur kishisiga aylandi.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug‘atshunoslik, jo’g‘rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, ko’plab she’rlar yozdi.

Mashhur tarixchi Ibn al-Qiftiy Mahmud Zamaxshariy haqida shunday deydi: «Xudo rahmat qilg‘ur az - Zamaxshariy ilmu adab, nahv va lug‘at bobida o’zgalarga misol (namuna) bo’ladigan alloma edi», desa, Misr tarixchisi ibn Tag‘ribi esa Mahmud Zamaxshariy «shayx, buyuk alloma, o’z davrining yagonasi, o’z asrining eng peshvosi va imomi bo’lgan», deydi.

**Alisher Navoiy.** O‘rta Osiyoning XV asrning ikkinchi yarmidagi buyuk mutafakkiri, allomasi, she’riyat sultonii, o’zbek adabiy tilining homiysi va

targ‘ibotchisi Alisher Navoiy (1441-1501) hazratlari tilshunoslik tarixida ham yorqin iz qoldirgan ulkan siymolardan biridir.

Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari, asosan, «**Muhokamat ul-lug‘atayn**» (1499) asarida o’z ifodasini topgan.

Ikki til - o’zbek va fors tillarining qiyosiy (solishtirma) tahliliga bag‘ishlangan ushbu asarda Alisher Navoiy turli til oilalariga mansub bo’lgan tillarning umumiyligi va farqli tomonlari, belgi-xususiyatlariga to’xtaladi, ularni tahlil qiladi, muhim ma’lumotlar beradi. Aniqrog‘i, tillarni muhokama qilish orqali o’zbek tilining o’ziga xos jihatlariga, adabiy-badiiy ijodda – asarlar yaratishda o’zbek tilining ham ustuvor, ulug‘vor til ekanligini, shunga ko’ra fors tili bilan bemalol raqobat qila olishini, hatto ayrim o’rinlarda, tasviriylik imkoniyatlari nuqtai nazaridan esa undan ilgari keta olishini bayon qiladi, asoslaydi.

U mazkur asarida tillarning kelib chiqishi, til va tafakkur orasidagi munosabat, so’z ma’nosi, so’zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko’ra turlari, so’z yasalishi, morfologik kategoriylar, fonetikaga oid – tovush bilan bog‘liq qator hodisalar haqida chuqur fikr yuritadi, bunday hodisalarni atroflicha tahlil qiladi.

Navoiy asarda fonetik sistema haqida fikr yuritar ekan, ayni sistemaning qurilish a’zolari bo’lgan tovushlar haqida, tovushlarning artikulyatsion xususiyatlari haqida ma’lumotlar beradi, o’zbek tili tovushlarining qo’llanilishidagi o’ziga xosliklarini alohida qayd etadi.

Ushbu fonetik o’ziga xosliklar haqida prof. S.Usmonov va prof. A.Nurmonovlar o’z tadqiqotlarida bir qator ma’lumotlarni keltiradilar. Masalan, tovush va harf munosabati haqida fikr yuritilar ekan, ular bir-biriga hamma vaqt ham mos kelmasligi, bir harf bilan bir necha tovushni anglatish mumkinligi aytiladi. Anig‘i, Navoiy eski o’zbek adabiy tilining unlilar sistemasiga to’xtalib, **o-ö, u-ÿ** oppozitsiyasi asosida misollar keltiradi qiyoslang: ot (olov) – öt (harakat); to’r (tuzoq) – to’r (uyning to’ri); o’t (yutmoq) - o’t (kallani o’tga tutib, tukini kuydirish). Shuningdek, birgina yey (s) harfi bilan uchta tovush: **i, cho’ziq i va e** tovushlari ifodalanishi qayd etiladi.

Qofiya masalasida o’zbek va fors tillari qiyoslanar ekan, bunda o’zbek tili imkoniyatlarining kengligi, bu jihatdan o’zbek tili fors tilidan ustun ekanligi bayon qilinadi. Anig‘i *aro so’zini saro, daro bilan ham, boda bilan ham, erur so’zini esa hur, dur bilan ham, g ‘urur, surur so’zlari bilan ham* qofiya qilish mumkinligini, fors tilida esa bunday imkoniyat yo’q ekanligini ta’kidlaydi.

Xullas, Alisher Navoiy tovushni, hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan baholashda, fonema sifatida olib, uning eng muhim xususiyati bo’lgan ma’no farqlash qobiliyatiga ega ekanligini bayon qiladi.

Alisher Navoiy morfologiyaga oid fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy, yetakchi so’z turkumi sifatida, maqsadga to’la muvofiq, fe’llarga murojaat qiladi. Fe’l birliklarning ma’no jihatdan, shakl va qo’llanishi jihatdan eski o’zbek adabiy tilining o’zigagina xos, ya’ni forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini, zukko tilshunos sifatida, puxta tahlil qiladi. Aniqrog‘i, u fe’llarning nisbat bilan bog‘liq tomonlariga alohida e’tibor berar ekan, fe’lning o’zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko’makchi fe’l yordamida tuzilgan murakkab fe’llarni qayd etadi.

Navoiy fe’lning orttirma nisbat shakli haqida fikr yuritar ekan, ayni nisbat tushunchasi - т о’шимчаси орқали hosil bo’lishini aytadi, qator misollar keltiradi. Kiyoslang: *yugurt, yashurt, chiqart* va boshqalar.

**Mirzo Mehdixon.** Alisher Navoiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo’lgan ulkan ilmiy va adabiy merosini o’rganish-lisoniy yo’nalishda u yaratgan asarlarni tahlil qilish-so’zlarga, so’z ma’nolariga e’tibor berish, ularni izohlash, ma’naviy qamrovini, matn-dagi quvvatini ochib berish, o’zga tillarga tarjima qilish kabilar, XV asrdan boshlab, filologik tadqiqotlarning –lek-sikografik ishlarning asosiy maqsadi, vazifasi bo’lib qoldi. Shunga ko’ra, ayniqsa, ushbu davrdan boshlab, ko’plab lug‘atlar yaratila boshlandiki, bu lug‘atlar ichida Eron shohi Nodir shohning kotibi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodil al Husayni as Safaviyning – Mirzo Mehdixonning (XVIII) «**Sangloh**» (1760) lug‘ati alohida ahamiyatga egadir.

Ushbu asarning o'ziga xos tomoni shundaki, ayni lug'atga «Maboni ul - lug'at, ya'ni sarfi va nahvi lug'ati chig'atoy» nomli eski o'zbek tilining grammatikasiga oid tadqiqot ham kiritilgan.

Ma'lum bo'ldiki, Mirzo Mehdixonning «Sangloh» asarida ham leksikologiyaga, leksikografiyaga, grammatika-morfologiya va sintaksisga oid masalalar yuzasidan fikr yuritiladi.

Asarning lug'at qismi, asosan, she'riyatdagi hamda Lutfiy, Bobur asarlaridagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohiga, ularning fors tiliga tarjima qilinishiga qaratilgandir.

Asarga qo'shimcha kiritilgan «Maboni ul - lug'at» ikki qismdan: muqaddima va tarsif (grammatika) dan iborat.

«Muqaddima»da asarning yozilish sabablari beriladi. Ishning tarsif-grammatikasi esa olti bo'limni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limlarda fe'l - fe'lning turli nisbat shakllarining kelishi, fe'l zamonlari, fe'lning funksional shakllari (sifatdosh, ravishdosh), fe'l mayllari, fe'llarning yasalishi, affikslar olishi, olmoshlar, ularning turlari, qo'shimchalar, ko'makchi fe'llar, so'zlar imlosi va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: Arab tilshunosligining rivojida o'rta Osiyolik allomalarining xizmati. Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning filologik asarlari.

Mahmud Koshgariy, Маҳмуд аз Замахшари, Alisher Navoiy va Mirzo Mehdixonlarning lisoniy tadqiqotlari, ularning turkiy va o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni.

### **Tayanch tushunchalar:**

- a) qadimgi hind yodnomalari, Vedalar, so'z turkumlari, fonetika, morfologiya, lug'atlar, Panini grammatikasi. Xitoy ieroglifi.
- b) falsafa, analogiya, anomaliya, so'z masalasi, predmet va so'z munosabati, Iskandariya maktabi, sintaksis, grek grammatikasining shahobchasi.
- v) Arab tilshunosligining tuzilishi; rasmul xat (grafika), tajvid (orfoepiya), sarf (morphologiya), nahv (sintaksis), ilmul Lug'a(t) kitobi. Arab tilshunosligining

tuzilishi; rasmul xat (grafika), tajvid (orfoepiya), sarf (morfologiya), naxv (sintaksis), ilmul Lug‘a(t) (leksikografiya va leksikologiya), ilmu-l-manoiy (semasiologiya), ilmu-l-bayon (uslubshunoslik) va boshqalar. Arab tilining izohli lug‘atlari. Arab tilshunosligining tilshunoslik tarixida tutgan o‘rni.

### **Mavzu bo‘yicha savollar**

1. Tilshunoslik fani nimani o‘rganadi?
2. Til va nutq o‘rtasidagi tafovut nimalardan iborat (UMIS, YaXVO)?
3. F.de Sossyur, V. fon Gumboldt tilshunoslik rivijiga kanday xissa kushgan?
4. Til satxlari nimalardan iborat?
5. Paradigmatik aloka nima? Sintagmatik-chi?
6. Fonetika nimani o‘rganadi?
7. Grammatika qaysi qismlarga bo‘linadi? Morfologiyaning ob’ekti nima? Sintaksis-chi?
8. Leksikologiya nimani urganadi?
9. Umumiy tilshunoslik fanining maksad va vazifalari nimadan iborat?
10. Juhon tilshunosligining tarixiy boskichlari deganda nimani tushunasiz?
11. Tilshunoslik fanining rivojiga hissa qo‘shgan olimlardan kimlarni bilasiz? O‘rta Osiyolik olimlardan-chi?
12. Sizning-cha, til va mantiq, til va jamiyat, til va falsafa o‘rtasida qanday munosabatlar bo‘lishi mumkin?
13. Antik dunyo tilshunosligining fanga qo‘shgan hissasi nimadan iborat?
14. Panini grammatikasiing moxiyati nimada? Vedalar nima? Sanskrit qaysi til? Hind tilshunosligida til bilan shug‘ullanish qanday ahamiyatga ega?
15. Grek tilshunosligi taraqqiyotini nechta davrga bo‘lish mumkin? Grek olimlari tilni dastavval qaysi jihatdan izohlaganlar? Grek faylasuflari tilda qanday munosabatni belgiladilar? Grek tilshunosligi falsafiy davrining asosiy vakillari kimlar?
16. Qadimgi Rim tilshunosligining vakillaridan kimlarni bilasiz?

## IV. AMALIY MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI

### **1-mavzu: Lingvistik maktablar va ular tomonidan yaratilgan ta'limotlar mohiyati. Grammatik kategoriylar, grammatikaga oid zamonaviy ta'limotlar**

1. Yosh grammatikachilar ta'limoti.
2. Istorizm va psixologizm oqimlari.
3. Qozon, Moskva maktablarida til ta'limoti xamda fonetik va grammatik birliklar haqidagi ta'limot.
4. F. de Sossyur ta'limotida tilshunoslik predmeti, nutq faoliyati antinomiyasi.
5. Praga lingvistik to‘garagi ta'limoti.
6. Amerika deskreptiv lingvistikasi.

Uyg‘onish davri tilshunosligi XV-XVIII asrlarni o’z ichiga oladi. Uyg‘onish davrining boshlanishi bilan cherkovning obro'-e'tibori susayib, antik davrga bo’lgan e’tibor, qiziqish, uni qadrlash kuchaya bordi. Anig‘i, Uyg‘onish davrining vakillari, ziyolilari yunon va rimliklarning boy milliy madaniyatiga murojaat qila boshlashdi.

Ovrupo olimlarining – yunon va rimliklarning boy madaniy va ma'rifiy merosini egallashlari juda katta mehnat natijasida va lotin tiliga oid qator asarlarning – matnlarning nashr qilinishi hamda ularni sharhlash natijasida mumkin bo’ldi.

Antik (yoki klassik filologiya) davrining adabiy asarlarini nashr qilish va ularga lisoniy sharhlar yozishda, ayniqsa, quyidagi olimlarning xizmatlari, mehnatlari katta bo’ldi. Bular: Jyul Sezar Skaliger (1484-1558), Robert Stefanus (1503-1559), uning o’g‘li Genrix Stefanus (1528-1598), Gerhardt Iogann Fossiy, Sharl Dyukanj, Iogann Reyxlin, Iogann Melanxton va boshqalar.

J.Skaliger «Lotin tili asoslari haqida» (1540) asarini yaratgan bo’lsa, R. Stefanus «Lotin tili xazinasi» (1553) tadqiqtini e’lon qiladi. G.Stefanus esa yunon tiliga bag‘ishlab, «Grek tili xazinasi» asarini chop ettirdi.

Ayni vaqtida Sharq tillarini, ayniqsa, semit tillarini o'rganishga bo'lган qiziqish kuchaydi, semit filologiyasi maydonga keldi. Ya'ni, qadimgi yahudiy, aramiy, arab, efiopiya tillari tadqiq qilindi. Qator asarlar yaratildi. I.Reyxlin qadimgi yahudiy tili grammatikasini (1506) yaratib... unda birinchi bo'lib, «affiks» terminini qo'lladi va bu termin XVI-XVIII asrlarda faol ishlatila boshlandi. P.de Alkam arab tili grammatikasiga oid asarlarini (1506) e'lon qildi. Yakov Xolius va Erleniylar arab tili tadqiqi bilan shug'ullangan bo'lsalar, Iov Ludolf efiopiya tili yuzasidan ish olib bordi.

Ayniqsa, XVI asrda qator tillarning – nemis (1527), fransuz (1531), ingliz (1538), venger (1539), chex (1567), polyak (1568), slavyan (1596) va boshqa tillarning grammatikasiga oid asarlar maydonga keldi.

1696 yilda Angliyada (Oksford) Genrix Vilgelm Ludolfning lotin tilida tuzilgan «Rus grammatikasi» asari yaratildi. Birinchilardan bo'lib, italyan (1612) va fransuz (1694) tili lug'atlari chop etildi.

Agar o'rta asr va Uyg'onish davrida klassik filologiyaning g'oyalari taraqqiy ettirilgan bo'lsa, XVII va, ayniqsa, XVIII asr tilshunosligida tubdan o'zgarish bo'lib, yangi tipdagi grammatika, lug'atlar – ko'p tomli katta lug'atlar maydonga keldi.

Ana shunday lug'atlardan biri rus sayyohi akademik Pyotr Simon Pallasning «Barcha tillar va shevalarning (lahjalarning) qiyosiy lug'ati» asaridir. 272 tilga oid to'rt tilli bu lug'at Peterburgda 1786-1791 yillarda nashr qilingan bo'lib, unda ruscha so'zlarning 272 tilga qilingan tarjimasi beriladi va qiyoslanadi. Bu lug'at qiyosiy-tarjima lug'at sifatida e'lon qilinadi. Mazkur lug'atga Osiyo, Yevropa, Afrika va Amerika tillari kiritiladi, ushbu tillarga oid materiallar beriladi.

**Por-Royal grammatikasi (“Umumiy ratsional grammatika”).** O'rta asrlardayoq (XVI-XVII) lisoniy hodisalarning to'g'riliqi mantiqiy mezonlar asosida aniqlana boshlandi. Bu esa, o'z-o'zidan, tilning mantiqqa bo'ysindirilishiga va barcha tillar uchun umumiylar mavjudligini tan olishga majbur qilardi. Boshqacha aytganda, ushbu asrlarda lotin tilini o'rganish mantiqiy tafakkur qonun va qoidalarini bilish deb ham tushunildi. Til hodisalari mantiq

asosida izohlandi. Mantiq grammatikadan ustun qo'yildi. Bu davrda barcha tillarning yagona, bitta mantiqiy asosi bo'lishi-bitta grammatika bo'lishi kerak, degan ta'limot yaratildi. Natijada mantiqiy grammatika yaratish g'oyasi maydonga keldi.

Mantiqiy grammatika yaratish ta'limotining eng muhim g'oyaviy asosi bo'lib, ma'rifat asrining (XVII-XVIII) yetakchi falsafiy yo'nalishi bo'lган ratsionalizm (Ratsional (izm)- tafakkurni, abstrakt fikrlashni bilishning birdan-bir manbai deb hisoblaydigan va ularni tajribadan ajratib qo'yadigan idealistik oqim.) maydonga chiqdi. Ya'ni aql - idrok asosida ish ko'rish - ratsionalizm tilshunoslikka ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga ko'ra har qanday tillarning grammatik kategoriyalarini mantiqiy kategoriyalarning namoyon bo'lishi, yuzaga chiqishi sifatida tushunish kuchaydi. Natijada ratsionalizm ta'limotining talablari asosida umumiy (ratsional, falsafiy yoki mantiqiy) grammatika yaratish g'oyasi amalgalashirila boshlandi.

1660 yilda Parij atrofidagi Por-Royal monastirining rohib olimlari mantiqshunos Anton Arno va tilshunos Klod Lansolar ilk bor «Umumiy ratsional grammatika» asarini fransuz tilida yaratib, Parijda nashr qildilar.

Por-Royal grammatikasi qadimgi yunon, qadimgi yahudiy, lotin va fransuz tillari materiallari asosida yaratildi. Ammo u qiyosiy yoki chog'ishtirma grammatika emas, balki mantiqiy-tipologik grammatika hisoblanadi. Ushbu grammatika o'z oldiga «barcha tillarga xos umumiy prinsiplarni va ularda uchraydigan farqlarning sabablarini» aniqlash vazifasini qo'yadi.

Por-Royal grammatikasida birinchi bor grammatika bilan mantiq o'rtasidagi aloqa, bog'lanish nazariy jahatdan asoslab berildi. Agar til tafakkurni ifoda etsa, demak, til kategoriyalari tafakkur kategoriyalarning namoyon bo'lishidir. Shunga ko'ra tilni o'rganuvchi grammatika mantiqqa asoslanishi lozim. Grammatika ratsional, mantiqli bo'lishi kerak. Mantiq barcha uchun yagona, bitta ekan, binobarin, grammatika ham umumiy va universal bo'lishi lozim. Yagona grammatika alohida tilning grammatikasi bo'lishi mumkin emas, u faqat umumiy bo'lishi mumkin, degan g'oyalar, ko'rsatmalar ilgari surildi.

Por-Royal grammatikasi ikki qismdan – fonetika va grammaticadan iborat bo'lib, olti bobdan tashkil topgan brinchi qismda tovush va harf, urg'u va bo'g'inga ajratish kabilar haqida ma'lumotlar beriladi. Grammatikaning yigirma to'rt bobdan iborat ikkinchi qismining yigirma uch bobida esa morfologiya masalalari - ot, sifat, olmosh, fe'l, sifatdosh, ravish, bog'lovchi, undov - ularga xos xususiyatlar, kategoriyalar; faqat oxirigi yigirma to'rtinchi bobida esa sintaksis masalalari - so'z birikmasi va gap kabilar haqida fikr yuritiladi.

**Komparativistika (qiyosiy – tarixiy tilshunoslik).** XVIII asrgacha til o'zgarmas hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab, tilga bunday qarash o'zgardi. Ya'ni XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shundaki, u tilga o'zgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog'i, ushbu davrda Sharl de Bros, Jan-Jak Russo, Monboddo, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g'oyasini qo'llab, uni rivojlantirdilar.

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g'oyasi qatiy tus oldi. Ya'ni XIX asrning birinchi choragida tilshunoslikda faktlarni yig'ish, ularga e'tibor berish g'oyasidan qiyosiy-tarixiy g'oyaga-nuqtai nazarga burilish, o'tish yuz berdi. Albatta, XIX asrning boshlariga kelib, nuqtai nazarlarning o'zgarishiga lisoniy kuzatishlar, bu kuzatishlardan kelib chiqqan muayyan jiddiy fikrlar sabab bo'ldi. Aniqrog'i, XIX asrdan ancha oldin ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligi aniqlansada, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o'xshashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmadi, olimlar o'xshashlik sabablarini tushuntirib bera olmadi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslар deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o'rtasidagi sistematik o'xshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan - bir umumiylig qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, tillar o'rtasida o'xshashlik mavjudligi g'oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashish yuzaga kelganligi - til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi bilan, tilshunoslikka romantizm g'oyalarining ta'siri, ya'ni jonli tillarning o'tmishini o'rganishga undash g'oyasi

bilan hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o'rtasidagi o'xshashlikni ularning qarindoshligiga ko'ra izohlash mumkinligiga olib keldi (XVI asrda italyan savdogar sayyoq Filippo Sosseti Hindistonda 5 yil (1583-1588) yashashi natijasida hind tili bilan italyan tili o'rtasida o'xshashlik borligini aniqlaydi va sanskritdan namuna sifatida keltirilgan bir qancha so'zlar bilan fikrini isbotlaydi.).

Masalan, Bengaliyada xizmat qilgan ingliz sharqshunosi va huquqshunosi Vilyam Djons (1746-1794) sanskrit tilini yunon va lotin tillariga qiyoslab, ular o'rtasida yaqinlik, qarindoshlik borligi haqidagi fikrlarni, ma'lumotlarni qatiy aytdi.

Nemis olimi Fridrix Shlegel (1772-1829) esa o'zining mashhur «Hindlarning tili va donoligi» asarida sanskrit tilining na faqat lug'at tarkibida, balki grammatik munosabatida ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligini, ularning kelib chiqishiga ko'ra umumiy asosga egaligini qayd etadi.

Demak, tillarni qiyosiy nuqtai nazaridan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qatiy tan olinishiga zamin yaratdi.

Ushbu jarayonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, qiyoslash tillarni o'rganishda usul, vosita sifatida, tillarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish esa tadqiqotning prinsipi (bosh g'oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo'ldi.

Eslatish joizki, Mahmud Koshg'ariy, Vilyam Djons, Fridrix Shlegel kabi olimlarning ham qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning ochilishiga jiddiy, chinakam yaqinlashishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'lib, ular ijodkor (novator) tilshunoslar sifatida maydonga chiqdi.

**Avgust Shleyxer. Naturalizm.** XIX asrning o'rtalarida Yevropa tilshunosligida naturalizm (Naturalizm – lotincha natura «tabiat» degani.) oqimi

paydo bo'ldi. Ushbu oqimning mashhur vakili nemis olimi Avgust Shleyxer (1821-1863) edi.

A.Shleyxer tilshunoslikdan tashqari botanika va falsafa kabi fanlarni ham o'rgandi. U dastlab Bonn, so'ngra Praga, Ien universitetlarining dotsenti va professori sifatida ma'ruzalar o'qidi, 1858 yilda Rossiya fanlar akademiyasining muxbir a'zosi bo'ldi.

A.Shleyxer hind-Yevropa tillarining umumiyligi masalalari bilan shug'ullandi, Litva tilini o'rganib, jonli nutq bo'yicha tadqiqotlar olib bordi, xalq og'zaki ijodiga oid materiallar to'pladi. U, shuningdek, qiyosiy-tarixiy va tipologik yo'nalishda german, slavyan, boltiq tillari bilan ham shug'ullandi. A.Shleyxer tillarni qiyosiy o'rganishda tovushlarning qonuniy o'zgarishlariga e'tibor berishni talab qildi. U fonetikani fonologiya deb atadi va so'zda tovush, shakl hamda funksiyani farqladi.

Olim ayni vaqtida umumnazariy fikrlarni ham ilgari suradiki, bu fikrlar tilshunoslardan tomonidan e'tibor bilan qabul qilindi. Ushbu fikrlar tovush qonuni, analogiya, tilning sistem xarakterga egaligi, so'zning shakli va vazifasi haqidagi g'oyalar bilan bog'lanadi. A.Shleyxerning mazkur nazariy qarashlari «**Nemis tili**» (1860) asarida bayon qilinadi.

A.Shleyxer hind-Yevropa tillarining bitta bobotildan kelib chiqqanligi g'oyasini ilgari surdi. U hind – Yevropa tillarining taraqqiyotini «shajara daraxti» jadvali orqali tushuntirdi. Ya'ni, uning fikricha, qachonlardir hind-Evropa bobotili mavjud bo'lgan, uning tarqalib ketishidan hozirgi hind – Yevropa tillari kelib chiqqandir.

A.Shleyxerning eng mashhur asari «**Hind – german tillari qiyosiy grammatikasining kompendiumi**»dir (1861). Bu asar o'tgan yarim asr davomida hind-Evropa tillarini qiyosiy o'rganishning yakuni sifatida maydonga keldi va 15 yil ichida to'rt marta nashr qilindi.

Kompendiumda (*kompendium* - lot. *qisqartirish* degani. U yoki bu fanga oid muhim, asosiy qoidalarni, tushunchalarni ixcham, lo'nda bayon etish) A.Shleyxer hind – Yevropa tilini (bobo tilni) qayta tiklab, uning har bir shoxobchasi qanday rivojlanishini ko'rsatmoqchi bo'ldi.

A.Shleyxerning tilga naturalistik qarashi – biologizmi, ayniqsa, Ch.Darvinning «Turlarning paydo bo'lishi va tabiiy tanlash» (1859) nomli eng muhim asarining e'lon qilinishi bilan yana ham kuchaydi. «Tillar, -deydi Shleyxer, - insonning xohishidan tashqari paydo bo'lgan, o'sgan va ma'lum qonunlar asosida rivojlanadigan tabiiy organizmdir. Ular o'z navbatida qariydi va o'ladi». «Tillar tovush materiyasidan tashkil topgan tabiiy organizmlardir... tillarning o'sishi ma'lum qonuniyatlar asosida yuz beradi».

Xullas, A.Shleyxer ta'limotida, aytilganidek, xato g'oyalarning, qarashlarning mavjudligiga qaramay u va uning izdoshlari – naturalizm yo'nalishi, naturalizm maktabi tilga tabiiy – materialistik qarashni, g'oyani olib kirdi va tilshunoslikda til o'z tuzilishiga (strukturasiga) ega bo'lgan qismlardan iborat bir butun ob'ektdir – sistemadir, degan g'oyaning qat'iy qaror topishiga, tasdiqlanishiga xizmat qildi.

**Geyman Shteyntal. Psixologizm.** Falsafiy tilshunoslikning asoschisi bo'lgan **Vilgelm fon Gumboldt tomonidan tilning alohida shaxslarning ruhiy hayoti va tafakkuriga munosabati jihatidan o'r ganilishi** Geyman Shteyntal, Potebnya, Boduen de Kurtene kabi tilshunoslarning ta'limotlarida – umuman tilshunoslikdagi psixologik yo'nalishda davom ettiriladi. Tilshunoslikdagi psixologik oqimning – psixologizmning eng yirik vakili, asoschisi nemis nazariyotchi tilshunos olimi Berlin universiteti professori G.Shteyntaldir (1823 - 1899). U umumiyl Tilshunoslik sohasida o'zini Gumboldtning shogirdi, uning g'oyalarini davom ettiruvchi deb hisoblaydi. Psixologizm sohasida esa u Iogann Gerbert (1776-1841) ta'limotining – **assotsiativ psixologiyaning** davomchisi edi. **Ayni ta'limotga ko'ra narsahodisalar inson psixikasida o'zaro bog'liq holda bir-birlarini eslatadilar, esga tushiradilar.**

Tilshunoslikdagi psixologizm oqimi naturalizmni qattiq tanqid ostida oldi. Psixologizm naturalizmdan farqli unga zid holda tilni xudoning yoki odam ruhining aksi, ko'rinishi, ifodasi deb talqin qildi. Shunga ko'ra til sof psixik, ruhiy hodisa sifatida bayon qilindi. Psixologistlar **tilning taraqqiyotini alohida shaxslarning tafakkuridagi, ruhiyatidagi taraqqiyot bilan bog'liq** deb hisobladilar.

Demak, tildagi hodisalarning asosida ijtimoiy hodisalar, ijtimoiy taraqqiyot – jamiyat taraqqiyoti emas, balki individual faoliyat, individual taraqqiyot, inson psixikasi, uning fikriy faoliyati yotadi, ular hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ana shunday g'oyalar, qarashlar bilan qurollangan psixologizm vakillari karashlaridagi, jumladan, G.Shteyntal ta'limotidagi eng muhim g'oya nutqning individual akti insonning faoliyatidan, ijtimoiy jarayondan ajralganligidir.

G.Shteyntalning lisoniy qarashlari, ta'limoti uning quyidagi qator ishlarida bayon qilinadi. Bular «Tillarning tasnifi til g'oyasining taraqqiyoti sifatida» (1850), «Tilning paydo bo'lishi» (1851), «Grammatika, mantiq va psixologiya» (1855), «Til qurilishining eng muhim tiplari xarakteristikasi» (1860), «Psixologiya va tilshunoslikka kirish» (1871), «Gumboldtning tilshunoslikka oid asarlari va Gegel falsafasi» (1848), «Falsafa, tarix, psixologiya va ularning o'zaro munosabati» (1863) va boshqalar.

G.Shteyntal individual psixologizm vakili sifatida maydonga keldi.

G.Shteyntal lingvistik ta'limotining psixologik asosi bo'lib, I.Gerbertning assotsiativ psixologiyasi hisoblanadi. Assotsiativ psixologiya inson ongingining barcha faoliyatini tasavvurlar munosabatiga, psixik assotsiatsiyalar, aloqalar mexanizmiga bog'laydi, so'zni esa tasavvurlar kompleksi bilan, assotsiatsiyalar bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Insonning psixik faoliyati fikrlash jarayoni sifatida tasavvurlar assotsiatsiyasidir, aloqasidir, bog'lanishidir.

Psixologizm tilni faqat tafakkur quroli va fikrni ifodalash vositasi sifatida belgilaydi.



**Ferdinand de Sossyur.**

**Sotsiologizm.** Ferdinand de Sossyur (1857-1913) buyuk tilshunos, betakror nazariyotchi, til haqidagi fan taraqqiyotiga juda katta va chuqur ta'sir ko'rsatgan donishmand olim. Shuning

uchun ham F. de Sossyurni tilshunoslik olamida mashhur Frans Bopp, Vilgelm fon Gumboldt, Avgust Shleyxer, Boduen de Kurtenelar bilan bir qatorga qo'yishadi.



F. de Sossyur Shveysariyada (Jenevada) tug'ilgan, millati fransuz – shveysariyalik fransuz. U Jeneva, Leypsig va Berlinda talim oldi.

F. de Sossyurning 20 (bazi manbalarda 21) yoshida e'lon qilgan mashhur asari hind-Ovrupo tillarini – ulardagi unlilar sistemasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu tillar vokalizmini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asar «Hind-Yevropa tillaridagi dastlabki unlilar sistemasining tadqiqi» deb nomlanib, 1879 yilda nashr qilindi. Ushbu asar hind-Ovrupo tillarini o'rganishga, qiyosiy-tarixiy metod taraqqiyotiga jiddiy ta'sir qildi.

F.de Sossyur ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha 1880 yilda Leypsigda doktorlik disertatsiyasini himoya qildi. U 1881 yilda Parija kelib, german tillari, hind-Ovrupo tillarining qiyosiy grammatikasi bo'yicha ma'ruzalar o'qidi. 1891 yildan boshlab, u Jenevada professor lavozimida ilmiy-amaliy, pedagogik faoliyatini davom ettirdi.

1906 yildan boshlab, F. de Sossyur umumiy tilshunoslik kafedrasiga rahbarlik qildi. 1906-1911 yillarda uch marta umumiy tilshunoslik kursi bo'yicha ma'ruzalar o'qidi.


F. de Sossyur vafotidan keyin 1916 yilda uning shogirdlari Sharl Balli va Albert Seshelar o'zлari yozgan qo'lyozmalar asosida ustozlarining ma'ruzalarini to'plab, tartibga solib, kitob holida nashr qildilar. Shunday qilib, F. de Sossyurni dunyoga tanitgan, uni buyuk tilshunoslar qatoriga qo'ygan, hozirgi zamon tilshunosligining taraqqiyotiga juda katta ta'sir qilgan **«Umumiy tilshunoslik kursi»** fundamental asari maydonga keldi. Ayni asar 1931 yilda nemis tilida, 1933 yilda esa rus tilida e'lon qilindi



**F. de Sossyur lisoniy talimotining muhim jihatlari quyidagilar:**

1. Tilshunoslik fanining birdan-bir haqiqiy ob'ekti tildir. Demak, tilni psixologiya, mantiq, fiziologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan emas, balki bevosita tilshunoslik fani asosida tekshirish lozim.

2. Til sistemadir. Til sistem tuzilishiga ega bo'lган, sistem xarakterdagи ijtimoiy hodisadir. Demak, til hodisalari, til faktlari o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, bir-birini talab etadigan, taqozo qiladigan belgilardir. Anig'i til belgilari til sistemasining elementlari, birliklari sifatida bir-birini belgilaydi. Ular o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga, aloqaga kirishib, bir butunlikni – til sistemasini hosil qiladi.



3. Til g'oya (fikr, ma'no) tashuvchi belgilar sistemasidir. Til belgisi (birligi, elementi) ikki tomoniga: a) ifoda tomoniga (ifodalovchiga) b) mazmun tomoniga (ifodalanuvchiga) egadir. Til belgilari shartli, ixtiyoriydir. Demak, til belgilari (birliklari) moddiy (material) va ruhiy (psixik, ideal) tomonlarning, tovush va manoning birligidan iborat bo'lib, biri ikkinchisisiz bo'lmaydi, ular o'zaro dialektik bog'liq holda, nisbiy bir butun holda ijtimoiy vazifa bajaradi, jamiyatga xizmat qiladi, fikr almashuvni – kommunikativ jarayonni taminlaydi.

4. F. de Sossyur tilshunoslikni ikkiga: ichki lingvistika va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. U ichki lingvistikaga tilning sistem xarakterga egaligini, tilning tuzilishini (strukturasini) kiritadi. Tashqi lingvistikani esa tilning rivojlanish jarayonidagi, taraqqiyotidagi real shart-sharoitni: jamiyat bilan, jamiyat tarixi, madaniyati, tarixiy voqealar, tilning jo'g'rofiy joylashishi, jamiyatning siyosiy qarashlari, ma'naviy olami kabilar bilan bog'liq holda oladi.


Demak, ichki tilshunoslik tilning sistem tabiatini, uning tuzilishini tekshirsa, tashqi tilshunoslik tilni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda tekshiradi. Negaki jamiyatning mavjudligi tilning mavjudligini, tilning mavjudligi esa jamiyatning mavjudligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra til va jamiyat munosabatini tekshirish

tilshunoslik fanining – umumiy tilshunoslikning doimiy dolzarb muammosi bo'lib hisoblanadi.

5. F. de Sossyur tilda ikki aspektni: sinxroniya va diaxroniyani farqladi. Sinxroniya, sinxronik aspekt tilning hozirgi, real mavjud holati bo'lsa, diaxroniya, diaxronik aspekt tilning tarixiyligi, tarixiy rivojlanish holatidir. Demak, tilning muayyan vazifa bajarishdagi real holati bilan tarixiy rivojlanishdagi holati, «qiyofasi» - har biri o'z kuchini, quvvatini saqlaydi, ularning aralashib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Boshqacha aytganda, sinxroniya - til mavjudligining, taraqqiyotining hozirgi vaqt, tilning aloqa vositasi sifatidagi xizmat qilish davri bo'lsa, diaxroniya – tilning, til faktlarining zamon (vaqt) nuqtai nazaridan ketma-ketligi, ya'ni tarixiy bosqichma-bosqichligi, etapliligidir.

Prof. Ya. V. Loya fikricha, «til sistemasi va strukturasini o'rganishda sinxronik aspektning ahamiyati kattadir. Tilshunoslik fanining eng dastlabki, bosh vazifasi sistem tabiatga ega bo'lgan til hodisalarini zamonaviy, shu kundagi, holatini tekshirish, o'rganishdir. Tilning shu kundagi, hozirgi sistemasi bilan tanishish uning tarixini va boshqa tillar bilan qiyosini o'rganishdan avval bo'lishi kerak».

6. F.de Sossyur jamiyatning fikrni ifoda qilish sistemasini til va nutqqa ajratadi. Til so'zlarning jami va nutqni qurish, tuzish qoidalaridir. Nutq esa til sistemasining so'zlashuvda yoki matnda (yozuvda) aniq berilishi, qo'llanishidir. **F.de Sossyurning fikricha, til nutqdan quyidagi beshta belgisiga ko'ra farqlanadi:** 1. **Til – ijtimoiy, nutq- individual.** 2. **Til – sistem, nutq – asistem.** 3. **Til – potensial (imkoniyat, yashirin), nutq - real (voqelik, namoyon bo'lism).** 4. **Til - sinxron (zamonaviy, hozirgi), nutq – diaxron (tarixiy, o'tgan).** 5. **Til – mohiyat, nutq – hodisa.**



Ta'kidlash shart. F. de Sossyurning qarashlari, g'oyalari tilshunoslik fanida nafaqat sotsiologik lingvistikaning – sotsiologizmning, balki struktural lingvistikaning – strukturalizmning ham

yuzaga kelishida muhim sabablardan biri bo'ldi. Anig'i F.de Sossyur o'zining mashhur «Umumiy tilshunoslik kursi» asarida (1916) strukturalizmning eng asosiy, bosh g'oyalarini takidlab o'tdi. Bular: 1.Til spesifikasi (o'ziga xosligi). Yani tilshunoslikning mutlaq tekshirish ob'ekti tildir. 2. Til sistemasi. Yani til o'ziga xos tuzilishga, «qiyofaga» ega bo'lgan sistemadir. 3. Til formasi. Yani til mohiyat emas, balki formadir. Til u yoki bu mazmunni, fikrni ifodalash vositasidir. 4. Til munosabati. Yani, tilning har bir holatida, ko'rinishida, qo'llanishida barcha jarayonlar til birliklarining o'zaro munosabatiga, mantiqiy bog'lanishga asoslanadi, shu munosabatga quriladi.

Xullas, F. de Sossyur talimotidagi ushbu muhim g'oyalar, aytilganidek, strukturalizmning keng miqyosda alohida bir yo'nalish, maktab sifatida maydonga kelishiga xizmat qildi.

### **Tayanch tushunchalar:**

- a) Yevropada Uyg'onish davridagi tilshunoslik, Por-Royal grammatikasi, Komparativistika (qiyosiy-tarixiy tilshunoslik), uning vujudga kelishida qiyosiy-tarixiy metodning ahamiyati. Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari, ularning tilga oid asarlari. V.Gumboldtning lingvistik nazariyasi, til antinomiyasi.
- b) Naturalizm. (A.Shleyxer). Psixologizm (G.Shteyntal), F. de Sossyur ta'limoti, til va nutq dixotomiyasi. Sobik sho'rolar davri tilshunosligi. Hozirgi tilshunoslik – o'zbek tilshunosligi, uning yirik vakillari, ularning tadqiqotlari.

### **Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar**

1. Yevropada uyg'onish davri tilshunosligi qaysi asrlarni o'z ichiga oladi? Yevropa tilshunoslida asosan qaysi sohalar bo'yicha asarlar yaratilgan? Por-Royal grammatikasida birinchi bor qaysi fanlarning aloqasi haqida fikr yuritiladi? Falsafiy grammatika tilga qanday hodisa sifatida qaraydi?
2. Komparativistikaning birinchi bosqichi vakillari kimlar? Komparativistikaning ikkinchi bosqichi vakillari kimlar?
3. F. de Sossyurning fikricha, til nutqdan nechta belgisiga ko'ra farqlanadi?
4. Yevropada uyg'onish davri tilshunosligi qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
5. Yevropa tilshunoslida asosan qaysi sohalar bo'yicha asarlar yaratilgan?

6. Por-Royal grammatikasida birinchi bor qaysi fanlarning aloqasi haqida fikr yuritiladi?
7. Falsafiy grammatika tilga qanday hodisa sifatida qaraydi?
8. Komparativistikaning birinchi bosqichi vakillari kimlar? Komparativistikaning ikkinchi bosqichi vakillari kimlar?
9. F. de Sossyurning fikricha, til nutqdan nechta belgisiga ko‘ra farqlanadi?
10. Lingvistika turlari kaysilardan iborat?

**2-mavzu: Semantika, semantik kategoriyalar, lingvistik tahlil metodlaridan foydalanish. Lingvogenetik, areal, tipologik, distributiv, transformatsion tadqiqot metodlar.**

1. Semantika, semantik kategoriyalar
2. Lingvistik tasnif metodlari.
3. Qiyosiy-tarixiy, struktural, distributiv, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish va transformatsion analiz metodlari.

Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi *lingua* bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini – tilni sistema sifatida – bir butun ob'ekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda namoyon bo'ladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomonidan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik prinsipi nuqtai nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Dinamik lingvistika. Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida,

turlicha vazifalarni faol bajarishda, “taraqqiyotda”, o’zgarishda tadqiq qiladi.

2. Statik lingvistika. Statik lingvistika til taraqqiyotidagi to’liq sinxronlashgan muayyan bir davrni (bo’lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o’zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi – zamonaviy davri bilan bog‘liq ma’lum bir “qotgan” qismini - holatini tekshiradi.

3. Atomistik lingvistika. Atomistik lingvistika diqqat-e’tiborini har bir individual til birliklarining taraqqiyotini, o’sishini alohida o’rganishga qaratadi.

4. Struktural lingvistika. Struktural lingvistika til sistemasidagi ichki munosabat va aloqalarni tadqiq qiladi. U til sistemasining struktural qatlamlari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlari) orasidagi o’zaro tabiiy, zaruriy bog‘liqliklarni, munosabatlarni o’rganadi.

5. Sinxronik lingvistika. Sinxronik lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog‘liq bo’lib, tilning ma’lum bir davrdagi “qotgan”, “turg‘un” holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

6. Diaxronik lingvistika. Diaxronik lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog‘liq bo’lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o’rganadi.

7. Intralingvistika (ichki lingvistika). Ichki lingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini ekstralinguistik faktorlarga bog‘liq bo’lmagan holda o’rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo’lib fonologiya, leksikologiya va grammatika hisoblanadi.

8. Ekstralinguistik (tashqi lingvistika). Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo’g’rofiy kabi faktorlar bilan bog‘liq holda o’rganadi. Shunga ko’ra ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshiradi.

9. Makrolinguistik. Makrolinguistik tilni keng doirada, “katta hajmda” olib, uni statistik metodlar asosida tadqiq qiladi. Aniqrog‘i, ushbu soha tilni statistik metodlar, statistik usullar orqali tahlil qiladi.

10. Mikrolinguistik. Mikrolinguistik til sistemasi tarkibidagi (strukturasidagi)

aloqalar, o'zaro munosabatlar va qarama-qarshiliklarni o'rganadi.

11. Paralingvistika. Paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtida yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini (imo-ishora, mimika), nutqning balandligi, ekspressiv-emotsional bo'yoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir.

12. Psixolingvistika. Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtai nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo'naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o'rganadi. U nutqdagi – fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e'tibor beradi.

Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish-ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o'xshashlik (analogiya), farqlash (differensiatsiya), ta'sirchanlik, so'zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e'tibor beradi.

13. Sotsiolingvistika. Sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog'liqligidan hosil bo'lib, jamiyat va til (til va jamiyat) munosabati masalasi bilan shug'ullanadi. U tilni sotsial – ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Shunga ko'ra sotsiolingvistikaning eng muhim, asosiy muammosi tilni – til tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o'rni va ahamiyatini belgilashdir.

14. Etnolingvistika. Etnolingvistika etnografiya va lingvistika fanlarining o'zaro munosabatidan shakllanib, etnik belgi bo'lgan tilga xalq tarixiy taraqqiyotining, rivojlanishining, xalq turmush, urf-odatlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining ta'sirini, ularning tilda voqe bo'lishini o'rganadi. Etnolingvistika til va jamiyat munosabatini tadqiq qilishda etnik faktorlarning o'rni, ahamiyati, roli kabilarni aniqlaydi, etnik va lisoniy omillarning o'zaro ta'sirini, bog'liqligini aks ettiradi.

15. Matematik lingvistika. Matematik lingvistika tilni o'rganish va tasvirlash

jarayonida matematik metodlarning (masalan, statistik metod, informatsiya nazariyasi kabilarning) qo'llanish imkoniyatlarini tekshiradi.

16. Neyrolingvistika. Neyrolingvistika neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan, qo'shilishidan hosil bo'lib, inson miyasidagi nerv hujayralarining - neyronlarning tilni - so'zlarni hosil qilishdagi vazifasini o'rghanadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni - til va nutq birliklarini yaratishda faol xizmat qiladi, yetakchi hisoblanadi. Shunga ko'ra neyrolingvistika inson nerv sistemasi bilan aloqa quroli – til orasidagi uzviy, doimiy, zaruriy munosabatni yoritadi.

**Tilning ta'riflari.** Umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi, til ilmining buyuk bilimdoni yevropalik Vilgelm fon Gumboldt til masalalariga – tilning ta'rifi muammosiga alohida jiddiy ahamiyat bergen. Aniqrog'i, V.fon Gumboldt tilning mohiyatini ochishda, unga asosli ilmiy ta'rif berishda antinomiya (Antinomiya lotincha anti (qarshi) va nomos (qonun) so'zlaridan tashkil topib, qonundagi qarama-qarshilik ifodasini beradi) metodini (usulini) qo'llaydi. Ya'ni u antinomiya usuli orqali tilning mohiyatini, tabiatini ilmiy yoritib berishga harakat qiladi va bu jarayonda til sistemasiga nisbatan bir qator antinomiyalarni qayd etadi. Bular:

1.Til va tafakkurning o'zaro dialektik munosabati, ya'ni

a) til va tafakkur o'zaro ajralmas, bir butundir;  
 b) til va tafakkur o'zaro “ajraluvchi”, ichki qarama-qarshilikka egadir. Boshqacha aytganda, til tafakkurni, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Tafakkur (fikr) til orqali yuzaga chiqadi. Tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yo'q. Ayni vaqtida til (til materiali) moddiy, tafakkur esa ruhiy (psixik). Til tashqi (shaklan), tafakkur esa ichki, til aniq (eshitish va ko'rishga ko'ra), tafakkur esa mavhum, til-real, tafakkur esa- unreal.

2. Til – faoliyat, harakat, o'zgarish, o'zgaruvchanlik. Ayni vaqtida til faoliyat mahsuli, turg'un, barqaror, bunyod etilgan o'zgarmaslikdir.

Demak, til bir vaqtning o'zida ham faoliyat, jarayon, ham faoliyat mahsuli sifatida mavjuddir. “Aslida esa, - deydi V.Gumboldt, - til faoliyat mahsuli (ergon) emas, balki faoliyatdir (energia)”. Demak, til faoliyat mahsuli sifatida diaxron

(tarixiy) kategoriya bo'lsa, til faoliyat sifatida sinxron (zamonaviy) kategoriyadir. Anig'i, til faoliyat sifatida nutqdir, nutq faoliyatidir, nutq jarayonida voqelanishdir.

Til faoliyat mahsuli sifatida asrlardan asrlarga o'tib boruvchi, jamiyat taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlovchi taraqqiyot mezonidir, muayyan tarixiy norma (me'yor)dir.

Xullas, ushbu antinomiya asosini hozirgi tilshunoslikda talqin etilayotgan lison (til) va nutqning o'zaro munosabati, til va nutq dialektikasi tashkil qiladi.

3. Tildagi ijtimoiylik (sotsiallik) va shaxsiylik, alohidalik (individuallik) orasidagi antinomiya. Til individga, shaxsga tegishli bo'lgani holda, ayni vaqtida, o'zida ijtimoiy (sotsial) jarayonlarni, faktorlarni aks ettiradi, ma'lum bir jamiyat uchun umumiyyidir.

4. Til muayyan sistema sifatida mavjud bo'lgani holda, ayni vaqtida, nutq faoliyatining alohida aktlari ko'rinishida voqelashadi.

5. Til (nutq) va nutqni tushunish antinomiyasi. Nutq va nutqni tushunish, anglash nutqiy faoliyatning muhim, eng asosiy jihatlarini tashkil qiladi. Shunga ko'ra jamiyat a'zolari o'rtasida kommunikativ jarayon amalga oshadi.

6. Til amaliyotidagi ob'ektiv va sub'ektiv jihatlar. Aytmoqchimizki, har bir inson ob'ektiv ravishda jamiyat mahsuli bo'lgan tildan, uning qonun-qoidalaridan foydalanadi. Sub'ektiv ravishda esa har bir inson o'z nutqi faoliyatida tilning taraqqiyotiga, undagi o'zgarishlarga, yangiliklarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi, ta'sir ko'rsatadi.

7. Lisoniy jarayondagi jamoaviy (kollektiv) va shaxsiy (individual) jihatlar. Tildagi individual jihatlar shundaki, til, aniqrog'i, nutq shaxsga - individga xos bo'lib, alohida shaxslarning faoliyati hisoblanadi, ya'ni nutq-individul, shaxsiy. Til esa ijtimoiy hodisa bo'lib, jamoa mahsulidir. Boshqacha aytganda, til-sotsial, ijtimoiy. Demak, alohida shaxslar – individlar o'z nutqida – nutq faoliyatida jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan tildan foydalanadilar, fikr almashadilar.

Tilshunoslik tarixida V.fon Gumboldt, Boduen de Kurtenelar bilan bir qatorda turuvchi ulkan tilshunoslardan yana biri shveysariyalik fransuz Ferdinand de Sossyurdir. U ham til ta'rifi masalasiga alohida e'tibor bergen:

1. F.de Sossyur ta'rificha tilshunoslik fanining yagona va haqiqiy predmeti til bo'lib, u aloqa quroli vazifasini bajardi.
2. F.de Sossyur til mohiyat (substansiya) emas, balki shakldir (formadir), degan o'ziga xos ta'rifni o'rtaga tashlaydi. Bu bilan u tilni mazmun, mohiyat (substansiya) bilan qorishtirmaslik, undan farqlash lozimligini, til u yoki bu mazmunni (fikrni) ifodalash shakli (formasi), vositasi ekanligini nazarda tutadi.
3. F.de Sossyur o'z qarashlarida tilning sistem xarakterga egaligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Shunga ko'ra u til belgilar sistemasidir, degan ta'rifni ham beradi. Til belgilari, F. de Sossyur fikricha, shartli, ixtiyoriy, erkin bo'lib, ikki tomonga – ifodalovchiga (ifoda planiga) va ifodalanuvchiga (mazmun planiga) egadir.
4. F. de Sossyur ikki jihatni: sinxron va diaxron aspektlarni farqlab, asosiy e'tiborni sinxron aspektga qaratadi. Buni u so'zlovchilar, fikr almashuvchilar uchun haqiqiy reallik tilning sinxron – hozirgi, real vaziyatda aloqa quroli sifatida xizmat qilishidir, deydi. Haqiqatan, tilshunoslikning dastlabki, eng muhim bosh vazifasi til sistemasining – til hodisalarining hozirgi, zamonaviy holatini o'rganishdir.
5. F. de Sossyur xalqning ifoda imkoniyatlari sistemasini ikkiga: til va nutqqa ajratadi. Til so'zlarning ja'mi va nutqni qurish, tuzish qoidalari. Nutq esa til sistemasining so'zlashuvdagi, fikr almashuvdagi yoki matndagi aniq ifodasi, namoyon bo'lishi, voqeligidir.

### **Tayanch tushunchalar:**

“Lingvistika” termini. Dinamik va statik lingvistika. Atomistik va struktural lingvistika. Ichki va tashki lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari. Tilning ta'riflari. Tilshunoslik tarixida til ta'rifi masalasi. Tilga turli nuqtai nazardan berilgan ta'riflar

### **Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar**

1. F. de Sossyurning fikricha, til nutqdan nechta belgisiga ko'ra farqlanadi?
2. Lingvistika turlari qaysilardan iborat?
3. Vilgelm fon Gumboldt tilga kanday ta'rif beradi? Antinomiya metodi nima?

4. Vilgelm fon Gumboldt uz ta'limotida qanday (nechta) antinomiyalardan foydalanadi?
5. Ferdinand de Sossyurning til masalalariga bergan ta'riflarini ayting.
- 6. Til va nutq dialektikasi muammosining tilshunoslikdagi ahamiyati nimadan iborat?**

**3-mavzu: Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalarini tarix nuqtai  
nazaridan tahlil qilish, ularni qiyoslab o'rganish**

1. Tilning ijtimoiy tabiatini tahlili.
2. Tilda me'yor tushunchasi.
3. Til va nutq dixotomiyasi.
4. Til, me'yor va nutqning uzviy aloqadorligi

Til va nutq dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo'lib, ayni masala jahon tilshunosligining doimiy diqqat markazida turgan va hozirda ham shunday.

XX asr tilshunosligining – sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezoni til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi.

Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, prof. H. Ne'matovning ma'lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash dastlab VII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til urganish usullarida ko'rish mumkin. Prof. A.Nurmonovning tadqiqtida esa temuriylar davri o'zbek tilshunosligining sardori bo'lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalari farqlangani, alloma shu masalaga alohida e'tibor bergani qayd etiladi.

Til va nutq muammosi umumiyligi nazariy tilshunoslikning asoschisi bo'lgan Vilgelm fon Gumboldning tildagi *energeo* (harakat, jarayon, kuch) va *ergon* (mahsulot), tilshunoslikdagi psixologizm oqimining asoschisi G.Shteyntalning tildagi "barqaror mohiyat" va "harakatdagi kuchlar", buyuk nazariyotchi va

amaliyotchi tilshunos Boduen de Kurtenening “tildagi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik” haqidagi ta’limotlarida ham beriladi.

Ta’kidlash shart, til va nutq dialektik munosabati o‘zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy-nazariy yechimini tilshunoslik fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Sho‘ro davri tilshunosligida, ayniqsa, 60-yillardan boshlab, til va nutq masalasiga alohida e’tibor berila boshladi. Aniqrog‘i, F.de Sossyur tomonidan xalqning aloqa qilish, fikr ifodalash vositasining til va nutq deb berilishi, bularning bir-biridan farqlanishi olimlar o‘rtasida fikrlar qarama-qarshiligidini tug‘dirdi.

Bir qator olimlar til va nutq o‘zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta ob’ekt mavjuddir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash, albatta, kerak, bular farqlanadi, degan g‘oyani ilgari suradi.

Til va nutq dialektikasida til o‘ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo‘lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Demak, F. de Sossyur mutlaqo to’g‘ri ta’kidlaganidek, til sistemadir.

Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog‘langan tovush tomoni, lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo‘lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan sathlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtida ushbu sathlarning har biri o‘ziga xos sistema – ichki sistema bulib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasi – supersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi, ijtimoiy-amaliy vazifa bajaradi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqa-aratashuv quroli bo‘lishida ko‘rinadi. Shunga ko‘ra prof. S.Usmonov “Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichida – jamiyatda voqe bo‘ladi”, deydi.

Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, prof. V.M.Solnsev “Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir...” desa,

tilshunos B.V.Kosovskiy “til o‘zining material mohiyatiga ko‘ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi”, deb alohida qayd etadi.

Til materialini S.Usmonov ikkiga bo‘ladi:

1. Psixik material. Bu – so‘z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).
2. Moddiy material. Bu – nutq yaratish chog‘ida belgili tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, aniq talaffuz qilinayotgan so‘zlar, morfemalar va tovushlar.

Til “tashqi” jihatdan ham moddiy, ham psixik hodisa. Uning moddiyligi – tovush materiyasi bo‘lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko‘rinadi. Tildagi moddiylik so‘z, so‘z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o‘ralganligida namoyon bo‘ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.

Ma’lum bo‘ldiki, tildan fikr almashuv – kommunikatsiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqdir. Hozirgi vaqtida nutqning til materiali orqali aloqa qilish jarayoni ekanligi tajriba yo‘li bilan ham isbotlangan. Masalan, psixolog V.A.Artemov kuyidagicha ta’kidlaydi: “Eksperimental–fonetik va eksperimental–psixologik tadqiqotlar nutqning til orqali aloqa qilish jarayoni ekanligiga bizni ishontirmoqda. Hozirda ko‘pchilik ... psixologlar, metodist va tilshunoslар ushbu fikrga kelishgan”. Demak, **til nutq orqali, nutq esa til materiali orqali amalga oshadi**.

Til va nutq urtasidagi bog‘liqlik, o‘zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma’lum bo‘ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqtning o‘zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu materialdan fikr shakllantirishdir. F. de Sossyur aytganidek, til bizga nutq tushunarli bo‘lishi uchun zarur bo‘lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakllanishi uchun zarur. **Tarixiy jihatdan nutq faktlari tildan oldin keladi.**

Nutq akti – hamma vaqt ijodiy akt. Chunki har bir kishi o‘z fikrini muayyan shakl – so‘z, nutq orqali ifodalayotganida o‘zining bilimiga, lug‘at xazinasiga, hayot tajribasi va madaniy saviyasiga suyanadi.

Nutq – harakatchan, dinamik, jonli bo‘lsa, til – statik, stabildir.

Nutq – alohida shaxsga, individga bog‘liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog‘liq emas.

Tilning ijodkori, yaratuvchisi – xalq. A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo‘l harakati bilan (jest) yoki qo‘l harakatisiz, aniq yoki noaniq bo‘lishi mumkin, tilga bunday ta’rif-tavsif to‘g‘ri kelmaydi.

Nutq ham monologik, ham dialogik bo‘la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo‘la olmaydi. Til – aloqa quroli, nutq – aloqa usuli. Til-imkoniyat, nutq – voqelik, ta’sirchanlik. Til – umumiylilik, nutq – xususiylik, alohidalik.

Nutq kelib chiqishiga ko‘ra birlamchi, ya’ni oldin nutq – nutq tovushlari paydo bo‘lgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan.

Til tahlil qilish yo‘li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi.

Tilning hayoti uzoq, xalqning hayoti bilan bog‘liq, nutqning hayoti esa qisqa, ya’ni aytilgan vaqtdagina mavjud.

Tilning alohida vazifasi bo‘lgan nutq psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik, nutq madaniyati va b.), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini o‘rganadi), informatsiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi.

Til – tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan o‘rganiladi.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi. Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati – faolligi uchun xizmat qiladi.

### **Tayanch tushunchalar:**

a) Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Tilning o‘z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Tilning imkoniyat, nutqning esa voqelik ekanligi. Til va nutqning ham ijtimoiy, ham individual xarakteri. Nutq faoliyati.

b) “Lingvistika” termini. Dinamik va statik lingvistika. Atomistik va struktural lingvistika. Ichki va tashki lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika,

psixolingvistika tushunchalari. Tilning ta'riflari. Tilshunoslik tarixida til ta'rifi masalasi. Tilga turli nuqtai nazardan berilgan ta'riflar.

### **Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar**

1. Lingvistika turlari qaysilardan iborat?
2. Vilgelm fon Gumboldt tilga qanday ta'rif beradi? Antinomiya metodi nima?
3. Vilgelm fon Gumboldt o'z ta'limotida kanday (nechta) antinomiyalardan foydalanadi?
4. Ferdinand de Sossyurning til masalalariga bergan ta'riflarini ayting.
5. Til va nutq dialektikasi muammosining tilshunoslikdagi ahamiyati nimadan iborat?

### **4-Mavzu: Kommunikativ tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, gender tilshunoslik, neyrolingvistika, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologiya.**

1. Kommunikativ tilshunoslik va lingvopragmatika zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari sifatida.
2. Psixolingvistika, gender tilshunoslik va neyrolingvistikaning til tadkikotida tutgan urni.
3. Madaniyatlararo muloqot va lingvokulturologiya masalalarining til amaliyotiga integratsiyasi.

Har qanday fan sohasining shakllanishi va rivojlanishi ushbu soha ob'ektiga nisbatan qiziqish paydo bo'lishidan boshlanadi. Qiziqishdan esa savollar tug'iladi. Tilshunoslik ham bundan mustasno emas. Ushbu fanning yuzaga kelishi va taraqqiyoti bevosita til tizimi, lisoniy birliklarning qurilishi, tarkib topishi va ulardan kundalik hayotda, ijtimoiy faoliyatda foydalanishga oid savollarga javob izlashdan boshqa narsa emas. Ammo tilshunoslikda ham xuddi boshqa fanlarda bo'lganidek, savollar tanlovi ilmiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, ularga topiladigan javoblar haqiqatga mos kelishi muhim shartdir. Aks holda, qo'yilgan savolga javob topish imkonи butunlay bo'lmasa yoki savol o'ta mavhum tuzilsa,

bunday mashg‘ulot quruq fikrdan, «oldi-qochdi» gaplardan iborat savol-javob o‘yiniga aylanib qolishi hech gap emas. Albatta, bu xavfdan saqlanish, «quruq gap» - spekulyativ falsafadan qochish oson emas. Birgina misol, tilshunoslар, faylasuflar, teologlar va boshqalar 2000 yildan ortiq vaqt davomida eng yetuk, voqelikni to‘liq va aniq aks ettiruvchi, lug‘aviy va grammatik tizim jihatidan hech qanday kamchiliksiz, yozma va og‘zaki muloqotda qo‘llanish uchun qulay bo‘lgan tilni topish ishtiyoyqidalar. O‘rta asrlarda bunday *yetuk til* o‘z paytida mavjud bo‘lganligi va agarda Bog‘i Eramdagi muloqot vositasi qayta tiklansa, insoniyat voqelikni haqqoniy idrok va ifoda eta olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, insonlar, millatlar o‘rtasidagi har qanday anglashilmovchiliklar, ziddiyatlar osonlik bilan bartaraf etilishi haqidagi fikr hukmron edi. Biz ham «etuk til» muammosi muhokamasini butunlay samarasiz mashg‘ulot deyishdan yiroqmiz. Zero, birinchidan, har qanday fan o‘z ob’ektining to‘liq, aniq bo‘lishini talab qiladi, ikkinchidan, ilmiy taddiqot uchun salbiy natija ham ilmiy faraz isboti uchun zarur bo‘lgan tajriba natijasidir. Axir bu muammo bekorga G‘arbu Sharqda ko‘plab ilm peshvolarining fikru-zikrini band qilmagan bo‘lsa kerak, olmon olimi Arno Borstga yetti jildlik risolasini yaratish (Borst 1957-63), farang tilshunosi Mari-Lyusi Demonitga 700 sahifani (Demonit 1992) bitish, italyan semiotigi Umberto Eco va rus olimi Vyacheslav Ivanovga o‘z gruzin hamkasbi Teymuraz Gamkrelidze bilan hamkorlikda bu borada maxsus tadqiqotlarni bajarish (Eco 1997; Gamkrelidze, Ivanov 1984; Bomherd 1984) oson kechmaganligi aniq. Albatta, bunday izlanishlarning qadriga yetmoq, ushbu sohaga o‘zini bag‘ishlagan allomalarining ehtiromini, hurmatini bajo aylamoq darkor, biroq tilshunoslik fani rivoji uchun Odam Ato va Momo Havo Bog‘i Eramda qaysi tilda muloqotda bo‘lganligini bilish harakatidan yoki barcha insoniyat uchun ma’qul keladigan lison (bu lison sun’iydan boshqa hech narsa bo‘lmaydi) yaratishga vaqt va zakovatni sarflagandan ko‘ra, «Lison yetuklikka qanday intiladi?»; «Lisoniy yetuklikning o‘zi nima va u qanday shakl topadi?»; «Til tizimi taraqqiyotining bosqichlari lisoniy yetuklikning shakllanish bosqichlarimi?»; «Etuklik har bir milliy tilga xosmi yoki umumiy til bo‘lishi shartmi?»; «Milliy adabiy tilning rivoji

yetuklik namunasimi?» kabi savollar javobi samaraliroq ekanligiga aminman. Shu o'rinda mashhur adibimiz Pirimqul Qodirov 2005 yilda e'lon qilgan «Til va el» kitobini eslatmoqchiman. Zero, ushbu asar o'zbek adabiy tilining yetuklikka intilish davrlari tarixiy lingvistik tadqiqi namunasidir (Qodirov 2005).

Ma'lumki, lison – faqatgina insonga in'om etilgan ne'mattir. Shu sababli lisoniy hodisalar tadqiqi boshqa ijtimoiy hodisalar tadqiqidan tubdan farq qiladi. Zamonaviy falsafiy yo'naliш sinergetika ta'limotiga ko'ra barcha tabiiy va ijtimoiy hodisalar tizimli tuzilishga va o'z-o'zidan tarkib topish xususiyatiga ega. Tilning ham tizimli hodisa ekanligi allaqachonlar e'tirof etilishi, tilshunoslarning e'tibori ushbu tizimning qanday tashkil topganligi, uning tarkibida qaysi turdagи birliklar mavjudligi, bu birliklarning o'zaro munosabatga kirishishi, ushbu munosabatlar asosida hosil bo'ladigan tuzilmalarning umumiyligini va uning bosqichli tuzilishdagi o'rni kabi qator masalalarga qaratilgan. Biroq ob'ektni to'liq ilmiy bilish faqatgina tizimning tarkibiy tahlili bilan chegaralanib qolmasdan, balki ushbu tizimning qanday «ishlashi» (yoki ishlatalishi) bilan ham qiziqishi tabiiy. Til tizimining o'ziga xosligi uning «dualligi», ya'ni ikki tizimdan iborat bo'lishidir. Darhaqiqat, lisoniy faoliyat ikki asosiy qismdan iborat: til birliklari talaffuzi va ular vositasida ifoda qilinadigan ma'no, mazmun.

Farang tilshunosi A.Martine «Umumiy tilshunoslik asoslari» nomli risolasida tilni «juft talaffuzli (ikki marta talaffuz etiladigan)» hodisa sifatida ta'riflayotib, («Martinet 1964; Martine 1963»), ushbu hodisaning tovushli talaffuz va ma'no ifodasidan tarkib topishini nazarda tutadi. Demak, til tizimiga oid har qanday tadqiqot uning «duallik», *ikki tizimlilik* xususiyatini e'tiborga olishi lozim. Tilshunoslik fani o'z taraqqiyot bosqichlarida xuddi shu yo'lni tutib kelmoqda. Asrlar davomida rivojlangan sistem - struktur, tavsifiy (deskreptiv), qiyosiy-tipologik kabi tadqiqot yo'naliшlarida asosiy e'tibor u yoki bu birliklarni ajratish, ularning ifoda va ma'no doiralaridagi munosabatlarini aniqlash, tavsifiy belgilarni farqlash va shu asnoda tasnifiy guruhlarga taqsimlash kabi vazifalar ijrosiga qaratildi. Natijada ifoda va ma'no planlariga oid bilimga ega bo'lish lisonning «ishlashi» yoki ushbu tildan foydalanish jarayonida insonning tafakkur qobiliyati

qanday faollashuvi haqidagi savollarga javob topishga imkon beradi, degan fikr tug‘ildi. Shuningdek, aynan bir xil tuzilish, tarkib va mazmundagi birliklarning turli tillar tizimlaridan izlanishi natijasida, barcha tillardan foydalanuvchilar bir xil qoidalarga amal qiladilar, bu qoida aytarli bir-biridan farq qilmaydilar qabilidagi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ta’kidlar ham uchrab turadi.

Albatta, faqatgina insonga xos hodisa tilning tabiatini, uning inson hayotidagi mohiyatini chuqurroq va yanada ko‘proq bila boshlaganimiz sari yangi savollar tug‘iladi va oldingi savollar hamda ularga berilgan javoblarni qayta «taftish qilish» (lozim bo‘lganda, ayrimlarini inkor etish) ehtiyoji o‘sib boradi. Tilshunoslik – empirik fan, undagi nazariy g‘oyalar doimo to‘plangan dalillar tahlili asosida shakllanadi (hatto ilmiy farazlar ham doimiy isbotni talab qiladi). Shunday ekan, tilshunoslarda tilning asosiy tarkibiy birliklarini (fonema, morfema, so‘z, gap kabilar) o‘rganishga bo‘lgan qiziqish so‘nmasligi muqarrar. Lekin lisonning tub mohiyatini to‘liq anglash uchun zohiriyligi hodisalardan tashqari, inson lisoniy faoliyatining tashkiliy qismlarini, uning botinidagi hodisalarni o‘rganish ham zarurdir.

Til tizimi birliklarining zohiriyligi shakllari tahlil natijalaridan qoniqmagan XIX asr olmon tilshunosi Vilgelm fon Humboldt «Tilning botiniy (ichki) shakli» (innere Sprach form) tushunchasini qo‘llaydi: «Bu lisonning botiniy va to‘lig‘icha intellektual jihatini hamda aynan shu jihat lisonni tashkil etadi» (Gumboldt 1984: 100). Keyingi davrlarda «lisonning botiniy shakli» tushunchasini, u «tilning faqatgina intellektual» jihatini aks ettirganligi uchun, mantiqqa oid tushuncha sifatida qarash va shu yo‘sinda tilshunoslik doirasidan siqib chiqarish harakatlari (masalan, Angliyada – O.Funke, Germaniyada X.Shteyntal, B.Vundt, Rossiyada G.Shpit) bo‘lishiga qaramasdan, ushbu tushuncha ko‘pgina hollarda lisonni ilmiy bilishni yangi bosqichga ko‘tarishning tayanch g‘oyasi xizmatini o‘tadi. Shunday bo‘lishi ham kerak edi, zero, lisonning «intellektual qismi» mantiqiy yoki psixologik kategoriya emas, xuddi shu qism tildan foydalanish imkoniyatlarini beradi, ya’ni «lisoniy ijodkorlik tovush shakllaridan foydalanadi» va barcha yangi tushunchalarni ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi (Gumboldt 1984: 100).

Tilshunoslik fanining yangi bosqichga ko‘tarilishiga turtki bo‘lgan g‘oyalardan yana biri XX asr boshlarida yuzaga keldi. Til tizimini ilmiy yoritishning «ob’ektiv metod»larini izlagan tilshunoslardan biri Ferdinand de Sossyur tilga belgilar tizimi sifatida qarash lozimligi haqidagi g‘oyani o‘rtaga tashladi. Lisoniy sistemologiyaning asoschisi bo‘lgan Sossyur uning asosiy tamoyillari til va nutq hodisalarini, sinxron va diaxron tahlil usullarini farqlash hamda lisoniy belgining ixtiyoriyigini inobatga olish bilan bog‘liq ekanligini uqtirdi.

*Til va nutq dixotomiysi* – juftligining XX asr tilshunosligi taraqqiyoti uchun qanchalik muhim bo‘lganligini ta’kidlashga hojat bo‘lmasa kerak. Sossyur kashf etgan ushbu qarama-qarshilik (unga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlar ham yetarli ekanligiga qaramasdan) dunyoning barcha hududlarida, turli yo‘nalishlarda ijod qilib kelayotgan olimlarning (nafaqat tilshunoslarning) diqqatini jalb qilib kelmoqda. Ma’lumki, Sossyur o‘z ma’ruzalarida til va nutq juftligini quyidagi xususiyatlar qarama-qarshiligida ta’riflagan: *ijtimoiylik - shaxsiylik, mavhumlik - aniqlik, passivlik - faollik, ruhiy - fizik, imkon (yashirin) – amalga oshirilganlik, virtual - aktual* va boshqalar. Bulardan eng ko‘p tanqidga uchraganlari ijtimoiylik - shaxsiylik va passivlik - aktivlik qarama-qarshiliklaridir. O‘z paytida E.Koseriu aytgan fikrga ergashsak, til va nutqning farqlanishi benuqsondir (chunki til va nutq aynan bir narsa emas), ammo ushbu farqning Sossyur tomonidan qarama-qarshi xususiyatli deb qaralishi va shu bilan tilni nutqdan «uzib qo‘yilishi» munozaralidir (Koseriu 1963: 151).

Xo‘sh, qanday qilib til va nutq bir-biriga qarshi qo‘yilishi, biri ikkinchisidan uzib qo‘yilishi mumkin? Sossyurning o‘zi ham til va nutqni «tamoman o‘zgacha narsalar» ekanligini qanchalik ta’kidlashga urinmasin, bu ikki hodisaning o‘zaro bog‘liq ekanligini e’tirof etishdan boshqa iloji qolmagan edi: «bu predmetlarning har ikkovi o‘zaro yaqin aloqada va bir-birini taqozo etadi: nutq tushunarli va shu asosda ta’sirli bo‘lishi uchun til mavjud bo‘lishi darkor; nutq esa til shakllanishi, tarkib topishi uchun zarurdir» (Sossyur 1977: 57).

Sossyurshunoslarning keyingi yillar davomida olib borgan tadqiqotlari til va

nutq munosabatini qarama-qarshi munosabat ko‘rinishida emas, balki o‘zaro bog‘liqlikni taqozo etuvchi hodisa sifatida talqin qilish zarurligidan guvohlik beradi. Mashhur sossyurshunos R.Godelning o‘quvchisi Bern universiteti professori Rudolf Engler «Umumiy tilshunoslik kursi»ning to‘rt tomlik tanqidiy matnini nashrga tayyorlayotib, ushbu kurs tinglovchilari yozib qoldirgan barcha daftarlar matnlarini qiyoslash asosida (Saussure 1967:74) Sossyurning til va nutq haqidagi fikrlarini mantiqan aniq anglash uchun ushbu fikrlarni olim ta’limotining umumiy g‘oyalari doirasida qabul qilmoq zarurligini uqtiradi. Yuqorida aytilganidek, tilga «ijtimoiy va passiv», nutqqa esa «individual va faol» sifatlarining berilishi ko‘pchilikning qattiq tanqidiga uchradi. Ammo «Sossyur fikri yo‘nalishiga yanada e’tibor bilan qarasak, - deb yozadi R.Engler, - tavsif va ta’rifni butunlay o‘zgartirishga majbur bo‘lamiz; chunki tilni *passiv* hodisa sifatida ta’riflashimiz (nutqning faolligiga qarama-qarshi holda) haqiqatdan ham hech qanday idrok etib bo‘lmaydigan ta’rifdir. Agar biz lisoniy faoliyatning faol kuchi tilni harakatga keltirishini, uni faollashtirishini e’tirof etsak, berilayotgan ta’rif o‘zgacha tus oladi» (Engler 1998: XVI).

Ayrim hollarda til va nutq hodisalari munosabatining noto‘g‘ri tavsif qilinish sababini fransuz tilidagi *langage – langue – parole* tushunchalari talqinidagi noaniqliklar bilan bog‘lashadi. Ma’lumki, Sossyurning o‘ziyoq ushbu uchlikdagi atamalarining tanlovi va ta’rifidagi qiyinchiliklarni sezgan. Fransuz atamalarining olmon va lotin tillaridagi muqobillari mazmunan qanchalik darajada mos kelmasligini ko‘rsatgan olim «yuqorida keltirilgan tushunchalarning birortasiga ham to‘liq mos keladigan biror bir so‘zni topish mumkin emas, shu sababli ushbu so‘zlarni ta’riflash foydasizdir», degan xulosaga keladi (Sossyur 1977: 52). Sossyurning ushbu ogohi uning izdoshlari va tarjimonlarini ehtiyyotkorlikka undashi kerak edi. Lekin afsuski, tarjimalarda turli variantlar paydo bo‘ldi. Masalan, olmon tilidagi muqobillik *langue* – Sprache, *langage* – Rede (Menscliche Rede), *parole* – das Sprechen ko‘rinishini olgan bo‘lsa, ingliz tilida esa *langage* – speech (human speech), *langue* - language, *parole* - speaking qatoridagi atamalar iste’molga kirdi. Ushbu qatordagi tushunchalardan turli anglashilmovchiliklarga

eng ko‘p sabab bo‘lgani langagedir. Ushbu tushuncha qariyb barcha hollarda insonning nutqiy qobiliyati bilan bog‘liq holda talqin qilinib kelindi. Qiyoslang: olmoncha Rede (Menschliche Rede) va inglizcha speech (human speech) variantlarida «nutq (insoniy nutq)» tushunchalari kirib qolgan edi. Xuddi shuningdek, «Kurs»ning 1933 yilgi nashri ruscha tarjimasi muharriri R.O.Shor va D.N.Vvedenskiylar langage «rechevaya deyatelnost» tushunchasiga to‘g‘ri keladi deb hisoblashadi. «Kurs»ning 1977 yildagi ruscha nashri muharriri A.A.Xolodovich langage «lisoniy hodisalar umumlashmasi, yaxlitligi» tushinchasini anglatishini qayd etsa ham «rechevaya deyatelnost» tarjimasini saqlab qolishni ma’qul ko‘rdi (Sossyur 1977: 23).

Xullas, atamalarga nisbatan bunday ehtiyyotsizlik langage tushunchasini torma’noda, ya’ni nutqqa xos harakatlar, xususiyatlar to‘plami, nutq ijrosi bilan bog‘liq faoliyat ko‘lamida qarashga sabab bo‘ldi.

Bizningcha, «nutqiy faoliyat» («rechevaya deyatelnost») so‘z birikmasi Sossyur qo‘llagan langage tushunchasining mazmunini to‘lig‘icha aks ettirmaydi, chunki langage ko‘proq jamoaga xos (alohida shaxsga, individga emas) qobiliyatni, xususiyatni anglatadi. Faqatgina ushbu qobiliyatning alohida shaxs faoliyatida namoyon bo‘lishinigina «nutq» va «nutqiy qobiliyat» sifatida qarash mumkin. Aslida, Sossyur langage tushunchasini til va nutqning munosabatini aks ettirish, ularning tabiatan dialektik yaxlitlikni tashkil qilishini, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmasligini ta’kidlash uchun qo‘llagan bo‘lsa ajab emas. Axir olim 1891 yilning noyabr oyida Jeneva universitetida o‘qigan ma’ruzalaridan birida langue va langage hodisalarini yaxlitlikda qarash lozimligini alohida uqtirganligini bilamiz: «Lisoniy faoliyatni, uning namoyon bo‘lish (voqelanish) holatlarini o‘rganmasdan turib tadqiq qilish borasidagi har qanday harakat samarasizdir; shuningdek, alohida olingan tillarni o‘rganish yo‘lidagi harakat ham, ushbu tillarning lisoniy faoliyat tushunchasi doirasida umumlashadigan ma’lum tamoyil va qoidalarga amal qilishi unutilsa, hech qanday jiddiy ahamiyatga va haqiqiy ilmiy asosga ega bo‘lмаган mashg‘ulotdir» (Sossyur 1990:37). Muallif istaganidek, langage tushunchasi lisoniy voqelikni *yaxlit va to‘liq* aks ettirishi

lozim. Shu sababli bu tushunchani *inson lisoniy faoliyati* mazmunida anglamoq darkor, deb hisoblayman. Sossyur merosining rus tilidagi so‘nggi tarjimalari muharrirlari ham langage atamasini «yazlykovaya deyatelnost» so‘z birikmasi vositasida o‘zgartirishni ma’qul ko‘rishmoqdalar (Sossyur 1990; Sossyur 1998).

Sossyurning izdoshlari uning ta’limotini davom ettiribgina qolmay, balki yangi g‘oyalar bilan boyitishga, bu g‘oyalar talqiniga aniqliklar kiritishga doimo harakat qilib kelmoqdalar. Binobarin, o‘zini bevosita Sossyurning izdoshi deb bilgan olim, psixosistematika nazariyasining asoschisi G.Giyom (1883-1960) lisoniy faoliyat «til+nutq»ning oddiy natijaviy yig‘indisi emas, balki dinamik birikmasi ekanligini aytib, ushbu faoliyat uzbek o‘zaro aloqadagi shartlar, til va nutqning birgalikdagi (mushtarak) mavjudligi sifatida qaralishini ma’qullagan edi. Shuning uchun ham u ushbu qismlar mushtarakligini atashda «yig‘indi»dan ko‘ra, «integral» tushunchasi orqali ifodalashni ma’qul ko‘radi (Giyom 1992: 166; Skrelina 1980:9):

### **Tayanch tushunchalar:**

- a) Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Tilning o‘z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Tilning imkoniyat, nutkning esa vokelik ekanligi. Til va nutkning ham ijtimoiy, ham individual xarakteri. Nutq faoliyati.
- b) “Lingvistika” termini. Dinamik va statik lingvistika. Atomistik va struktural lingvistika. Ichki va tashki lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari. Tilning ta’riflari. Tilshunoslik tarixida til ta’rifi masalasi. Tilga turli nuqtai nazardan berilgan ta’riflar.

### **Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar**

1. Pragmatikada adresat va adresant faktorlari nimalardan iborat?
2. Atributsiya va uning turlariga nimalar kiradi?
3. Nutqiy muloqot xususiyatlari kaysilar?
4. Pragmatik vazifalar va ularning tipologiyasi nimalardan iborat?
5. Xushmuomalalik kategoriyasi va uning turlarini sanab bering.
6. Lisoniy shaxs va uning turlariga nimalar kiradi.

7. Xorijiy til o‘qituvchisining ilmiy-pedagogik nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
8. Muloqotdagi lingvistik va ekstralolingvistik omillarni aniqlash va tipologiyasini tuzing.
9. Xushmuomalalik kategoriyasi maksimalarini ro‘yhatini tuzing va misollar bilan isbotlang.
10. Ingliz/nemis/fransuz/ispan, rus va o‘zbek tillaridagi milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklarini aniqlang va misollar bilan isbotlang.
11. Leksik sathda milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklarining ro‘yhatini tuzing.

**5-mavzu: Amaliy tilshunoslik va til ta’limi. Til o‘rganish strategiyalari.**

**Tillarni o‘qitish usullarini o‘rganish.**

1. Til tovushlari.
2. Grammatikani o‘qitish. Leksiko-grammatika va korpus tilshunosligi.
3. Suhbat tahlili, Pragmatika. Matn, kontekst va sxema.
4. Tillarni o‘rganish va o‘zaro so‘zlashish.

Pragmatikaning XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji nutqiy akt nazariyasining to‘liq ko‘rinishdagi lingvofalsafiy ta’limot sifatida shakllanishi bilan bog‘liqdir. Nutqiy akt tushunchasi oldingi davrlarda ham V.Humboldt, Sh. Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin kabi olimlarning ta’limotlarida mavjud bo‘lgan, ammo nutqiy akt nazariyasi to‘liq bir ta’limot sifatida ingliz mantiqshunosi J.Ostin, amerikalik psixolog J.Syorl va boshqalarning ishlarida shakllandi. Oksford va Kembrij universitetlarida faoliyat ko‘rsatgan faylasuflar lisoniy faoliyatning ko‘pvazifaviyligiga va uning insonning hayot kechirish shaklidan ayri emasligiga e’tibor qaratishdi.

Tilning mavjudligi insonlarning so‘zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog‘liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o‘rinda - gap) asl ma’nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da

berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir.

Muloqot jarayonida hosil bo'ladigan nutqiy harakatlarni alohida lisoniy birlik sifatida talqin qilish va ularni mazmunan tasniflash g'oyasini ilk bor targ'ibot qilganlardan biri Oksford universiteti professori Jon Ostin edi. U 1955 yilda Garvard universitetida tashkil qilinadigan an'anaviy «Uilyam Jeyms o'qishlari» dagi ma'ruzalarida ushbu muammoni o'rtaga tashladi. Keyinchalik, bu ma'ruzalar 1962 yilda How To Do Things With Words «So'zlar bilan qanday muomalada bo'lmoq darkor?» sarlavhasi bilan nashr qilindi (Austin 1962; 1973; Ostin 1986).

J.Ostin falsafiy mantiq va an'anaviy grammatikada qo'llanib kelinayotgan «gap» va «hukm (tasdiq)» tushunchalarining talqinidagi chalkashliklar qanday noqulayliklarga va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi. Grammatik an'anada har qanday gap ham hukm yoki tasdiq bo'lavermasligi va savol, undov, istak-xohish yoki boshqa turdagি mazmunlarni ifodalovchi gaplar ham mavjudligi e'tirof etilgan. Ammo faylasuflar tilshunoslar bilan har doim ham bir xil fikrda emaslar. Grammatikalarda «hukmiy tasdiq» deb qaralayotgan gaplarning (shu o'rinda ogohlantirmoqchimizki, «hukmiy tasdiq» va an'anaviy grammatikadagi «darak gap» tushunchalari bir-birlarini to'lig'icha takrorlamaydi – Sh.S.) ko'pchiligi kechayotgan voqealarning hech qanday tasdig'ini ifodalamaydi yoki J.Ostinning yozishicha, ular «voqealar haqida axborot, xabar berish yoki yozib olish uchun mo'ljallanmagan» (Ostin 1986: 24). Natijada, Oksford faylasuflari gap mazmunining tahlilida o'ziga xos «to'ntarish» tayyorlashdi. J.Ostin va uning hamkablarining fikricha, har bir gap talaffuz qilinganda, o'z ma'nosi ifodasidan tashqari, ma'lum bir harakat bajariladi, ya'ni biror bir voqea haqida darak-xabar beriladi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi va buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va'da yoki taklif qilinadi hamda takalluf, minnatdorchilik izhor qilinadi va hokazo (Austin 1962).

Demak, nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan «boyitilishi», idrok etilishi natijasidir. Mazmunining bu yo'sinda shakllanish jarayonini quyidagicha izohlash mumkin:

So'zlovchi Tinglovchi	Gaplar lisoniy tizimi Doimiy lisoniy ma'no
Ma'noning kontekstdagi o'zgarishlari	

Yuqorida shakl guvohlik berishicha, nutqiy akt mazmunining tarkib topishi va uning voqelanishi bevosita so'zlovchining muloqot maqsadi, istagi bilan bog'liqidir. Shu sababli bo'lsa kerakki, pragmalingvistlar va mantiqshunoslар hozirgacha lisoniy belgilarning nutqiy aktlar ma'noviy tuzilishida tutgan o'rni haqida bir to'xtamga kelisha olmayaptilar. Jon Syorlning bu borada aytgan fikrini olaylik: «Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek, simvol (ramz), so'z yoki gap emas, hatto simvol so'z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol, so'z yoki gapning *nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilishi va qo'llanishidir* (ta'kid meniki- Sh.S.). ...Yanada aniqrog'i, gap belgisining ma'lum sharoitda yaratilish va qo'llanishi nutqiy aktdir va nutqiy aktlar lisoniy muloqotning asosiy va eng kichik (minimal) birligidir» (Searle 1969: 16). Demak, nutqiy akt nazariyasi uchun gap tayanch birlik emas, undan tayyor «material» sifatida foydalanilmaydi. Aksincha, gap aynan nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa. Shunday ekan, nutqiy akt mazmuni to'lig'icha so'zlovchining muloqot maqsadi (communicative intention) bilan bog'liq bo'lib qoladi.

J.Syorlning nutqiy aktni muloqot tizimining asosiy, tayanch birligi sifatida qarash kerakligi haqidagi fikrini to'lig'icha quvvatlash mumkin. Ammo nutqiy aktning diskursni (muloqot matni) tarkib toptiruvchi, tuzuvchi emas, balki uni qismlarga ajratuvchi hodisa deb talqin qilinishiga e'tirozimiz bor. Holbuki, lisoniy

hodisalar talqinida ularning yaratuvchanlik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratmoq darkor. Nutqiy akt ham bundan mustasno emas, u ham matn tuzish, murakkab muloqot birligi bo'lmish diskursni tarkib toptirish vazifalarini bajaradi.

Nutqiy aktning bu turdag'i vazifalarini aniqlash uchun intensiya tahliliga, ya'ni nutqiy harakat maqsadini aniqlashga yo'naltirilgan tahlilga murojaat qilmoq kerak. *Intensional tahlilda* kommunikativ jarayonda voqelanadigan nutqiy faoliyatning so'zlovchi maqsadi, istagi bilan bog'liq tomonlari o'r ganiladi. Odatda, ushbu tahlil uslubi asoschilari (Searl 1983) har bir nutqiy harakatga yagona bir maqsadga (yagona intensiyaga) ega bo'lgan birlik sifatida qarash taraf dordirilar. Ammo men bu dunyoni juda erta tark etgan marhum do'stim, Kiev universitetining professori Oleg Georgeevich Pocheppsov fikriga qo'shilish istagidaman. Uning talqinicha, «nutqiy harakat va bu harakat vositasida voqelanadigan maqsad so'zlovchi ko'zlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichidir» (Pocheppsov 1986: 75). Shuning uchun ham olim umumiy intensiyani ikki qismga ya'ni «*boshlang'ich intensiya (maqsad)*» va «*natijaviy intensiya*»ga ajratishni taklif qiladi. Intensional tahlilning bu turi haqiqatdan ham nutqiy aktning mazmunini to'liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan, «*Vokzalga qanday borsa bo'ladi?*» gapi talaffuz etilganda, so'zlovchining boshlang'ich maqsadi tinglovchidan kerakli axborotni olish, ya'ni vokzalga qanday borishni bilib olishdir. Lekin asl niyat boshqacharoq: vokzalga yetib olish. Xuddi shu niyat oxirgi yoki natijaviy maqsaddir. Demak, nutqiy harakat bajarilishini ikki bosqichli jarayon sifatida qarash mumkin: birinchisida boshlang'ich maqsad ifodalansa, ikkinchisida natijaviy maqsad hosil bo'ladi.

O.G.Pocheppsov boshlang'ich maqsad harakati gapning strukturaviy semantik xususiyatlariga asosan mos kelishini qayd etadi. Binobarin, «*Vokzalga qanday borsa bo'ladi?*» nutqiy tuzilmasining boshlang'ich intensiya akti so'rovdir, «*Bugun universitetda uchrashuv bo'ldi*» tuzilmasiniki – darak, xabar berish bo'lsa, «*Kitobimni qaytar!*» tuzilmasida boshlang'ich intensiya so'zsiz, buyruq, talab qilishdir. Ammo natijaviy maqsad harakatlari birinchidan, son jihatidan ko'p, ikkinchidan, ular uchun gapning struktur-semantik tuzilishi hech qanday

ahamiyatga ega emas. Natijaviy intensiyaning shakllanishi gaplarning nafaqat ma’no xususiyatlari, balki ularning faollashuv muhiti, nutq konteksti bilan ham bog‘liqidir. Boshqacha aytganda, natijaviy maqsad akti, lisoniy harakatlar bilan bir qatorda, nolisoniy harakatlarni ham qamrab oladi.

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmalingvistlar e’tirof etishadi. Ularning ko‘pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdarlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Ular – *lokutiv*, *illokutiv* va *perlokutiv* harakatlardir.

Biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo‘li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir (locutionary act). Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo‘lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi. Masalan, «*Issiq choy damladim*» gapi faqatgina yozuvda qolsa, lokutsiya yo‘q. Ammo mazmundor gaplar bekordan bekorga tuzilavermaydi, ularni tuzishdan va talaffuz etishdan ma’lum bir maqsad ko‘zlanadi (bu maqsad til sohibi ongida doimo mavjud). Ushbu maqsadning voqelanishi esa illokutiv akt natijasidir. Illokutsiya shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir. Masalan, yuqorida keltirilgan «*Issiq choy damladim*» gapini talaffuz etish vositasida shu voqeа haqida xabar berish, choyga taklif qilish, suhbатdoshning qanday choy ichishini (issiq yoki sovuq) bilish kabi kommunikativ istaklarni ifodalash imkonи bor. Aynan shu kommunikativ maqsaddan qaysi biri ma’lum sharoitda voqelanishiga nisbatan nutqiy tuzilmaning *illokutiv kuchi* (illocutionary force) aniqlanadi.

Har qanday muloqot harakati natijaviy (oxirgi) maqsadni ko‘zlab bajarilishi haqida yuqorida gapirildi. Bu maqsadga erishish uchun so‘zlovchining nutqi tinglovchiga ta’sir o‘tkazmog‘i darkor. Nutqiy faoliyatning ta’sir o‘tkazish bosqichi *perlokutiv akt* nomini olgan. Biz «*Issiq choy damladim*» gapi talaffuzining natijasini tinglovchi ushbu nutqiy harakatni biz istagan maqsadda (masalan, tinglovchi choyning issiqligini eshitib, uni ichishga rozi bo‘lishida) qabul qilishda ko‘ramiz. Demak, perlokutsiya tinglovchi ongiga, his-tuyg‘ulariga

va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakatidir.

«Illokutsiya» tushunchasi nutqiy akt nazariyasida eng keng tarqalgan tushunchadir. Nutqiy akt strukturasining markazida ham illokutiv harakat turadi. Hatto illokutiv akt to'lig'icha nutqiy harakatning muqobili sifatida qaralish hollari ham uchraydi va nutqiy aktlar tasnifi illokutiv maqsad ko'rsatkichlariga asoslanadi (Searle 1969: 16; Wunderlich 1976: 75; Pocheppov 1986: 27).

«Illokutiv akt» tushunchasi pragmalingvistikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida ta'riflanadi. O.G.Pocheppovning ta'rificha, 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) so'zlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi (Pocheppov 1986: 24).

Ushbu ta'rifdan ko'rinish turibdiki, O.G.Pocheppov illokutsiyaning nutqiy faoliyatdan farqini ko'rsatishga qanchalik harakat qilmasin, u hech qachon kommunikativ faoliyatsiz, insonlararo munosabatni yaratish muhitisiz yuzaga kelmaydi. Illokutiv akt bevosita muloqot strukturasining ishtirokchisi, kommunikatsiyani maqsadli va mazmunli ko'chishini ta'minlovchi nutqiy faoliyat bo'lagidir.

Illokutiv akt hosil bo'lishi uchun ma'lum bir nutqiy tuzilmaning aniq ko'rinishdagi «illokutiv kuchi» (illocutinary force) namoyon bo'lmog'i darkor. Masalan, «*Issiq choy damladim*» kalimasi vositasida choyga taklifni izhor qilish maqsadini ifodalanayotganda, gap tuzilmasining ushbu mazmun ifoda vositasi bo'la olish imkoniyati, ya'ni «kuchi» voqelanadi. Illokutiv maqsad esa fikriy hodisa bo'lib, nutqiy harakatning mazmuni, mundarijasini belgilaydi. Z.Vendler talqinicha, illokutiv maqsad aslida, «mental harakat bo'lib, so'zlovchi tinglovchini ushbu harakatni bajarishga undaydi» (Vendler 1985: 243). Illokutiv maqsad nutqiy harakat kuchini namoyon qilish qanchalik muhim bo'lmasin, lekin bu maqsad ushbu kuchning faqatgina bir qismi, bo'lagidir. Zero, nutqiy harakat kommunikativ mazmunining to'liq hosil bo'lishi uchun maqsaddan tashqari, unga erishishni ta'minlovchi vosita va shart-sharoit ham mavjud bo'lishi talab qilinadi. Shuning

uchun ham J.Syorl, D.Vanderveken va boshqalar nutqiy harakat illokutiv kuchini yetti qismdan tarkib topuvchi hodisa sifatida qaraydilar. Bulardan birinchisi, albatta, kommunikativ maqsaddir, chunki busiz nutqiy harakatning o‘zi ham bajarilmaydi. Keyingilari esa qandaydir darajada ushbu qismni to‘ldiradilar, ular – illokutiv maqsadga erishish usuli (vositasi), illokutiv kuch voqelanishi jadalligi, voqelanishni ta’minlovchi propozitsion, haqqoniylik kabi mental sharoitlardir.

Illokutiv kuch qismlarining tuzilishi mantiqiy tartibga ega. Aynan shu tartib illokutiv harakatning mustaqilligini ta’minlaydi va uning propozitsiya aktisiz bajarilishiga imkon beradi. Binobarin, «*Afsuski!*», «*Voy, xudo!*», «*Tavba qildim!*» kabi nutqiy birliklar propozitsiya mazmuniga ega emaslar, lekin ular illokutiv jihatdan to‘liq shaklga egadirlar, ya’ni ular ma’lum kontekstda kommunikativ maqsad va mazmunni ifodalaydilar.

Ayrim faylasuflar, J.Ostinga ergashib, gaplarning struktur-semantik turlari va bular vositasida bajarilayotgan nutqiy harakatlar o‘rtasidagi munosabatni tizimiylar xarakterga ega emas, bu munosabat nutqiy harakat illokutiv kuchida qariyb namoyon bo‘lmaydi deb hisoblaydilar. Sintaksisning birgina tuzilmasi - alohida gap turli nutqiy muhitda turli illokutiv kuchga ega bo‘lishi va bu bilan turli kommunikativ maqsadni ifodalash vositasi bo‘la olishi begumon. Ammo har qanday sintaktik birlikning pragmatik zahirasi chegaralangan, uning illokutiv kuchi muloqot maqsadini ifodalash imkoniyati cheksiz emas. Masalan, «*Bugundan boshlab sizlarni er va xotin deb e’lon qilaman*» yoki «*Binoda chekish ta’qiqlangan*» kabi gaplar maqtov, so‘rov, rozilik, va’da illokutiv maqsadlarini ifodalashi mumkinligini tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, gap struktur-semantik mundarijasi va uning illokutiv imkoniyatlari o‘rtasida tizimiylar bog‘liqlik mavjudligini e’tirof etmoq kerak. Agarda shunday bog‘liqlik bo‘lmasa, tinglovchiga so‘zlovchining muloqot maqsadini, u bajarayotgan nutqiy harakat mazmunini anglash qiyin bo‘lar edi.

Yuqorida aytilganidek, nutqiy harakat strukturasining uchinchi, eng oxirgi bosqichi perlokutiv aktdir. Nutqiy faoliyat ta’sirining natijasi sifatida tavsiflanadigan perlokutiv akt oldingilaridan (lokutsiya va illokutsiya) tubdan farq

qiladi. Nutqiy ta'sir natijasini oldindan aytish qiyin, so'zlovchi nutqini eshitgan (yoki o'qigan) tinglovchining bo'lg'usi xatti-harakati, javobi turlicha bo'lishi mumkin. Pragmalingvistlarning o'zlari e'tirof etganlaridek, «perlokutiv akt illokutivdan farqli o'laroq, lisoniy hodisa emas, chunki biror bir perlokutiv natijaga hech qanday nutqiy harakatni bajarmasdan turib ham erishish imkonii bor» (Searle, Vanderveken 1985: 12). Perlokutsiyaning lisoniy tahlil doirasiga kirmasligini J.Lich ham qayd etadi: «Perlokutiv natija tahlili pragmatikaning vazifasiga kirmaydi, chunki pragmatik ta'sir kuchi (nutqiy harakatning – Sh.S.) maqsadi bilan bog'liq, natija bilan emas» (Leech 1983: 203).

Qiziq, nutqiy harakat ta'sirini pragmalingvistik tahlil doirasidan chetga surib qo'ysak, unda muloqot tizimini tumtoq qilib qo'ymaymizmi?! Muloqot so'zlovchiga ta'sir o'tkazish, uni biror javob harakatiga undash uchun bajariladi-ku! Nutqiy muloqot maqsadi *ikki sathlidir*, ya'ni nutqiy harakatda axborot uzatish va kommunikativ pragmatik maqsad voqelanadi. Birinchisida so'zlovchining maqsadi axborot yetkazish yoki olish. Ammo axborot almashinuvi harakatlari faqat biror xabar berish yoki so'rash bilan chegaralanmaydi. Bu harakatlar ijrosidan so'zlovchi va tinglovchining talabini, qiziqishini qondirish maqsadi ham ko'zlanadi. Bu esa pragmatik vazifaning bajarilishidir. Demak, muloqot jarayonida pragmatik vazifalar kommunikativ maqsad doirasida voqelanadi. Shuning uchun ham nutqiy harakat natijasida yuzaga keladigan perlokutiv ta'sirni pragmalingvistik tahlil doirasiga kiritgan ma'qul.

Pragmatika nutqiy ta'sir natijasining hosil bo'lishi ehtimolini belgilovchi vositalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday vositalar qatoriga masalan, pragmatik mazmunni aniqlashtiruvchi illokutiv fe'llar kiradilar. Ushbu fe'llar nutqiy harakat tarkibida muhim rol o'ynaydilar, ular muloqot maqsadi mazmuni va bajaralayotgan nutqiy harakatning illokutiv kuchini aniq va ochiq ko'rsatish xizmatini o'taydilar. Masalan, «*Kumushni ertaga kinoga olib boraman*» gapining talaffuzi vositasida va'da berish nutqiy harakati bajariladi, ammo ushbu harakat mazmunini aniq ifodalash uchun illokutiv fe'lni qo'llash imkonii ham bor: «*Kumushni ertaga kinoga olib borishga va'da beraman*». Xuddi shuningdek, «*Dars qilmaysanmi?*»

sintaktik birligi so‘roq, talab, ogohlantirish, taklif kabi nutqiy harakatlarni ifodalashi quyidagi yo‘sinda aniqlashtirilishi mumkin: «*Dars qilmaysanmi, deb so‘rayapman (sendan)*»; «*Dars qilmaysanmi? Buni sendan talab qilaman*» (o‘qituvchining so‘zi); «*Dars qilmaysanmi? Seni ogohlantiryapman*»; «*Dars qilmaysanmi? (kel, birgalikda qilishga taklif qilyapman)*».

Illokutiv fe’llarning ma’no tarkibida talaffuz etilayotgan nutqiy birlikning (gap yoki matnning) pragmatik-kommunikativ mazmunini ifodalovchi sema asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, «*Fan nomzodi R.Suvonovaga dotsentlik unvoni berilishiga roziman*»; «*Fan nomzodi R.Suvonovaga dotsentlik unvoni berilishiga qarshiman*»; «*Fan nomzodi R.Suvonovaga dotsentlik unvoni berilishini talab qilaman*» kabi tuzilmalar bir xil propozitsiyaga ega, ularning farqi faqatgina pragmatik mazmunda, ya’ni turli nutqiy harakatlar ifodalanishida va kommunikativ maqsadlarning har xil bo‘lishiga turli illokutiv fe’llar (rozi bo‘lmoq, qarshi bo‘lmoq, talab qilmoq) qo‘llanishi vosita xizmatini o‘tamoqda. J.Syorl pragmatik mazmunining bu asnoda namoyon bo‘lishini «ifodalanish tamoyili» (the principle of expressibility) faollashuvi natijasi deb hisoblaydi. Biroq, ushbu tamoyil nutqiy muloqot matnlarida har doim ham bir yo‘sinda namoyon bo‘lavermaydi. Binobarin, *buyurmoq, ogohlantirmoq, maslahat bermoq, taqiqlamoq, taklif qilmoq* kabi birliklar nutqiy tuzilma tarkibidan joy olib, uning mazmunini oydinlashtirish uchun xizmat qila olishi ma’lum. Lekin, «*Men maqtana olmayman, sendan aqlli roqman*» qabilida maqtanish nutqiy harakatining qo‘llanishi ehtimoldan ancha yiroq. Balki, ushbu harakatni bajarayotgan shaxsning maqtanishga haqqi bordir. U o‘z suhbатdoshiga nisbatan aqlliligi haqiqatdir, lekin nutqiy muloqot odobi bunga yo‘l qo‘ymaydi.

Umuman olganda, nutqiy akt va uning mazmunini ifodalovchi vositalar o‘rtasida funksional va mazmuniy nomutanosiblik paydo bo‘lishining sabablari turlicha. Bulardan biri, albatta, ayrim illokutiv fe’llarning ma’no strukturasida so‘zlovchi o‘zi bildirayotgan fikrning haqiqat ekanligiga ishonmayotganligiga ishora qiluvchi sema, bo‘lak mavjudligidir. Masalan, *tahdid qilmoq, ig‘vo qilmoq, so‘kmoq, haqorat qilmoq, kamsitmoq* kabi birliklarni birinchi shaxsda qo‘llash va

shu yo'sinda nutqiy harakat mazmunini ochiq bayon qilish mumkin emas. Chunki «*Men senga tahdid qilayapman, o'ldiraman*» turidagi tuzilma nutqiy muloqot ma'nosiga xilof, bunday birliklar faqatgina uchinchi shaxs, ya'ni muloqot jarayonini kuzatuvchi tomonidan qo'llanishi mumkin: «*O'ldiraman, deb unga tahdid qildi*».

Pragmatik maqsad va mazmunning ekplitsit, ya'ni ochiq ifoda etilishida diqqat axborot almashinuvidan ushbu axborotni uzatish maqsadiga ko'chadi va kommunikatsiya maqsadi uzatilayotgan axborotning predmetiga aylanadi. Nutqiy harakat maqsadining ochiq bayoni turli ko'rinishdagi lisoniy birliklar vositasida bajariladi va bulardan eng asosiysi pragmatikada *performativ formula* (qolip) atamasini olgan.

J.Ostinning qaydicha, har bir nutqiy tuzilma illokutiv harakatni bajarish uchun xizmat qiladi va modal ko'rsatkichlar (mayl shakli, so'z tartibi, ohang va boshqalar) so'zlovchiga u qanday illokutiv maqsadni ifodalash niyatida bo'lganligini bildirish imkonini beradi. Bundan tashqari, shunday tuzilmalar mavjudki, ularning pragmatik mazmuni doimiy, qariyb barcha sharoitlarda bir xil illokutiv kuchga ega bo'ladi va odatda, bunday tuzilmalar tarkibida illokutiv fe'llar qo'llaniladi: «*Ishni bajarishingni talab qilaman*»; «*Homiylig ko'rsatishga va'da qilaman*»; «*Tug'ilgan kuning bilan tabriklayman*» va hokazo. Nutqiy akt nazariyasida bunday tuzilmalar «aniq performativ»lar deb ataladi.

Performativlarning grammatik tuzilishi ham o'ziga xosdir. Bu gaplarda fe'l, odatda, birinchi shaxs hozirgi zamon shaklida va ushbu fe'lning birinchi aktanti deyktik olmoshning birinchi shaxs birligi, ikkinchi aktant esa deyktik olmoshning ikkinchi shaxs birlik yoki ko'pligi vositasida ifodalanadi. Ushbu qolipa tuzilgan performativ namunaviy tuzilma bo'lib, uning to'liq ko'rinishda qo'llanishi kam uchraydigan holdir. Ko'pincha, birinchi aktant tushib qoladi: I thank you for help Thank you for help; o'zbek va rus tillari grammatik tizimi performativ tuzilmalarning ikkala aktantini ham tushirib qoldirish imkonini beradi: «*Blagodaryu za pomosh*»; «*Yordamingiz uchun rahmat*»; «*Proshu ne rasxoditsya*»; «*Tarqalmasliklaringizni so'rayman*»; «*Klyanus, chto eto pravda*»;

«*Qasam ichamanki, bu haqiqat*». Bundan tashqari, uchinchi aktant, ya’ni propozitsiya ham tushib qolishi mumkin: «*Rahmat*»; «*Tabriklayman*»; «*Talab qilaman*».

Performativning birinchi shaxs shaklida bo‘lishining sababi lisonning faollik tabiat bilan bog‘liqdir. Har qanday nutq turining ijrochisi so‘zlovchidir va nutq faqatgina so‘zlanilayotgan paytdagi harakatdir va bu harakat faqatgina so‘zlovchi tomonidan bajariladi. Performativ fe’llar ma’no jihatdan ham o‘ziga xosdirlar: ularning mazmunida voqeа-hodisalar aks topadilar va bu voqealar haqida xabar beriladi.

Demak, agarda pragmatik maqsad aniq va zohiran ifoda topsa, nutqiy tuzilma performativ hisoblanadi. Performativ tuzilmalarda axborot oddiygina uzatilib qolmasdan, balki tinglovchilarga tezda ta’sir o’tkazish, ularni javob harakatiga undash maqsadlari aniq namoyon bo‘ladi.

«Nutqiy akt» tushunchasining pragmatik tahlilning asosiy tayanch tushunchalaridan biri ekanligi yuqorida aytilgan edi, lekin ushbu tushunchani turli mualliflar turlicha talqin etayotganliklarini ham eslatmoqchiman. Nutqiy akt hodisasining mohiyati haqidagi fikrlarning turli-tumanligi taklif qilinayotgan tasnif tamoyillarida ham o‘z aksini topmoqda. Hozirgi paytgacha tilshunoslар nutqiy aktlar guruhlarining soni va hatto ularni nomlash borasida bir to‘xtamga kelishganicha yo‘q.

Nutqiy aktlarni tasnifiy guruhlarga ajratish istagini J.Ostin Garvardda o‘qigan ma’ruzalarining o‘n uchinchisida bildirgan edi. Olim taklif qilgan tasnif besh guruhdan iborat va bu guruhanish illokutiv fe’llar ma’nosiga asoslanadi:

1. Verdiktivlar; bu turdagи nutqiy aktlar hukm chiqarish (sud, hakam kabilar tomonidan) mazmunini anglatadilar. «*Seni aybdor deb hisoblayman*»; «*Jarima to‘laysan*», «*O‘yindan tashqari holat*», «*Ogohlantiraman*».
2. Ekzersitivlar (lat. exercitation – «*ijro etmoq*», «*bajarmoq*»); Bu nutqiy harakatlar mazmunida o‘z huquqidan, hukmronligidan foydalanib, buyruq berish, majbur qilish, maslahat berish, ogohlantirish ma’nolari ifoda topadi: «*Seni*

lavoziminingdan bo‘shataman»; «Yaxshisi, telefon qilma»; «Chiqib ket»; «Munofiqdan ehtiyot bo‘l».

3. Komissivlar (Qiyoslang: ing.commitment- «majburiyat») mazmunida va’da berish va boshqa turdagи majburiyatlar ifodalanadi: «Ertaga kelishga va’da beraman»; «Rejani albatta bajaraman»; «Burchimni bajarishga qasamyod qilaman»; «Jarimani to‘lash kafolatini beraman»; «Fikringizni qo‘llab-quvvatlayman».

4. Bexabitivlar (ikki o‘zakning – behave «o‘zini tutmoq» va habit «odat» - birikishidan yasalgan). Jamoada o‘zini tutish, biror kishi xatti-harakatiga munosabat bildirish ma’nolariga ega bo‘lgan nutqiy harakatlardir: «Yordaming uchun rahmat»; «Salomat bo‘ling»; «Xafa bo‘lmang»; «Oy borib, omon kel» kabilar.

5. Ekspozitivlar (ing. yexposition- «izoh, tavsif, tushuntirish») muloqot jarayonida so‘zlovchi o‘z fikrini izohlashi, tasdiqlashi va tushuntirish jarayonida yuzaga keladigan nutqiy aktlardir: «Kasal ekanligingga gumonim bor»; «Kasal bo‘lishim mumkin»; «Qarzdorligingni eslatmoqchiman».

J.Ostin tasnifi biror bir aniq tamoyilga asoslanmaganligi uchun ham qator kamchiliklardan xoli emasligi tadqiqotchilar tomonidan ko‘p martalab tanqid qilindi. J.Serl nutqiy harakatlarni guruhlarga ajratishda yettidan ortiq ko‘rsatkichlarga amal qilishni tavsiya qiladi, lekin ulardan eng asosiyulari illokutiv maqsad, unga erishish uslubi, mazmunning haqqoniylig sharti kabilardir: «tasnify guruhashga asos qilib illokutiv maqsadni va undan kelib chiqadigan tushunchalar: haqqoniylig shartini moslashtirish hamda ifodalash usulini olishni taklif qilaman» (Serl 1986: 180). J.Serl ham nutqiy aktlarni 5 guruhgа ajratadi, ammo u taklif qilgan guruhlar O.Ostin tasnifidan mazmun jihatidan farq qiladi:

1. Assertivlar (axborotning rostligini tasdiqlovchi nutqiy harakatlar): «Maqolani yozib tugatdim»; «Poezd soat 10 da jo‘naydi»; «Jamshid - talaba».
2. Direktivlar (buyruq, savol, iltimos, ogohlantirish kabi tinglovchini faoliyatga undovchi nutqiy aktlar).
3. Komissivlar (J.Ostin ajratgan guruhgа mos keladi).

4. Deklarativlar: «Yig‘ilishni yopiq deb e’lon qilaman»; «Sizlarni er va xotin deb e’lon qilaman» kabi voqelikdagi holatning o‘zgartirilishi haqidagi nutqiy aktlar.
5. Espressivlar (tabrik, ta’ziya bildirish kabi nutqiy harakatlar).

Ushbu tasnif ham albatta, ayrim nuqsonlardan xoli emas, lekin J.Serl ajratgan guruhlar nutqiy harakatlarning asosiy xususiyatlarini umumlashtirish va istiqbolda tasnif me’yorlarini yanada kengaytirish yo‘li bilan gurhlarni aniqlashtirish va tizimlashtirish imkonini beradi.

Xuddi shunday kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan tasniflardan birini Keyt Allanning «Lisoniy ma’no» (Lingvistic Meaning) kitobida uchratish mumkin. Muallif o‘z paytida K.Bax va R.Harneshlar taklif qilgan tasnifga tayanib (Bach, Harnish 2000), ikki asosiy sinfni, ya’ni *shaxslararo harakatlar* (interpersonal acts) va *deklarativ harakatlar* (declaratory acts) sinflarini farqlash lozimligini uqtiradi. Tahlilning keyingi bosqichlarida esa bu sinflar tarkibida guruhlar ajratiladi (Allan 1986: 192-203). Natijada birinchi sinfda (*shaxslararo faoliyat aktlari*) *konstativ* (tasdiq, darak berish), *prediktiv* (taxmin, bashorat qilish), *komissiv* (va’da, taklif qilmoq), *aknolejment* (tabrik qilmoq, takalluf, ehtirom kabilar), *direktiv* (iltimos, savol, buyruq, ta’qib kabilar), *avtoritativlar* (ijozat bermoq, maslahat bermoq) guruhlari farqlanadi. *Deklarativlar* sinfida esa *effektiv* (cho‘qintirish, uylantirish, lavozimga tayinlash faoliyatlariga oid nutqiy harakatlar) va *verdiktiv* (hukm chiqarish faoliyatiga oid nutqiy harakatlar) aktlar guruhlari ajratiladi.

Barchaga tanish bo‘lgan «Pragmalingvistika» risolasining muallifi J.Lich nutqiy aktlar guruhlarini ajratishda sotsiolingvistik ko‘rsatkichlarga tayanib, ularni muloqot jarayonida «xushmuomalalikni ta’minlovchi va shu muhitni o‘rnatish maqsadi bilan qay yo‘sinda bog‘liqligiga» (Leech 1983: 104) nisbatan guruhlaydi. Bu guruhlar quyidagilar:

- 1) *kompositiv* (illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga mos kelmaydi, masalan, buyruq, savol, talab, iltimos kabi nutqiy harakatlar);
- 2) *konvivial* (illokutiv va ijtimoiy maqsad o‘zaro mos, masalan, taklif, qutlov, tabrik, tashakkur izhor qilinishi);
- 3) *kollaborativ* (illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga befarq; masalan, tasdiq, xabar

berish, e'lon qilish, ma'lumot berish kabi harakatlar);

4) *konflektiv* (illokutiv va ijtimoiy maqsadlar o'zaro qarama-qarshi, masalan, tahdid, ayblov, so'kish, qarg'ish harakatlari).

J.Lichning fikricha, ijtimoiy maqsad yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishdan iboratdir va bu maqsadni ta'minlovchi vosita *xushmuomalalik kategoriyasidir*.

Tadqiqotchilarining bir guruhi o'z tasniflarida fe'l predikatlarining ma'noviy xususiyatlariga asoslanadilar. Ular fe'llarni u yoki bu turdag'i illokutiv maqsadni ifodalash xususiyatlariga nisbatan guruhlarga ajratadilar va bu guruhlarni maxsus lug'atlar vositasida izohlashga harakat qiladilar. «Nutqiy akt fe'llari» deb nomlangan shunday lug'atlardan ikkitasi haqida to'xtalmoqchiman. Shaxsiy kutubxonamda mavjud bo'lgan ana shu lug'atlardan birinchisi mashhur semasiolog va pragmalingvist Anna Vejbiskaning qalamiga mansub bo'lib, «English Speech Act Verbs: A Semantic Dictionary» lug'atidir (Wierzbicka 1987). Bu lug'atda 270 ga yaqin yuqori chastotali ingliz tili fe'llarining sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlari tavsiflangan. Tavsifni tizimlashtirish maqsadida muallif ushbu fe'llarni 37 guruhga taqsimlaydi va ushbu guruhlarga kiruvchi har bir fe'lning ma'no tarkibi izohlanadi. Izohlash usuli sifatida esa u yoki bu ma'no bo'lagi namoyon bo'lishini ta'minlovchi nutqiy tuzilmalar, gaplar keltiriladi. Masalan, ask «so'ramoq» fe'lining iltimos nutqiy harakatini ifodalash xususiyatini izohlash uchun quyidagi gaplar qatori keltiriladi (O'sha asar, 19-50 betlar):

*I say: I want you to do X.*

*I think of it as some thing that will be good for me.*

*I don't know whether you well do it.*

*I say this because I want to cause you to do it.*

*Tarjimasi:*

*Men demoqchiman: Men sening X ni bajarishingni istayman.*

*Men o'ylaymanki, buning bajarilishi mening uchun yaxshi.*

*Men bilmaymanki, sen buni bajarasanmi?!*

*Men buni aytayotibmanki, seni ushbuni bajarishga majbur qilmoqchiman.*

Ushbu lug‘atning A.Vejbiskaga xos bo‘lgan uslubda, ya’ni lisoniy birliklarning ma’nosini mukammaltirilgan kichik semasiologik xususiyatlarni tavsiflash asosida (bu usul muallif tomonidan o‘z paytida «semantik primitivlar»ga ajratish usuli deb nomlangan edi) yaratilganligi ko‘rinib turibdi.

Ikkinchi lug‘at olmon pragmalingvistlari T.Ballmer va V. Brennenshtullar tomonidan yaratilgan bo‘lib, Germanyaning mashhur «Shpringer» nashriyoti tomonidan «Til va kommunikatsiya» seriyasida nashr qilingan (Ballmer, Brennenstuhl 1981) ushbu lug‘atning boshqalaridan farqi shundaki, unda nafaqat performativ qo‘llanishi mumkin bo‘lgan, balki ingliz tili lug‘at zahirasidagi barcha nutqiy faoliyatga oid fe’lllar qamrab olingan (bu fe’llarning umumiy soni 4800ta). Mualliflar lug‘atning tagsarlavhasida «Leksik tahlil» (Lexical analysis) iborasini ishlatishgan bo‘lsalar ham, ushbu asarda yoritilayotgan material leksikologiyadan tashqari, nutqiy akt ta’limoti va ma’no nazariyasi rivoji uchun muhim o‘rin egallaydi. Ishda «nutqiy akt» tushunchasi bir muncha keng talqin qilinadi va «nutqiy aktlar ketma-ketligi (birikmasi)» muloqot faoliyatini tashkil qiluvchi asosiy tushuncha sifatida qaraladi. Aynan nutqiy harakatlarning semantik munosabatlari asosida hosil bo‘ladigan majmualar eng yuqori pog‘onadagi birliklar bo‘lib, so‘nggi (quyi) bosqichlarda model guruhlari va ikkinchi darajali guruhlar ajraladilar. Lug‘atda 4 model guruhi, ya’ni *ekspresiya* (expression), *apellyatsiya* (appeal -murojaat), *interaksiya* (interaction – o‘zaro muloqot) va *diskurs* (discourse - muloqot) modellari ajratilib, keyin ular tarkibida nutqiy harakatlar mazmunini yanada aniqlashtiruvchi 8 ta ikkinchi darajali guruhlar mavjudligi qayd qilinadi. Umuman, Ballmer va Brennenshtul lug‘ati nutqiy harakat fe’lllarining bat afsil tasnifi va tavsifi namunasidir. Tasnifning ko‘p bosqichliligi yana shunda namoyon bo‘ladiki, 4800 ta fe’l 24 turga ajratiladi, keyin esa ushbu turlar 600 kategoriylarga taqsimlanadilar. Bu ko‘rinishdagi ko‘p bosqichli tahlil nutqiy harakat fe’lllarini leksik maydon nazariyasi nuqtai nazaridan tasniflash imkonini ham yaratadi. Bundan tashqari, mualliflar tomonidan taklif qilingan tahlil usulini murakkab tuzilishdagi lisoniy birliklar, masalan, turg‘un birikmalar, metaforalar va hatto matn qurilmalari tadqiqiga tadbiq qilinsa, lisoniy faoliyatga oid tadqiqotlar

samaradorligi oshishiga hech qanday gumon yo‘q. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning qiyosiy tilshunoslik, amaliy lug‘atshunoslik sohalaridagi ahamiyati haqida alohida gapirib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Pragmalingvistik adabiyotlarda yuqoridagilardan tashqari, yana qator boshqa tamoyillarga asoslangan nutqiy aktlarning tasnifiy guruhlari haqida ma’lumotlar mavjud. Bu tasniflar u yoki bu turdagи nutqiy aktlar guruhining xususiyatlari, ularning bir-biridan farqlovchi belgilarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Masalan, D.Vunderlix *oddiy* va *ko ‘p ma ’noli* aktlarni farqlashni taklif qiladi: vasiyat, in’om qilish akti mazmunida komissiv (va’da) va deklarativ (e’lon qilish) ma’nolari birikadi: «*Mol-mulkimni senga qoldiraman*» tuzilmasi vasiyat bilan bir qatorda, ushbu vasiyat haqidagi va’da hamdir.

Bundan tashqari, nutqiy harakat birliklarini strukturaviy tuzilishiga nisbatan ham guruhlarga ajratish mumkin. Strukturaviy xususiyatlardagi farqiga binoan *sodda va qo ‘shma (murakkab) nutqiy harakatlar* ajraladilar. Sodda nutqiy harakat nutqiy faoliyatning eng kichik birligidir. Qo‘shma nutqiy akt esa sodda harakatlarning birlashishidan hosil bo‘ladi. Qismlari o‘rtasida tenglik, ergashganlik munosabatlari mavjud bo‘lgan qo‘shma nutqiy harakatlar mantiqiy va kommunikativ yaxlitlikni tashkil qiladilar va so‘zlovchi tomonidan yaxlit birlik sifatida qo‘llaniladi (Karaban 1989).

Shunday qilib, nutqiy faoliyatning umumiyligi faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan talqin qilinishi va shu yo‘sinda nutqiy aktlar tasnifiy tamoyillarining ajratilishi nutq hodisasining tizimiyligi xususiyatga ega ekanligini va uni yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini yaratdi. Bu ancha paytgacha tilshunoslikda hukmron bo‘lgan nutqning faqat individual shaxsga oid tomonlarini o‘rganish g‘oyasi o‘zini oqlamaganligidan dalolatdir.

Nutqiy akt nazariyasining pragmalingvistik ta’limotda tutgan o‘rni, uni nutq hodisasining tizimiyligi xususiyatlarini dalillovchi va isbotlovchi nazariya sifatida e’tirof etish bilan bir qatorda mavjud bo‘lgan nuqsonlari haqida gapirmaslikning iloji yo‘q. Ushbu nazariyaning kamchiliklari tadqiqotchilar tomonidan qayd etilib

kelinmoqda (Allwood 1977; Cusov 1980; Lazarov 1986; Safarov 1983 va boshqalar).

Olmon tilshunosi Doroteya Frank 1980 yilda Urbino shahrida o‘tkazilgan anjumanda o‘qigan ma’ruzasiga «Pragmatikaning yetti aybi» (Seven sins of pragmatics) degan jarangdor sarlavhani tanlab, nutqiy akt nazariyasining nutqiy muloqot pragmatikasi tahliliy asoslarini yaratish uchun yetarli darajadagi metodologik imkoniyatga ega emasligini isbotlashni rejalashtirdi. Olima qayd qilgan (Frank 1986) yetti ayb -nuqsonlarning ayrimlarini qisqagina bo‘lsa ham sharhlamoqchiman.

Birinchi nuqson nutqiy aktni umumiyligi jarayondan, «oqim»dan ajratib olish bilan bog‘liqdir, chunki ajratilayotgan bo‘lak nimadan iborat bo‘lishi (alohida bir gapmi yoki gaplar qatori) noma'lum. Bundan tashqari, yagona bir nutqiy bo‘lak – gap birvarakayiga bir necha aktlar, ya’ni «lokutsiya», «referensiya», «predikatsiya» kabi harakatlarni qamrab olishini ham unutmaslik lozim.

Nutqiy akt nazariyasining ikkinchi «kamchiligi» muloqot jarayonida kechadigan o‘zaro munosabat harakatlarini to‘lig‘icha yorita olmasligida ko‘rinadi. Nutqiy harakatlarning performativ iboralarga tayangan holda tasniflanishi va nomlanishi tahlil doirasini bir oz chegaralab qo‘yadi, natijada suhbatdoshlar qo‘llaydigan *luqma*, *kiritma* kabi kichik birliklar tahlilsiz qoladi.

Olima nazariyaning eng katta va uchinchi «gunohi»ni uning nutqiy muloqot tizimi tahlilining asosiy g‘oyasini tashkil qiluvchi o‘zaro faoliyat nazariyasiga mos kelmasligida, deb hisoblaydi. Menimcha, D.Frankning ushbu fikriga to‘lig‘icha qo‘shilmoq kerak. Zero, muloqot uning ishtirokchilari – kommunikantlarning o‘zaro faoliyatini taqozo etadi. Ajratilayotgan nutqiy aktlar esa bir tomonlama faoliyat, aniqrog‘i, so‘zlovchi bajarayotgan nutqiy harakatidan iborat bo‘lib qolmoqda. Holbuki, nutqiy birliklar mazmuni «hamkorlikda shakllantirilayotgan mazmundir» va bu hamkorliksiz o‘zaro bir-birini anglash va muloqot natijasiga erishishning o‘zi ham mumkin emas.

Navbatdagi – to‘rtinchchi nuqson bevosa oldingisi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi, chunki nutqiy akt o‘zaro faoliyat doirasida tahlil qilinmasligi sababli

ajratilayotgan birliklar ham statik yoki turg‘un xususiyatli bo‘lib qoladi. Natijada, nutqiy muloqotning tabiatdan harakatchanligi, strategik tuzilishi nazardan chetda qoladi. Muloqot birliklarining tugallangan jarayon sifatida ajratilishi va tahlil qilinishi unchalik ma’qul emas, muloqot doimiy harakatdagi jarayondir va bu jarayonda kommunikantlarning maqsad, mulohazalari ham harakatda bo‘lib, o‘zgarib turadi.

Keyingi uch (5-7) nuqson nutqiy harakat nazariyasida muloqot muhiti yoki konteksti muammosi to‘lig‘icha hal etilmaganligi bilan bog‘liqdir. Nutqiy akt nazariyasining targ‘ibotchilari kontekstda hosil bo‘ladigan ma’no va mazmunning mohiyatini aniqlash yo‘lidan bormasdan, ushbu hodisaga ikkinchi darajali tushuncha sifatida qaraydilar, ular uchun kontekst «qutqaruvchi langar» vazifasinigina o‘taydi. Kontekst hodisasiga bo‘lgan bunday munosabat natijasida yana bir muhim masala – semantik va pragmatik mazmun munosabati masalasi o‘z yechimini topmay qoldi. Albatta, propozitsianing lisoniy birlik mazmuni uchun yagona tayanch emasligini ta’kidlash muhim, ammo propozitiv va illokutiv ma’no yagona bir tuzilma tarkibida birikib, yaxlit mazmun hosil qilishi muammosini hal qilmasdan turib, lisoniy mazmun hodisasi mohiyatini bilish yoki yoritishning imkonini yo‘q. Lisoniy tahlil esa u yoki bu hodisaning mavjudligini qayd etib qolmasdan, balki ushbu hodisaning tavsifini berish, xususiyatlarini yoritishi, tushuntirishi lozimdir.

### **Tayanch tushunchalar:**

- a) Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Tilning o‘z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Tilning imkoniyat, nutkning esa vokelik ekanligi. Til va nutkning ham ijtimoiy, ham individual xarakteri. Nutq faoliyati.
- b) “Lingvistika” termini. Dinamik va statik lingvistika. Atomistik va struktural lingvistika. Ichki va tashki lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari. Tilning ta’riflari. Tilshunoslik tarixida til ta’rifi masalasi. Tilga turli nuqtai nazardan berilgan ta’riflar.

**Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar**

1. Dunyoni interpretatsiya qilishda tilning roli nimadan iborat?
2. Bilim tuzilmalari: freym, sxema, konsept, ssenariy va ularning ifoda-lanishini aytib bering.
3. Til va tafakkur, til va madaniyat bog‘liqligi deganda nimani tushunasiz?
4. Til – bilim tuzilmalarini va madaniyatni namoyon etuvchi, saqlovchi va o‘zatuvchi vosita ekanligi misollar orqali tushuntirib bering.
5. Kognitiv metafora mental va madaniy model ta’rifiga misolar keltiring.
6. Milliy xarakterga ega realiyalar ro‘yxatini tuzing.
7. Lingvokulturema turlari va ularning xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Frazeologik birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini sanab bering.
9. Madaniy belgilar va ularning turlari nimalardan iborat?

## V. GLOSSARY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Task Characteristics</b>	Vazifalarning to‘rtta asosiy xususiyati mavjud: (1) dastlab ma’no (2) amalga oshirilishi kerak bo‘lgan maqsad mavjudligi; (3) vazifani bajarishning ba’zi bir ustuvorlikka egaligi; va (4) qaqiqiy munosabatlari mavjudligi	There are four main characteristics of tasks: (1) meaning is primary; (2) there is a goal which needs to be worked towards; (3) task completion has some priority; and (4) there is a real-world relationship
<b>The cooperative principle</b>	Muloqot vaqtida qar ikkala ma’ruzachi va tinglovchi tomonidan ma’noni saqlab qolish uchun qilinadigan sa’y-qarakat (ya’ni to‘qri, samimiy va mos ma’lumot)	An equal amount of effort (i.e. true, sincere and appropriate information) that is invested by both a speaker and hearer to construct meaning while communicating
<b>The maxim of quantity</b>	Ma’ruzachi tinglovchining yangi ma’lumotlarga bo‘lgan eqtiyojini baqolash (ko‘proq G` kamroq gapirish muvaffaqiyatsiz muloqotga olib kelishi mumkin)	Evaluation by the speaker hearer’s need in new information (much/less speaking may lead to unsuccessful communication)
<b>The maxim of relevance</b>	Mavzu bilan boqliq, o‘z vaqtida berilgan ma’lumot. Suqbat davomida muqokama qilingan mavzu bilan boqliq bo‘lgan so‘zlarni aytish talab qilinadi. Mavzudan tashqarida bo‘lgan aqamiyatsiz so‘zlar va jumlalarni aytish tinglovchini ma’ruzachining ma’lumotlarini qabul qilishiga xalaqt beradi	Connected with the topic, timely given information. While talking to each other, people are required to pose utterances that are connected with the discussed topic. To be irrelevant in saying words and sentences that are off the topic may lead to the situation, in which a hearer stops accepting speaker’s information
<b>Assessment</b>	o‘quvchilarning ta’lim jarayonida o‘rganishi va rivojlanishi haqida xulosalar chiqarishning tizimli asosi;	is the systematic basis for making inferences about the learning and development of students;
<b>Evaluation</b>	- bu o‘rganish yoki qaror	- is the systematic

	qabul qilish maqsadida tashabbusni loyihalash, amalga oshirish yoki natijalarini tizimli baholashdir;	assessment of the design, implementation or results of an initiative for the purposes of learning or decision-making;
<b>Diagnostic Assessment</b>	o‘quvchining bilimlarini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchi bilim olishda duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.	intended to improve learner’s knowledge and reviews what the learner knows and difficulty that they are facing in learning.
<b>CEFR</b>	Umumiyl Yevropa Til Ko‘nikmasi Qolipi	Common European Framework of Reference for Languages
<b>The basic user</b>	boshlovchi til o‘rganuvchi	is a beginner.
<b>Global scale</b>	Umumiyl ma’lumotlarning turli maqsadlar uchun turli xil yo‘llar bilan taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir.	It is desirable that the common reference points are presented in different ways for different purposes.
<b>Self-assessment grid</b>	o‘quvchilarga o‘zlarining asosiy til ko‘nikmalarini aniqlash va ularning darajalarini o‘z-o‘zini baholash uchun batafsil tavsiflovchilarning tekshiruv ro‘yxatini qaysi darajada ko‘rib chiqishga qaror qilishlariga yordam berish uchun mo‘ljallangan.	intended to help learners to profile their main language skills, and decide at which level they might look at a checklist of more detailed descriptors in order to self-assess their level of proficiency.
<b>A1 levels can:</b>	- ma’lum turdagini ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan juda oddiy iboralarni tushunadi va ulardan foydalanadi; qaerda yashashi, kimlarni bilishi kabi shaxsiy ma’lumotlar haqida savollar berishlari va ularga javob berishlari mumkin.	- understand and use very basic phrases aimed at the satisfaction of needs of a concrete type, - introduce themselves and others and can ask and answer questions about personal details such as where they live, people they know and things they have
<b>A2 levels can:</b>	- eng dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan sohalar bilan bog‘liq jumlalarni va tez-tez	- understand sentences and frequently used expressions related to areas of most

	ishlatib turiladigan iboralarni (masalan, juda shaxsiy va oilaviy ma'lumotlar, xaridlar, mahalliy geografiya, bandlik) qo'llay oladi; - tanish va odatiy masalalar bo'yicha oddiy va to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot almashishni talab qiladigan oddiy va odatdagisi vazifalarda muloqot qila oladi;	immediate relevance (e.g. very basic personal and family information, shopping, local geography, employment), - communicate in simple and routine tasks requiring a simple and direct exchange of information on familiar and routine matters,
<b>B1 levels can:</b>	- ishda, mактабда, bo'sh vaqtлarda va hokazolarda muntazam ravishda uchraydigan tanish bo'lgan masalalar bo'yicha aniq ma'lumotlarning asosiy qismlarini tushunadi; - tilda o'r ganilayotgan mamlakatga sayohat qilishda turli vaziyatlarda tildan foydalana oladi, - tanish yoki shaxsiy qiziqish mavzularida oddiy bog'langan matnni tayyorlay oladi;	- understand the main points of clear standard input on familiar matters regularly encountered in work, school, leisure, etc, - deal with most situations while travelling in an area where the language is spoken, - produce simple connected text on topics that are familiar or of personal interest,
<b>B2 levels can:</b>	- aniq va mavhum mavzular bo'yicha murakkab matnning asosiy g'oyalarini, shu jumladan o'zlarining ixtisoslashuv sohasidagi texnik munozaralarini tushunadi; - ravonlik bilan o'zaro aloqaga chiga oladi, chet ellik so'zlashuvchilar bilan hech qanday qiyinchiliklitsiz muntazam ravishda o'zaro aloqada bo'lishni ta'minlaydi;	- understand the main ideas of complex text on both concrete and abstract topics, including technical discussions in their field of specialization, - interact with a degree of fluency and spontaneity that makes regular interaction with native speakers quite possible without strain for either party
<b>C1 levels can:</b>	murakkab tarkibli gaplarni tushunadi va yashirin ma'noni anglaydi; -	- understand a wide range of demanding, longer clauses, and recognize

	g‘oyalarni qiyinchilik siz ravshan va aniq ifodalay oladi; - ijtimoiy, ilmiy va kasbiy maqsadlarda tildan moslashuvchan va samarali foydalanadi;	implicit meaning, - express ideas fluently and spontaneously without much obvious searching for expressions, - use language flexibly and effectively for social, academic and professional purposes,
<b>C2 levels can:</b>	- eshitilgan yoki o‘qilgan deyarli hamma ma’lumotni osonlikcha tushunib oladi, - turli xil og‘zaki va yozma manbalardan olingan ma’lumotlarni umumlashtiradi, izchil taqdimotda argumentlar va hisobotlarni qayta tiklay oladi, - o‘z fikrini juda ravon va aniq ifoda eta oladi, eng murakkab vaziyatlarda ham nozik ma’no ottenkalarini farqlaydi.	-understand with ease virtually everything heard or read, - summarize information from different spoken and written sources, reconstructing arguments and accounts in a coherent presentation, - express themselves spontaneously, very fluently and precisely, differentiating finer shades of meaning even in the most complex situations.
<b>Problem solving</b>	bu muammoni aniqlash, uning sababini o‘rganish; yechim uchun alternative yo‘llarni izlash, birinchi o‘ringa qo‘yish va tanlash; va yechimni amalga oshirish.	is the act of defining a problem; determining the cause of the problem; identifying, prioritizing, and selecting alternatives for a solution; and implementing a solution.
<b>Research skills</b>	savolga javob topish yoki muammoning yechimini topish qobiliyatidir. Tadqiqot ko‘nikmalariga mavzuga oid ma’lumotlarni to‘plash, ushbu ma’lumotlarni ko‘rib chiqish va yechimga olib keladigan tarzda tahlil qilish va sharhlash qobiliyati kiradi.	are our ability to find an answer to a question or a solution to a problem. Research skills include the ability to gather information about your topic, review that information and analyze and interpret the information in a manner that brings us to a solution.
<b>Language accuracy</b>	o‘quvchilarning til tizimidan, shu jumladan grammatika, talaffuz va leksikadan foydalanish	refers to how correct learners’ use of the language system is, including their use of

	darajasi.	grammar, pronunciation and vocabulary.
<b>Language fluency</b>	o‘quvchining grammatikada, talaffuzda va so‘z boyligida qancha xatolarga yo‘l qo‘yanidan ko‘ra, ma’noni qanchalik yaxshi yetkaza olib, gaplashishini anglatadi.	refers to how well a learner communicates meaning rather than how many mistakes they make in grammar, pronunciation and vocabulary.
<b>Language Portfolio</b>	faylga yoki maxsus jildga birlashtirilgan talabalarining alohida ishlari to‘plamidir. Ular o‘quvchiga tegishli bo‘lib, tilni o‘rganish davom etar ekan, ba’zi qismlarni qo‘sish yoki olib tashlash orqali yangilanishi mumkin.	is a collection of individual students’ work put together in a file or ring binder. They belong to the student and can be updated as language learning continues by adding to and taking away pieces of work.
<b>Interview</b>	bu juftliklarda bajariladigan og‘zaki mashg‘ulot bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarining o‘rganilayotgan chet tilida shaxslararo ko‘nikmalarini rivojlantirishdir	is an oral activity done in pairs, whose main goal is to develop students' interpersonal skills in the TL
<b>Information gap</b>	talabalar hamkorligidai faoliyat bo‘lib, ular uchun ilgari noma’lum bo‘lgan ma’lumotni samarali ravishda so‘rab olish va bo‘shliqni to‘ldirish	is a collaborative activity, whose purpose is for students to effectively obtain information that was previously unknown to them, in the TL.
<b>Open book exam</b>	Imtihon paytida talabalarga eslatmalar va / yoki ma’lumotnomalardan foydalanishga ruxsat beriladi	Students are allowed to use notes and/or reference books during the exam
<b>A scavenger hunt is</b>	o‘quvchilar o‘rtasida ochiq muloqotga yordam beradigan topshiriq.	a mingling activity that promotes open interaction between students.
<b>Feedback</b>	odatda kommunikatsiya nazariyasi va fiziologiyasida qo‘llaniladi. U jarayon davomida ham, undan keyin ham	is commonly used in communication theory and physiology. It informs the sender if the sent message is well received. It also

	takomillashtirish va qayta ko‘rib chiqish uchun kerakli ma’lumotlarni taqdim etadi. O‘qitishda ta’lim sohasida qo‘llanilganda, u har doim o‘qituvchidan o‘quvchiga yoki o‘quvchidan o‘qituvchiga muloqotni belgilash uchun ishlataladi.	provides the necessary information for refinement and revision, both during and after the process. When applied in teaching, it is always used to denote the teacher-to-student or student-to-teacher communication.
<b>Effective feedback</b>	talaba faoliyatining asosiy kuchli va zaif tomonlarini aniq tushuntiradi; takomillashtirish bo‘yicha foydali ko‘rsatmalar beradi.	explains clearly and precisely the principal strengths and weaknesses of a student’s performance; provides helpful guidance on how to improve

## **VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

18. Adams J.K. Pragmatics and Fiction – Amsterdam: J.Benjamins Publishing Comp., 1985. - 77 p.
19. Adamzik K. Sprachliches Handeln und sozialer Kontakt.- Tubingen: Narr, 1984.-365 S.
20. Adorno T.W. Negative Dialectik. – Frankfurt an Main, 1966.
21. Allwood J.A. A critical look at speech act theory. - In: Logic, Pragmatics and Grammar. - Lund, 1977.
22. Ashurova D. Language and Cultural Studies // Xorijiy filologiya, 2006, 4-sun. 11-14 b.

23. Austin J.L. How To Do Things With Words. –Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973.- 167 r.
24. Auwera J. van der. Pragmatic presupposition: Shared beliefs in a theory of irrefutable meaning. In: Syntax and Semantics. –New York, ect.: Acad. Press, 1979. –Vol.11. Presuppositions. –P. 249-264.

#### **IV. Internet saytlar**

25. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
26. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujatlari ma’lumotlari milliy bazasi
27. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
28. [www.Britishcouncil.org](http://www.Britishcouncil.org) – Britaniya kengashi veb sayti
29. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Ta’lim portali
30. [www.tefl.net](http://www.tefl.net) – Til o‘rganish veb sayti
31. [busyteacher.org](http://busyteacher.org) – Til o‘rganish veb sayti